



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

ISSN:2181-2365

O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2025 №4(19)



O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan
"O'zbekiston sud ekspertizasi" ilmiy jurnali yuridik va siyosiy
fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

MUNDARIJA

Xalilov A.U., Qolqanov N.T. Murojaatnoma – zamonaviy davlat boshqaruvi va jamiyat o'rtasidagi institutsional muloqot shakli.	2
Nuritdinov J.M. Sud ekspertizasini takomil-lashtirishning huquqiy va institutsional asoslari: Yangi O'zbekiston tajribasi.	8
Saitova N.S., Ataniyazov D.Sh. Molekulyar genetik tadqiqot o'tkazish jarayonida biometrik ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda LIMSning o'rni	13
Fayzullayev Sh.F. Isbotlashdagi dolzarb masala – xorijdagi protsess ishtirokchilari bilan bog'liq dalillarni to'plash muammolari	18
Abduqodirova Sh.A. Qo'l tirnoqlari ostidagi mikrotolalar – jinoyatning yashirin guvohi	26
Kudaynazarov A.M. O'zbekiston Respublikasida kompleks sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish jarayonidagi muammolar va ularning yechimi	31
Bozorov M.M. Jinoyat protsessida ekspertning huquqiy maqomi, ularni jalb etishda yuzaga keladigan xarajatlar hamda qoplash tartibi	36
Jurayev F.X. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish bo'yicha ayrim muammolar.	44
Musayev M.T. Zamonaviy kibermakonda missionerlik tahdidlarining namoyon bo'lishi	49
Qolqanov N.T., Nishonova N.B. Konstitutsiya – xalqimizning erkin va adolatli hayoti poydevori	55
Saparbayev R.T. O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning izchil rivojlanishi – manzilli qo'llab-quvvatlash mexanizmi misolida bolalar kelajagiga investitsiya qilish masalalari	59
G'ofurjonov A.X. Global menejmentda inqirozli vaziyatlarni boshqarish usullari	65
Yoqubov M.G'., Xalilov A.B. Kriptografik axborot himoyasi tamoyillari	70
Abrarov I.J. O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi	76
Suvankulova M.B. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarda mantiqiy fikrlashni baholash mezonlari	81
Shermatov A.G'. Yoshlar tarbiyasida sun'iy intellekt: siyosiy-axloqiy tahlil.	89
Kutpiddinov X.M. Bolalar huquqlarini himoya qilishda ma'muriy javobgarlik mexanizmlarining kuchaytirilishi hamda yangi qonunchilik va institutsional islohotlar tahlili.	97

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi

Bosh muharrir:
Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rinbosari:
Uchkun UZAKOV

Mas'ul kotib:
Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:
Akbar TASHKULOV
Sherzod RABIYEV
Jamshidxon NURITDINOV
Istam ASTANOV
Narzulla JO'RAYEV
Odil MUSAYEV
Oybek SIROJOV
Eshmuxamad KADIROV
Shuhrat RAXMANOV
Saidillaxodja SAIDXODJAYEV
Shuxrat O'TAQULOV
Nilufar XALILOVA
Nadejda KORABLYOVA
Murodjon MAXKAMOV
Sanjar KUDRATOV
Niyyora SAITOVA

Mas'ul muharrir:
Husan NISHONOV

Dizayner:
Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:
Malohat TOSHOVA

"O'zbekiston sud ekspertizasi" huquqiy,
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg'ona yo'li ko'chasi.
Telefonlar:
(71) 209-11-55 (153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: www.sudex.uz
e-mail: info@sudex.uz
facebook.com/sudex.uz
telegram.me/sudex.uz

Jurnal 10.01.2026-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

"Reliable Print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

MUROJAATNOMA – ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA JAMIYAT O'RTASIDAGI INSTITUTIONAL MULOQOT SHAKLI

XALILOV

*Akram Utamurodovich,
yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

QOLQANOV

*Nuriddin Tashpulatovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD),
dotsent*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil yakunida Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasining siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilindi. Murojaatnoma davlat va jamiyat o'rtasidagi institutsional muloqot shakli sifatida yoritilib, unda ilgari surilgan ustuvor yo'nalishlar, xususan, inson manfaatlariga yo'naltirilgan davlat siyosati, iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari, ijtimoiy davlat konsepsiyasi, mahalla instituti, inson kapitali va texnologik taraqqiyot masalalari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Murojaatnoma, davlat siyosati, inson kapitali, ijtimoiy davlat, mahalla, iqtisodiy o'sish, innovatsiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется социально-политическое и экономическое значение Послания Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана 2025 года. Послание рассматривается как форма институционального диалога между государством и обществом. Особое внимание уделяется вопросам формирования социального государства, развития человеческого капитала, роли института махалли, а также проблемам экономического роста и инновационного развития.

Ключевые слова: Послание Президента, государственная политика, человеческий капитал, социальное государство, махалля, экономический рост, инновации.

ANNOTATION

This article analyzes the political, legal, and socio-economic significance of the 2025 Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan. The Address is examined as an institutional form of dialogue between the state and society, highlighting key priorities such as human-centered governance, human capital development, social state principles, economic growth, and innovation-driven development.

Key words: Presidential Address, public policy, human capital, social state, mahalla, economic growth, innovation.

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida davlat rahbarining parlament va xalqqa murojaat qilishi oddiy siyosiy ritorikadan ancha keng mazmunga ega bo'lgan **strategik hujjat** hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida hisobot, dastur, prognoz va mafkuraviy yo'naltiruvchi vazifalarni bajaradi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi ham kompleks va ko'p qirrali siyosiy hujjat sifatida namoyon bo'ldi.

Murojaatnoma davlatning o'z fuqarolari oldidagi ochiq hisobdorligini ta'minlaydi, strategik maqsadlar bilan amaliy vazifalar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. U orqali davlat rahbari nafaqat o'tgan yil natijalarini sarhisob qiladi, balki kelgusi bosqichda jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalarni konseptual jihatdan belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev murojaatni **“Bugun Oliy Majlisga va ko'pmillatli xalqimizga kelgusi yil uchun**

Murojaatnomani taqdim etar ekanman...”¹ degan so'zlar bilan boshlaydi. Ushbu ibora Murojaatnomaning asosiy yo'nalishi kelgusi taraqqiyot strategiyasini belgilash ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Natijaga yo'naltirilgan davlat siyosati: “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot falsafasi. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar falsafasi “deklaratsiya”dan “amaliy natija”ga o'tish bilan tavsiflanadi. Prezidentimiz bu yondashuvni Murojaatnomada **“Biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik”**² deya aniq va ochiq ifodalaydi. Bu fikr davlat boshqaruvida pragmatik yondashuv, institutsional samaradorlik va natijadorlik tamoyillari ustuvor bo'lib borayotganini anglatadi. Ya'ni, islohotlar endilikda shunchaki g'oya yoki hujjat emas, balki har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson hayotida seziladigan real o'zgarish sifatida baholanmoqda. Bu jarayon shahar va qishloqlar qiyofasining o'zgarishi, infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi, raqamli xizmatlar rivoji, yangi ish o'rinlari yaratilishi hamda ijtimoiy himoya tizimidagi o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Global beqarorlik sharoitida milliy barqarorlik. Murojaatnomaning muhim konseptual jihatlaridan biri O'zbekiston taraqqiyotining global jarayonlar fonida tahlil qilinishidir. Prezidentimiz

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

² <https://president.uz/uz/lists/view/8834>



dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarga alohida to'xtalib o'tadi: **"Dunyoda sodir bo'layotgan va yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan o'zgarishlar sharoitida o'ta murakkab yilni yakunlayapmiz"**³. Bu yerda gap geosiyosiy qarama-qarshiliklar, global savdo zanjirlarining uzilishi, xavfsizlik tahdidlari, inflyatsion bosim va moliyaviy noaniqliklar haqida bormoqda. Shunday murakkab muhitda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi – davlat siyosati samaradorligining asosiy indikatori hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti **ishonchli va barqaror o'sishda davom etdi**. Bu holat davlatning makroiqtisodiy barqarorlik siyosati, diversifikatsiyalangan iqtisodiy model hamda ochiq tashqi iqtisodiy aloqalarga asoslangan strategiyasi to'g'ri ekanini ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sish va ularning siyosiy ahamiyati. Murojaatnomada keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar O'zbekiston taraqqiyotida sifat jihatdan yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Xususan, Prezidentimiz quyidagicha ta'kidlaydi: **"Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi"**⁴. Bu raqam nafaqat iqtisodiy o'sish, balki davlat-

ning strategik rejalashtirish qobiliyati oshganini ham anglatadi. Chunki Murojaatda ta'kidlanganidek, bor-yo'g'i to'qqiz yil oldin YIMni 100 milliard dollarga yetkazish katta marra sifatida baholangan edi. Shuningdek, eksport hajmi **33,4 milliard dollarga** yetgan bo'lsa, oltin-valyuta zaxiralari **60 milliard dollardan oshdi** hamda xorijiy investitsiyalar hajmi **43,1 milliard dollarni** tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda **ichki va tashqi ishonch** mustahkamlanganini anglatadi.

Suveren reyting va xalqaro ishonch omillari. Prezidentimiz Murojaatnomada xalqaro reytinglar masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari O'zbekistonning suveren reytingini **"BB-"dan "BB" darajasiga** ko'targani ta'kidlandi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, bu holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- davlat moliyaviy intizomining yaxshilanishi;
- qarz yukini boshqarishda shaffoflik;
- institutsional islohotlarning barqarorligi.

Prezidentimiz buning amaliy foydasini ham aniq ko'rsatadi: **"Bu o'zgarish tufayli tashqi qarz xarajati yiliga kamida 300 million dollarga kamayadi"**⁵.

⁵ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>



Davlat siyosatida “inson manfaati” konsepsiyasi. Prezidentimiz Murojaatnomada iqtisodiy o'sishni mustaqil maqsad sifatida emas, balki **inson farovonligiga xizmat qiluvchi vosita** sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamonaviy ijtimoiy davlat nazariyasiga to'liq mos keladi. Ya'ni Murojaatda shunday deyiladi: **“Islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda”**⁶. Bu fikr davlat siyosatida **inson markaziy o'rinda** ekanini anglatadi. Ya'ni iqtisodiy o'sish, infratuzilma, investitsiya – bularning barchasi pirovardida inson hayoti sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Zamonaviy siyosiy nazariyada “ijtimoiy davlat” tushunchasi faqatgina qayta taqsimlash yoki ijtimoiy yordam mexanizmlari bilan cheklanmaydi. U, eng avvalo, insonni iqtisodiy o'sishning markaziga qo'yuvchi, uning munosib hayot kechirishini kafolatlaydigan institutsional tizimni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilgi Murojaatnomasida aynan shu yondashuv davlat siyosatida yetakchi g'oya sifatida ilgari surilganini ko'ramiz.

Prezidentimiz nutqida kambag'allik masalasi alohida strategik ahamiyatga ega bo'lgan muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Bu borada u quyidagicha ta'kidlaydi: **“Biz kambag'allikni qisqartirish masalasini umummilliy harakatga aylantirdik”**⁷. Ushbu fikr kambag'allikka qarshi kurash davlatning yakka o'zi amalga oshiradigan vazifa emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari – mahalla, tadbirkorlik subyektlari, nodavlat sektor va fuqarolarning hamkorligini talab qiluvchi keng ko'lamli jarayon ekanini anglatadi.

Kambag'allikni qisqartirishda institutsional yondashuv. Murojaatnomada keltirilgan raqamlar ijtimoiy siyosatda tizimli burilish yuz berganini ko'rsatadi. Xususan, so'nggi yillarda **8,5 milliondan ortiq aholi kambag'allikdan chiqarilib**, kambag'allik darajasi **8,9 foizdan 5,8 foizga** tushirilgan va 1 ming 435 ta mahalla “kambag'allikdan xoli” hududga aylangan. Ilmiy tahlil nuqtayi nazaridan, bu natijalar quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- ijtimoiy yordamning manzilli tizimga o'tkazilishi;
- “mahallabay” ishlash tamoyilining joriy

qilinishi;

- kambag'allikni faqat daromad yetishmasligi emas, balki institutsional cheklovlar natijasi sifatida tushunish. Prezidentimiz bu masalada muhim konseptual nuqtani belgilaydi: **“Asosiy maqsadimiz – odamlarimizni doimiy daromadli qilish”**⁸. Bu yerda ijtimoiy siyosatning passiv (nafaqa, yordam) modeli emas, balki **faol ijtimoiy davlat** modeli tanlanganini ko'ramiz.

Bandlik siyosati va mehnat bozori transformatsiyasi. Kambag'allikni qisqartirishning eng samarali yo'li – aholini ish bilan ta'minlash hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Murojaatnomada bandlik siyosatiga alohida e'tibor qaratilgan. Prezidentimizning ma'lum qilishicha, 2025-yilda **5 million aholi daromadli bo'lib**, ishsizlik darajasi **5,5 foizdan 4,9 foizga** pasaygan. Bu ko'rsatkichlar mehnat bozorida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilganini ko'rsatadi. Xususan, “mahallada sanoat va xizmat” loyihalari, mikroloiyhalarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlikka imtiyozli kreditlar ajratish orqali aholi o'z yashash hududida ish topish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu jarayonni **detsentralizatsiya qilingan bandlik siyosati** deb atash mumkin.

Mahalla, inson kapitali va kelajak. Murojaatnomaning eng muhim va o'ziga xos qismlaridan biri – mahalla institutiga berilgan strategik ahamiyatdir. Prezidentimiz mahallani nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki milliy davlatchilik an'anasiga asoslangan **o'zini o'zi boshqarish instituti** sifatida ta'riflaydi: **“Mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi”**. Bu fikr mahallaning ijtimoiy kapital yaratishdagi o'rnini ko'rsatadi. Ijtimoiy kapital nazariyasiga ko'ra, ishonch, hamjihatlik va o'zaro yordam jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Murojaatnomada **2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb nomlash taklif etildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2026-yilga berilgan nom ramziy emas, balki aniq dasturiy mazmunga ega. Bu yil doirasida mahalla infratuzilmasi uchun **20 trillion so'm**, og'ir sharoitli 33 tuman va 330 mahalla uchun **8,5 trillion so'm** hamda mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi moliyaviy mexanizmlar joriy etilishi ta'kidlandi. Bunday choralar mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, fiskal detsentralizatsiya va aholining qaror qabul qilish

⁶ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

⁷ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

⁸ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

⁹ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

jarayonidagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Murojaatnomada inson kapitali masalasi alohida strategik resurs sifatida talqin qilinadi. Ta'lim, ilm-fan va yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining uzoq muddatli asosi ekani ta'kidlanadi. Jumladan, 2025-yilda:

- o'quvchi va talabalar xalqaro fan olimpiadalarida **51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalni** qo'lga kiritdi;

- O'zbekiston ilk bor futbol bo'yicha Jahon chempionatiga yo'llanma oldi;

- shaxmat va parasport sohasida rekord natijalar qayd etildi. Bu misollar inson kapitaliga qilingan investitsiyaning samarasini ko'rsatadi.

Prezidentimiz nutqida yoshlar mamlakat kelajagining asosiy tayanchi sifatida ko'rsatiladi. Yoshlar uchun ta'lim, kasb-hunar, sport va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. **“Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko'rib, ko'ksimiz tog'dek ko'tariladi”**. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu demografik dividenddan samarali foydalanish siyosati sifatida baholanadi.

Texnologik va innovatsion iqtisodiyotga o'tish – strategik zarurat. XXI asr global raqobat sharoitida davlatlar o'rtasidagi farq, eng avvalo, tabiiy resurslar yoki geografik joylashuv bilan emas, balki **texnologik salohiyat, innovatsiya darajasi va inson kapitali sifati** bilan belgilanmoqda. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilgi Murojaatnomasida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgani tasodifiy emas.

Prezidentimiz bu masalani qat'iy tarzda quyidagicha ifoda etadi: **“Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo'lish uchun malakali mutaxassislar va zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega”**¹⁰. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu yondashuv **endogen iqtisodiy o'sish nazariyasiga** to'liq mos keladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, iqtisodiy o'sishning asosiy manbayi – innovatsiya, bilim va texnologiyadir.

Iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish. Prezident Murojaatnomada qo'shilgan qiymat yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

- yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini

rivojlantirish;

- xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish;

- mehnat unumdorligini oshirish.

Murojaatnomada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, sanoatda energiya samaradorligini oshirish hisobiga birgina yilda **1 milliard dollarlik qo'shimcha qiymat** yaratilgan. Bu raqam texnologik modernizatsiya iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashini isbotlaydi.

Investitsiya siyosati: sifatga yo'naltirilgan yondashuv. Prezidentimiz o'z nutqida investitsiya siyosatida miqdor emas, **sifat ustuvor** bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Xususan, u quyidagicha bayon qiladi: **“Har bir dollar investitsiya ilg'or texnologiya, yangi kompetensiya va eksport uchun xizmat qilishi kerak”**¹¹. Bu fikr investitsiya siyosatida strategik saralash tamoyili joriy etilayotganini ko'rsatadi. Ilmiy jihatdan aytganda, bu yondashuv investitsiya sifati indeksini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Murojaatnomada ma'lum qilishicha, kelgusi yillarda **180 milliard dollar** xorijiy investitsiya jalb etish hamda **bir million yuqori daromadli ish o'rni** yaratish rejalashtirilgan.

Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt siyosati. Murojaatnomaning eng muhim yo'nalishlaridan biri – raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt masalasidir. Prezidentimiz bu sohani kelgusi taraqqiyotning “drayveri” sifatida baholaydi. Jumladan, 2025-yilda AT xizmatlari eksporti ilk bor **1 milliard dollarga** yetgan va startaplarga **270 million dollar** xorijiy investitsiya jalb etilgan.

Bu borada Prezidentimiz quyidagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi:

- sun'iy intellekt laboratoriyalari tashkil etish;

- data-markazlar va superkompyuterlar qurish;

- fintex va raqamli startaplar ekotizimini rivojlantirish. Bu choralar **raqamli davlat** konsepsiyasini amaliyotga joriy etishni anglatadi.

Tashqi siyosat: ko'p vektorli hamkorlik va xalqaro nufuz. Murojaatnomada tashqi siyosatga bag'ishlangan qism O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi va nufuzi oshganini ko'rsatadi. Prezidentimiz nutqida **“Biz Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasida hamkorlik**

¹⁰ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

¹¹ <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

ko'priklarini qurishda davom etamiz"¹² deya ta'kidlab o'tadi. 2025-yilda O'zbekiston:

- "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti;
- "Markaziy Osiyo – Yaponiya" uchrashuvi;
- Markaziy Osiyo – AQSH formati kabi yirik xalqaro muloqot maydonlariga mezbonlik qildi.

Bu holat O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi va konstruktiv diplomatik markaz sifatidagi o'zini mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzalari va murojaatlaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda sud ekspertizasi tizimini raqamlashtirish va ilmiy modernizatsiya qilishga qaratilgan institusional islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy laboratoriya infratuzilmasini shakllantirish, yuqori aniqlikdagi texnik vositalar bilan jihozlash hamda xalqaro standartlarga mos metodik qo'llanmalarni joriy etish ushbu jarayonning amaliy ifodasidir. Kompyuter texnikasi, mobil qurilmalar, tarmoq loglari, raqamli tasvir va audioyozuvlar bo'yicha kompleks tahlillarni amalga oshirish imkoniyati ekspertizaning funksional doirasini kengaytirmoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining joriy etilishi sud ekspertizasi faoliyatida yangi sifat bosqichini boshlab bermoqda. Mashinali o'qitish algoritmlari orqali katta hajmdagi audio, video va matnli ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, shablonlarni aniqlash va korrelyatsion bog'lanishlarni belgilash imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa inson omili bilan bog'liq xatolar ehtimolini kamaytirish, tahlil tezligini oshirish va dalillarning ilmiy asoslangan bahosini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda global raqamli transformatsiya jarayoni ijtimoiy tizimlarning barcha tarkibiy elementlariga kompleks va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish faqat texnik yangilanish emas, balki institusional, funksional va

metodologik o'zgarishlarni qamrab olgan sivilizatsion bosqich sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon huquqni muhofaza qilish tizimi, ayniqsa sud ekspertizasi instituti faoliyatida yangi paradigmalar o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

2026-yil ustuvor yo'nalishlari: institutsional transformatsiya. Prezidentimiz Murojaatnomada 2026-yil uchun aniq ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish;
- iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish;
- ichki bozor va talabni rag'batlantirish;
- mehnat bozori va kasblar transformatsiyasi;
- ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- zamonaviy davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimi islohoti.

Bu ustuvor yo'nalishlar davlat siyosatida **tizimli va uzviy yondashuv** mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025-yilgi Murojaatnomasi quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Murojaatnoma – davlat siyosatining markaziy strategik hujjati sifatida namoyon bo'lmoqda;
- Yangi O'zbekistonda natijador va insonga yo'naltirilgan davlat modeli shakllanmoqda;
- ijtimoiy davlat, mahalla instituti va inson kapitali yagona tizim sifatida rivojlanmoqda;
- texnologik va innovatsion taraqqiyot milliy rivojlanish strategiyasining o'zagiga aylanmoqda;
- O'zbekiston xalqaro maydonda ochiq, konstruktiv va ko'p vektorli siyosat yuritmoqda.

¹² <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22-dekabr 2017-yil. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

SUD EKSPERTIZASINI TAKOMILLASH- TIRISHNING HUQUQIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI: YANGI O'ZBEKISTON TAJRIBASI

NURITDINOV

*Jamshidxon Mamutxonovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda sud ekspertlik faoliyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari, institutsional o'zgarishlar, nodavlat ekspertiza tizimining rivojlanishi, raqamlashtirish jarayonlari va amaliyotdagi asosiy muammolarning ilmiy tahlili keltirilgan. Muallif sud-ekspertlik tizimining global tendensiyalar bilan uyg'un rivojlanishi, ekspertiza xulosalarining ishonchligini ta'minlash va sohada xalqaro standartlarni joriy etish bilan bog'liq takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: sud ekspertizasi, nodavlat ekspertiza, raqamlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ekspert xulosasi, odil sudlov, institutsional islohotlar.

АННОТАЦИЯ

В статье представлен научный анализ реформ, направленных на модернизацию судебно-экспертной деятельности в Узбекистане, их правовых основ, институциональных изменений, развития системы негосударственной экспертизы, процессов цифровизации и основных проблем на практике. Автор выдвигает предложения, связанные с гармоничным развитием судебно-экспертной системы с глобальными тенденциями, обеспечением достоверности экспертных заключений и внедрением международных стандартов в данной области.

Ключевые слова: судебная экспертиза, негосударственная экспертиза, цифровизация, правоохранительные органы, экспертное заключение, правосудие, институциональные реформы.

ANNOTATION

The article provides a scientific analysis of reforms aimed at modernizing forensic activities in Uzbekistan, their legal basis, institutional changes, the development of the non-state expert system, digitalization processes, and the main problems in practice. The author puts forward proposals related to the harmonious development of the forensic system with global trends, ensuring the reliability of expert opinions, and the introduction of international standards in the field.

Key words: forensic examination, non-state examination, digitalization, law enforcement agencies, expert opinion, justice, institutional reforms.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, odil sudlovni ta'minlash va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohani zamonaviy, yuqori aniqlikdagi laboratoriya va tahlil uskunalar bilan jihozlash, ekspertlar malakasini oshirish orqali tizimning amaliy imkoniyatlari kengaytirib borilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sud-ekspertiza faoliyati sud-huquq sohasining eng dolzarb va mas'uliyatli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki u jinoyat va ma'muriy ishlarining adolatli hal etilishida, fuqaro manfaatlarini himoya qilishda hamda jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega. Mamlakatimizda sud ekspertiza sohasini rivojlanishining so'nggi o'n yilligi raqamli transformatsiya davriga faol kirish bilan tavsiflanadi. Buning natijasida sud-ekspertiza faoliyatini raqamlashtirishning xususiy nazariyasi ishlab chiqildi. Ushbu tizim sud-ekspertlik faoliyatining axborot-kompyuter ta'minoti asoslangan ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi [1].

Jahon miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib, barcha sohalar bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. O'z navbatida, ushbu jarayonda g'araz niyatli kimsalar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kibermakonda jinoyat sodir etish holatlari tez-tez kuza-tilmoqda [2].

So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda tub islohotlar amalga oshirilib, ekspertiza jarayonlari raqamlashtirilmoqda, malaka oshirish tizimi takomillashtirilmoqda, xalqaro standartlar tatbiq qilinmoqda. Natijada sud-ekspertlik muassasalarining moddiy-texnik bazasi kuchaytirilib, ekspert

xulosalarining aniqligi va ishonchliligi yanada oshdi. Bularning barchasi fuqarolarning sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga, adolat tamoyillarining ustuvor bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Sud-ekspertlik faoliyati tushunchasi O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunida aniq keltirilgan bo'lib: sud-ekspertlik faoliyati sud-ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyat hisoblanadi.

Ushbu tushunchani mazmun-mohiyatini sodaroq ilib yoritadigan bo'lsak, sud-ekspertlik faoliyati bu – ixtisoslashtirilgan davlat sud-ekspertiza muassasalari va davlat muassasalarining bo'linmalari, tegishli vakolatlarga ega boshqa korxona, tashkilot, muassasa (nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti), shuningdek, boshqa jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyatdir.

Sohada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning mazmun-mohiyati aynan sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida amalga oshirilmoqda [3]. Bu borada xorij tajribasini o'rgangan holda bosqicha-bosqich sohani raqamlashtirish borasidagi islohotlar tizimli yo'lga qo'yilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2025-yil 8-sentabrdagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlariga asoslangan holda, O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini ikki turga ajratish mumkin:

- 1) davlat sud-ekspertlik faoliyati;
- 2) nodavlat sud-ekspertlik faoliyati.

O'zbekiston Respublikasida davlat sud-ekspertlik faoliyati bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat Bojxona qo'mitasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi hamda HMQO Akademiyasining tegishli ekspertiza muassasalari va bo'limlari shug'ullanadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan nodavlat sud-expertlik faoliyati bilan esa nodavlat sud-expertiza tashkilotlari shug'ullanadi.

Mazkur Qaror bilan respublikamizda nodavlat sud-expertiza tashkilotlarini tashkil etilishi, ularga ayrim turdagi (55 ta) sud ekspertizalarini o'tkazish huquqi berilishi, nodavlat sud-expertiza tashkilotlari sud ekspertizasini o'tkazishda davlat sud-expertiza muassasalari kabi funksiyalarni amalga oshirishi, ular kabi huquqlarga ega bo'lishi, majburiyatlarni bajarishi va javobgar bo'lishi belgilab qo'yildi [4].

Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Sud-expertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori sud-expertlik faoliyatini yanada rivojlantirish, sohada raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidagi muhim qadamalardan biri bo'ldi.

Ushbu Qaror bilan quyidagilar sud-expertlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib belgilandi:

sud-expertlik faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali tadqiqotlarning tezkorligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash;

sud-expertiza tashkilotlari va ekspertiza tayinlovchi organlarning axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali sohada elektron hujjatlar almashinuvi hajmini 100 foizga yetkazish;

sud-tergov organlarining mavjud ehtiyojlaridan kelib chiqib, davlat sud-expertiza muassasalarida o'tkaziladigan ekspertiza turlari sonini 90 taga yetkazish hamda ularning hududiy bo'limlaridagi ekspertizalar sonini 2 barobarga ko'paytirish;

nodavlat sud-expertiza instituti rolini yanada oshirish va ular faoliyatiga har tomonlama ko'maklashish orqali ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishdagi ulushini 5 barobarga oshirish;

davlat sud-expertiza muassasalarining akkreditatsiyadan o'tkazilgan laboratoriya va bo'limlari sonini 4 barobarga oshirish.

Aynan so'nggi yillarda sud-expertiza sohasidagi dolzarb bo'lib turgan masalalarga yechim sifatida hamda soha oldida turgan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu maqsadlar yo'nalishida tegishli ishlar olib borilishi zarur edi.

Shuningdek, sud-expertlik faoliyatini raqamlashtirish hamda davlat sud-expertiza muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash jarayonidagi asosiy muammolarni tizimli va aniq tarzda bayon etish zarurati paydo bo'ldi. Jumladan, ma'lumotlar tizimining yetarli integratsiya qilinmaganligi turli idoralarda qo'llanila-

digan axborot tizimlari bir-biriga mos kelmasligi natijasida jarayonlar sekinlashmoqda.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar va sud-ekspertiza muassasalari o'rtasida yagona elektron ma'lumot almashish platformasi hamda ekspert xulosalari, laboratoriya natijalari, fotosuratlar va daliliy materiallarning raqamli arxivlari to'liq yo'lga qo'yilmaganligi ham sohadagi barataf etilishi shart bo'lgan mavjud muommolardan biri edi.

Shuningdek, ba'zi hududlarda ma'lumotlarni raqamli shaklda saqlash infratuzilmasi yetishmasligi, kadrlarning raqamli ko'nikmalari yetarli darajada emasligi sohadagi bartaraf etilishi lozim bo'lgan masalalardan biri edi. Aynan bu borada, ya'ni sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish, davlat sud-ekspertiza muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalasida Prezidentimiz tomonidan ham qator davlat organlari oldiga vazifalar belgilab berildi. Qaror bilan quyidagilar:

sudlar, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan organlar (keyingi o'rinlarda – ekspertiza tayinlovchi organlar) bilan elektron hujjatlar almashinuvini ta'minlashga mo'ljallangan "E-ekspertiza" elektron axborot tizimini (keyingi o'rinlarda – "E-ekspertiza" platformasi) sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatiga to'liq joriy etish;

"E-ekspertiza" platformasini ekspertiza tayinlovchi organlarning axborot tizimlari bilan to'liq integratsiya qilish orqali ekspertiza tayinlovchi organlar va sud-ekspertiza tashkilotlari o'rtasida o'zaro elektron axborot almashinuvini yo'lga qo'yish;

sud-ekspertlik faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy qilish va zifalari belgilandi.

Sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida:

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining notijorat tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'yish;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining ixtiyoriy a'zoliciga asoslangan O'zbekiston sud ekspertlari palatasini tashkil etish;

nodavlat sud ekspertlarining kasbiy va amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlash, shuningdek, ularning noqonuniy harakatlari bilan bog'liq holatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligi huzurida Ekspert-malaka komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yish;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlarini 44 tadan 55 taga ko'paytirish;

2025-2027 – yillar davomida yangi ekspertiza va tadqiqot turlarini joriy etish, shu jumladan, kripto-aktivlarning miqdori va turlarini, raqamli fotosurat va videoyozuvda montaj belgilarini, shuningdek, sun'iy intellektidan foydalangan holda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni aniqlash;



sud ekspertizasi xulosalarining ishonchligini yanada oshirish hamda sohani ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash maqsadida sud-ekspertiza tadqiqotlarining xalqaro tan olingan usul va uslubiyotlarini validatsiyadan o'tkazish (sohada qo'llashning maqsadga muvofiqligini baholash) tartibini joriy qilish;

davlat sud-ekspertiza muassasalariga o'z balansidagi uskunalarini haq evaziga shartnoma asosida boshqa davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun foydalanishga topshirish huquqini berish masalalari qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish bugungi kunda sud-huquq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu sohani yanada

rivojlantirish, avvalo, ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, laboratoriyalarni yuqori aniqlikdagi uskunalar bilan jihozlash hamda kadrlar salohiyatini oshirishni talab etadi.

Ma'lumot almashinuvi uchun yagona elektron platforma yaratish, ekspertiza xulosalarining shaffofligi va ishonchligini kuchaytirish, xalqaro standartlarga mos axborot xavfsizligini ta'minlash sud qarorlarining adolatli va tezkor bo'lishiga xizmat qiladi. Zamonaviy moddiy-texnik baza, yetarli resurslar va malakali mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilayotgan islohotlar sud-ekspertlik tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga, natijada fuqarolarning sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni/ <https://lex.uz/docs/1633102>
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'RQ-786-son Qonuni/ <https://lex.uz/uz/docs/6140678>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256-son Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5491507>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-son Qarori/ <https://lex.uz/docs/4172023>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 8 sentyabrdagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-270-son qarori/ <https://lex.uz/uz/docs/7717938>
6. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 martdagi "Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 180-son qarori/ <https://lex.uz/docs/4774077>
7. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi respublika sud-ekspertiza markazining sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 704-son qarori/ <https://lex.uz/uz/docs/5737131>
9. Россинская Е.Р. Современная судебная экспертология – наука о судебной экспертизе и судебно-экспертной деятельности / Е.Р. Россинская // Теория и практика судебной экспертизы. 2015. №4 (40). – С.10-18;
10. Дьяконова О.Г. Понятие и структура предмета науки «Судебная экспертология» /О.Г. Дьяконова // Вестник Университета имени О.Е. Кутафина. 2015. №12. – С.86-99.
11. Попов В.Л. Проблемы и перспективы использования нейросетевых технологий при производстве судебных экспертиз в транспортной сфере // Транспортное право и безопасность. 2020. №3 (35). – С.65-75.

MOLEKULAR GENETIK TADQIQOT O'TKAZISH JARAYONIDA BIOMETRIK MA'LUMOTLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA LIMSNING O'RNI

SAITOVA

*Niyyora Sobirjonovna,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
Iste'mol mahsulotlari va ichimlik
suvi tarkibini tahlil qilish ekspertizasi
laboratoriyasi mudiri,
3-darajali adliya maslahatchisi*

ATANIYAZOV

*Doniyor Shoxnazarovich,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
Sud-kompyuter texnikaviy
ekspertizasi bo'limi boshlig'i,
1-darajali yurist*

ANNOTATSIYA

Maqolada molekulyar genetik tadqiqotlar jarayonida biometrik ma'lumotlarni himoya qilishda Laboratoriya Ma'lumotlarini Boshqarish Tizimlari (LIMS)ning o'rni tahlil qilinadi. LIMS tizimining asosiy funksiyalari – foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish, kirish huquqlarini farqlash, ma'lumotlarni shifrlash, audit izlarini yuritish va xalqaro xavfsizlik standartlariga (GDPR, HIPAA, ISO/IEC 27001, ISO 15189) muvofiqlikni ta'minlashdir. Shuningdek, maqolada LIMSning xalqaro tajribalardagi qo'llanilishi (AQSH, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Singapur misolida) tahlil qilinib, biometrik ma'lumotlarning konfidentsialligini saqlashda bu tizimning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: molekulyar genetika, biometrik ma'lumotlar, LIMS, axborot xavfsizligi, genetik profil, kiberxavfsizlik, shifrlash, GDPR, HIPAA, ISO 27001, sud ekspertizasi, bioxavfsizlik, laboratoriya avtomatlashtirish.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль систем управления лабораторной информацией (LIMS) в обеспечении защиты биометрических данных в процессе молекулярно-генетических исследований. Основные функции системы LIMS включают аутентификацию пользователей, разграничение прав доступа, шифрование данных, ведение аудиторских журналов и соответствие международным стандартам безопасности (GDPR, HIPAA, ISO/IEC 27001, ISO 15189). Также рассматривается применение LIMS в международной практике (на примере США, Великобритании, Швеции и Сингапура) и подчеркивается эффективность этой системы в обеспечении конфиденциальности биометрических данных.

Ключевые слова: молекулярная генетика, биометрические данные, LIMS, информационная безопасность, генетический профиль, кибербезопасность, шифрование, GDPR, HIPAA, ISO 27001, судебная экспертиза, биобезопасность, автоматизация лаборатории.

ANNOTATION

The article analyzes the role of Laboratory Information Management Systems (LIMS) in protecting biometric data during molecular genetic research processes. The main functions of the LIMS system include user authentication, access control, data encryption, audit trail management, and compliance with international security standards (GDPR, HIPAA, ISO/IEC 27001, ISO 15189). In addition, the article examines the application of LIMS in international practice (using examples from the USA, the United Kingdom, Sweden, and Singapore) and highlights the effectiveness of this system in ensuring the confidentiality of biometric data.

Key words: molecular genetics, biometric data, LIMS, information security, genetic profile, cybersecurity, encryption, GDPR, HIPAA, ISO 27001, forensic examination, biosecurity, laboratory automation.

Bugungi rivojlangan kiberolam asrida nafaqat raqamli texnologiyalar, balki insoniyat va jamiyat bilan aloqador barcha sohalarda, jumladan, biotexnologiya sohasida ham jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Ushbu rivojlanish molekulyar genetik tadqiqotlarni sog'liqni saqlash, farmakogenetika, sud ekspertizasi va bioxavfsizlikning ajralmas qismiga aylantirdi. Bunda eng noyob axborot turlari sirasiga kiruvchi, genetik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan biometrik ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.


Molekulyar genetik tadqiqotlarda ishlatiladigan biometrik ma'lumotlar (DNK namunalardan olingan genetik profil, barmoq izlari, yuz skanerlari va h.k.) yuqori aniqlikdagi identifikatsiya imkonini bergani sababli ularning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'lumki, zamonaviy molekulyar genetik tadqiqotlar juda katta miqdordagi ma'lumotlarni, shu jumladan insonning noyob biologik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi biometrik ma'lumotlarni qayta ishlashni talab qiladi. Buni genetik ma'lumotlar nafaqat shaxsni aniqlashga, balki insonning salomatligi, kasalliklarga moyillik darajasi, etnik kelib chiqishi va insonning potentsial xatti-harakatlari yoki kognitiv xususiyatlari ehtimolligi haqida ma'lumot olish imkonini berishda kuzatishimiz mumkin. Aynan shunday o'ziga xos jihatlari asosida molekulyar genetik tadqiqotlar jamiyat tinchligi, odil sudlovni ta'minlash, jinoyatlarni tergov qilishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni hodisa sodir bo'lgan joyda aniqlangan biologik namunalarni tahlil qilish orqali, jinoyatni sodir etgan yoki unga aloqador bo'lgan shaxslarni identifikatsiya qilish imkoniyati mavjud. Bu kabi ma'lumotlarning sir saqlanishi tergov ishining sifatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, sohada axborot tex-

nologiyalaridan foydalanish, ya'ni laboratoriya ma'lumotlarini boshqarish tizimlari (LIMS – laboratoriya ma'lumotlarini boshqarish tizimi) nafaqat laboratoriya jarayonlarini logistika va avtomatlashtirish, balki kiberxavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, LIMS tushunchasiga qisqacha ta'rif berib o'tamiz. LIMS – bu laboratoriya axborot boshqaruv tizimi (*inglizcha* **Laboratory Information Management System**) bo'lib, odatda laboratoriyada xodimlar va ish jarayonlarini nazorat qilish uchun qo'llaniladigan tizim hisoblanadi. Tizim ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni qayd etish va tadqiqotlarning takrorlanuvchanligini qulay usulda ta'minlash kabi imkoniyatlarni beradi. Biroq bugungi kunda LIMS tizimlari ancha kengroq funksiyalarni bajarishi talab etiladi. Masalan, molekulyar genetik laboratoriyalarning barcha axborot infratuzilmasining yadrosi bo'lib xizmat qilishi, biometrik ma'lumotlar uchun namunani ro'yxatdan o'tkazishdan tortib tahlil qilish va natijalarni uzatishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab olish va ma'lumotlar daxlsizligini himoya qilishi talab etiladi.



Molekulyar genetik nuqtayi nazaridan biometrik ma'lumotlar DNK, RNK, oqsillar va boshqa molekulyar markerlar tahlilidan olingan insonning shaxsiylashtirilgan biologik xususiyatlaridir. Ushbu ma'lumotlarga quyidagilar kiradi:

- Genetik profil (masalan, STR, SNP tahlili, genom ketma-ketligi);
- Epigenetik markerlar;
- Gen ekspressiyasining xususiyatlari;
- Kasalliklarga moyillik belgilari.

An'anaviy biometrik ma'lumotlardan (barmaq izlari, ko'z rangli qobig'i) farqli o'laroq, molekulyar genetik ma'lumotlari inson haqida chuqur va ishonchli ma'lumotlarni, shu jumladan irsiy xususiyatlar, potensial kasalliklar, etnik kelib chiqishi va hatto ehtimoliy xulq-atvor xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi.

Bunday ma'lumotlar o'ta shaxsiy va konfidentialligi sababli, laboratoriya jarayonlarini tashkil etishda uni himoya qilish ustuvor vazifaga aylanadi. Ushbu ma'lumotlarning sizib chiqishi yoki buzilishi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, masalan, shaxsiy hayotning buzilishi, kamsitish, uchinchi shaxslar tomonidan ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunlarning buzilishi kabi jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Laboratoriya ma'lumotlarini boshqarish tizimi (LIMS) molekulyar genetik tadqiqotlarni o'tkazishda biometrik ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U autentifikatsiya va foydalanuvchi huquqlarini farqlash funksiyalari orqali ma'lumotlarga kirishni qat'iy nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi, bu esa ruxsatsiz kirish xavfini kamaytiradi. LIMSdagi har bir namuna egasi haqidagi ma'lumotlarni shifrlangan holda saqlash imkonini beradi hamda raqamli identifikator bilan maxfiylik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, tizim namunalar va ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq barcha harakatlar ketma-ketligini yozib boradi, to'liq audit izini yaratadi, bu esa hodisalarni keyingi tahlil qilish va tartibga solish talablariga rioya qilish uchun juda muhimdir.

Laboratoriyaga LIMSni joriy qilish va ish jarayonlarini avtomatlashtirish ijobiy jihatlari bilan birga bir qancha muammolarni hal etish zaruratini yuzaga chiqaradi. Quyida ushbu soha o'z asosiy muammolarni keltiramiz.

Ruxsatsiz identifikatsiya xavfi – biometrik ma'lumotlar biror shaxsga unikal tarzda tegishli bo'lgani sababli, ularning ochiq qolishi shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligini xavf ostida qoldiradi. Ma'lumotlar orqali foydalanuvchi yoki tekshirilayotgan shaxs ruxsatsiz aniqlanishiga olib keladi, bu esa maxfiylik me'yorlariga zid hisoblanadi.

Daxlsizlikning qayta tiklanmasligi – odatiy parol yoki tokenlardan farqli o'laroq, biometrik ma'lumotlarni o'zgartirish imkoni yo'q. Shu sababli, bir marotaba sizdirilgan yoki o'g'irlangan DNK profili qayta yangilanmaydi. Bu esa ushbu ma'lumot egalariining doimiy xavf ostida qolishiga olib keladi.

Yuridik me'yorlarning yetishmasligi – ko'plab mamlakatlarda biometrik ma'lumotlarning to'g'ri ishlatilishi va himoyasiga oid aniq qonunchilik bazasi mavjud emas. Bu esa ushbu ma'lumotlar bilan ishlash vakolatini suiiste'mol qilish xavfini oshiradi va laboratoriyada faoliyat yurituvchi ayrim xodimlarning biometrik ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanishi, ularning uchunchi shaxslarga yetkazilishi ehtimolini oshiradi.

Shu kabi muammolarning oldini olish maqsadida zamonaviy axborot tizimlarida ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishda shifrlash algoritmlaridan foydalaniladi, bu esa bulutli texnologiyalar va laboratoriyalarning masofadan ishlashida juda muhimdir. Shifrlash va kriptografik himoya ma'lumotlarning muntazam zaxira nusxasi bilan birgalikda ularning yaxlitligini

saqlash va ma'lumotlar yo'qolishining oldini olishga imkon beradi. Raqamli imzolar, versiyalarni boshqarish, zaxira nusxalari va ma'lumotlarni tiklash tizimlari ham qo'llaniladi.


Xavfsiz interfeyslar orqali, boshqa tibbiy, tadqiqot va ma'muriy platformalar bilan integratsiya orqali GDPR, HIPAA va ISO 27001 kabi barcha xalqaro xavfsizlik standartlariga rioya qilgan holda muassasalar va tadqiqot markazlari o'rtasida xavfsiz ma'lumotlar almashinuvini ta'minlash mumkin.

Tizimdagi har bir foydalanuvchi harakati auditorlik jurnalida qayd etiladi, bu jarayonlarning shaffofligini ta'minlash, ruxsatsiz kirishni tezda aniqlash va GDPR (EI), HIPAA (AQSH), ISO/IEC 27001 va boshqa xalqaro standartlar talablariga javob beradi.

Laboratoriyaga joriy qilinadigan LIMS quyidagi xalqaro normalar talablarini qo'llab-quvvatlashi talab etiladi:

- GDPR (EI) – shaxsiy va biometrik ma'lumotlarni himoya qilish;
- HIPAA (AQSH) – tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi;
- ISO / IEC 27001 – axborot xavfsizligi;
- ISO 15189 – tibbiy laboratoriyalar;
- GXP, GLP – farmatsevtika va biotexnologiya laboratoriyalari uchun.

Xalqaro amaliyot biometrik ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashda LIMSni qo'llash samaradorligini namoyish etadi. Shunday qilib, AQSHda LIMS CODIS federal bazasi



bilan integratsiyalashgan holda sud-ekspertlik laboratoriyalarida keng qo'llaniladi, DNK profillariga kirish esa qat'iy tartibga solinadi. Buyuk Britaniyada, 100,000 Genomes loyihasi doirasida, saraton va kam uchraydigan kasalliklarga chalingan bemorlarning ma'lumotlari GDPR talablariga javob beradigan LIMS muhitida saqlanadi va qayta ishlanadi. Shvetsiyada LIMS milliy biobanklar, tadqiqot markazlarida namunalarni saqlashni standartlashtirish va ilmiy ma'lumotlar takrorlanishining oldini olish uchun ishlatiladi. Hukumat biometrik strategiyasi mavjud bo'lgan Singapurda LIMS milliy sog'liqni saqlash tizimi bilan birlashtirilgan va ishonchli raqamli infratuzilmaning elementi sifatida qaraladi.

Bugungi kunda LIMS yechimlari va genetik ma'lumotlar massivlarini tahlil qilish va mazmunli talqinlarini taklif qilish qobiliyatiga ega bo'lgan

vositalar bilan birlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq bunday yechimlar axborot xavfsizligiga yanada qat'iy yondashuvlarni talab qiladi, jumladan masofadan kirishni qat'iy himoya qilish, foydalanuvchi xatti-harakatlarini boshqarish (UEBA), ma'lumotlarni shifrlash va kiberetika standartlarni qo'llash.

Shunday qilib, LIMSning roli faqatgina laboratoriyadagi ish jarayonlarini avtomatlashtirish darajasidan oshib, biometrik ma'lumotlarning xavfsizligi, muvofiqlik, laboratoriyalarning shaffofligi va jamiyatning genetik tadqiqotlar natijalariga ishonchini ta'minlaydigan platforma yoxud raqamli vositaga aylanadi. Zamonaviy LIMSni joriy qilish va qo'llash nafaqat texnologik mukammallikka qadam, balki XXI asrda genetik tadqiqotlarning huquqiy va axloqiy barqarorligining asosidir.

ADABIYOTLAR

1. ISO/IEC 27001:2022. Information Security, Cybersecurity and Privacy Protection – Information Security Management Systems – Requirements. – Geneva: International Organization for Standardization, 2022.
2. ISO 15189:2022. Medical Laboratories – Requirements for Quality and Competence. – Geneva: International Organization for Standardization, 2022.
3. European Union (EU) General Data Protection Regulation (GDPR). Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council. – Official Journal of the European Union, 2016.
4. HIPAA (Health Insurance Portability and Accountability Act). Privacy and Security Rules. – Washington: U.S. Department of Health and Human Services, 1996 (updated 2023).
5. Alyasseri Z. A., Al-Baity H. H., Fadhel M. A. The Role of LIMS in Modern Molecular Biology Laboratories: Data Management, Automation, and Security // Journal of Biomedical Informatics. – 2022. – Vol. 130. – P. 104106.
6. Smith J., Patel R. Ensuring Data Integrity and Security in Molecular Genetic Laboratories Using LIMS // Computers in Biology and Medicine. – 2021. – Vol. 134. – P. 104484.
7. CODIS, FBI Laboratory Division. Combined DNA Index System (CODIS) and National DNA Index System (NDIS) Operational Procedures. – Washington: U.S. Department of Justice, 2023.
8. Genomics England. 100,000 Genomes Project: Data Security and Privacy Policy. – London: Genomics England, 2020.
9. Swedish Biobank Infrastructure. National Guidelines for Biobank Management and Data Protection. – Stockholm: Swedish Research Council, 2021.
10. Singapore Ministry of Health. National Health Data Governance Framework. – Singapore: Government Publication, 2022.
11. Kumar S., Bansal R. Data Encryption and Privacy Protection in Genetic Information Systems // International Journal of Bioinformatics Research and Applications. – 2023. – Vol. 19, №2. – P. 145–160.
12. Ullah A., Rehman M. Cybersecurity Challenges in Handling Biometric and Genetic Data // IEEE Access. – 2021. – Vol. 9. – P. 135942–135958.

ANNOTATSIYA

**ISBOTLASHDAGI
DOLZARB MASALA –
XORIJDAGI PROTSESS
ISHTIROKCHILARI
BILAN BOG'LIQ
DALILLARNI TO'PLASH
MUAMMOLARI**

FAYZULLAYEV

*Shavkat Fayzullayevich,
O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi*

Maqolada jinoyat-protsessual qonunchiligida tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish tartibining kiritilishi va uning kutilgan natija bermayotgani bilan bog'liq omillar, ularni hal etish yo'llari, bu borada olimlarning mulohazalari tahlil qilingan. Xorijiy davlatlarning qonunchiligi tahlil qilinib, Jinoyat-protsessual kodeksining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali tergov jarayonlarini masofaviy tarzda amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyat-protsessual kodeksi, xorijdagi protsess ishtirokchisi, videokonferensaloqa, masofaviy tergov harakatlari, topshiriq, xalqaro hamkorlik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется введение в уголовно-процессуальное законодательство порядка проведения следственных действий в режиме видеоконференцсвязи, а также факторы, препятствующие достижению ожидаемых результатов, и пути их устранения. Рассмотрены мнения ученых по данному вопросу. Проведен анализ законодательства ряда государств, на основе которого предложены рекомендации по расширению возможностей дистанционного осуществления следственных действий посредством внесения изменений и дополнений в отдельные статьи уголовно-процессуального кодекса.

Ключевые слова: уголовно-процессуальный кодекс, участник процесса за рубежом, видеоконференцсвязь, дистанционные следственные действия, поручение, международное сотрудничество.

ANNOTATION

The article analyzes the introduction of procedures for conducting investigative actions via videoconference within the criminal procedure legislation, as well as the factors hindering the achievement of expected results and possible solutions. The opinions of scholars on this issue are reviewed. The legislation of foreign countries is examined, and proposals are made to expand the possibilities of conducting investigative actions remotely by introducing amendments and additions to certain articles of the Criminal Procedure Code.

Keywords: Criminal Procedure Code, participant of proceedings abroad, videoconference, remote investigative actions, request, international cooperation.

Mamlakatimiz huquq tizimida boshqa sohalarda bo'lgani kabi zamon talablariga mos ravishda rivojlanish kuzatilmoqda. Shu bilan birga isbotlash jarayoni ham takomillashmoqda.

2019-yil 23-may kuni Qonun¹ bilan tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish tartibi joriy etildi. JPKning 91-moddasiga yana 4 ta prim moddalar (91¹, 91², 91³, 91⁴) kiritildi. Ammo ushbu rejim amaliyotda kutilgan natija bermadi. Vaqt mazkur tartib murakkab byurokratik to'siqlar asosida joriy etilganligini ko'rsatdi. Bunga sabab videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlari o'tkazish haqidagi topshiriqni ijro etish jarayonidagi mavjud bo'lmagan mexanizm hamda xorijda bo'lgan protsess ishtirokchilari bilan bog'liq tergov harakatlarini o'tkazish tartibi yoritilmaganligi hisoblanadi.

Bizning qonunchiligimizda surishtiruv va dastlabki tergov hamda sud jarayonida mazkur tergov harakatlarini o'tkazish rejimini qo'llash imkoniyati qonun bilan mustahkamlangan bo'lsa-da, ammo jinoyat ishi yuzasidan amalga oshiriladigan o'zaro huquqiy yordam doirasida videokonferensaloqadan foydalanish tartibi JPKda nazarda tutilmagan. Bu borada S.S.Oripov² ham to'xtalib, protsessual harakatlarni videokonferensaloqa rejimida amalga oshirishda amaliyotda mavjud bo'lgan muammolardan biri – ushbu protsessual harakat o'tkazilishi lozim bo'lgan shaxsning xorijiy davlat hududida ekanligidir. Afsuski, JPKda mazkur holatda qanday harakat qilish tartibi nazarda tutilmagan. Misol uchun, jinoyat ishi bo'yicha asosiy figurant bo'lgan guvoh yoki jabrlanuvchi chet elda bo'lganda u bilan ishning yangi aniqlangan

¹ “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-542-son Qonuni. 19.05.2019-y. <https://lex.uz/uz/docs/4349703> (murojaat vaqti 29.11.2022-y)

² Oripov S.S. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Diss. Phd. – T., 2023. – B. 65.

holatlariga oydinlik kiritish maqsadida o'tkazilishi lozim bo'lgan so'roq qilish tergov harakatini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishga JPK ruxsat bermaydi. Asosiy sabab esa, JPK talabiga ko'ra, protsess ishtirokchisi o'zi yashaydigan hududning HMQOda bo'lgan taqdirdagina o'tkazish mumkinligi bo'yicha belgilangan talabdir. JPKning xalqaro hamkorlikni nazarda tutuvchi normalarida esa, bunday vaziyatda qanday qaror qabul qilishni nazarda tutuvchi me'yorlar ko'rsatilmagan.

Bu kabi to'siqlar natijasida 2024-yil davomida Respublikamizda 234 ta jinoyat ishi 5 oyga, 25 ta jinoyat ishi bo'yicha esa 7 oyga muddat uzaytirilib, 599 ta jinoyat ishi bo'yicha surishtiruv, 1016 ta jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov, jami 1615 ta jinoyat ishini tergov qilish muddati buzilishi kuzatildi³.

Mamlakatimiz qonunchiligida videokonferensaloqa rejimi joriy etilganiga qariyb 5 yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, 2019–2023-yillar mobaynida bor-yo'g'i 40 ga yaqin protsessual harakatlar videokonferensaloqa rejimida amalga oshirilgan.⁴ Jumladan, o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ishtirok etgan surishtiruvchi va tergovchilarning 64 foizi faoliyatida biror marotaba ham videokonferensaloqa rejimidan foydalanmagan. Ammo tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishi materiallarida jami 28 foiz shaxsga, shu jumladan barcha ayblanuvchilarga nisbatan qamoq bilan bog'liq ehtiyot chorasini masofadan turib videokonferensaloqa rejimida tanlashga ehtiyoj bo'lgan⁵.

Videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlarini o'tkazish yuzasidan topshiriqlarni yuborish va qabul qilish, ularning ijro etilishini monitoring qilib borish ish samaradorligini ta'minlaydi.

Bugungi topshiriqning yuborilishi va qabul qilinishi hamda uni ijroga qaratish tizimi ham innovatsion texnologiyalarni jalb etishga muhtoj. Ishni videokonferensaloqa rejimida o'tkazish haqidagi surishtiruv yoki dastlabki tergov

organining topshirig'i aloqa pochta orqali yuborilib, idoraviy kirim kitobiga kirmga olinadi va ijroga qaratiladi, bundan prokuratura organlari mustasno bo'lib, prokuratura organlarida cedo platformasi⁶ orqali mazkur masala hal etilgan⁷.

Topshiriqning o'z vaqtida bajarilishini nazorat qiluvchi elektron platformaga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Bizningcha, tergov harakatini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish haqida yuborilgan topshiriq muayyan elektron platformada ro'yxatga olinib, ijro muddati aniq belgilanishi zarur.

O'tkazilgan so'rovnoma ishtirok etgan respondentlarning 64 foizi yuborgan yozma topshiriqlarining ijrosi o'z vaqtida bajarilmaganligini bildirgan. Bu borada ilmiy tadqiqot ishi doirasida amaliyotni tahlil qilib, bir nechta takliflar ishlab chiqildi.

Jumladan, "Elektron surishtiruv va dastlabki tergov" yagona axborot tizimiga surishtiruv va dastlabki tergov organlarining o'zaro tergov topshirig'ini yuborish imkoniyatini ushbu elektron platformaga kiritish yoki kelib tushgan topshiriqlarni "E-material" dasturiy moduliga qayd etish hamda JPKning 91³-moddasining 2-qismida ko'rsatilgan "mansabdor shaxs", 91⁴-moddasi 2 va 5-qismida ko'rsatilgan "mansabdor shaxs" so'zlarini "surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning kotibi" so'zlari bilan almashtirib, topshiriqni ijro etishni malakali xodimlarga yuklash zarur bo'ladi. Mazkur tartib joriy etilishi natijasida vakolatli organ tomonidan tergov harakatini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish haqidagi tergov topshirig'i qisqa vaqt ichida vakolatli organga yuborilishi, belgilangan muddatlarda ijro etilishi ta'minlanishi hamda ijrosini qisqa muddatda olish imkoniyatining yaratilishi, tergov qilinayotgan jinoyat ishi yuzasidan belgilangan surishtiruv va dastlabki tergov muddatlari tejalishi, o'z vaqtida qonuniy qaror qabul qilinishi mumkin.

O'rganishlar davomida bugungi kunda 40

³ Jinoiy-huquqiy statistika axborot tizimi hisobotlaridan.

⁴ Oripov S.S. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Diss. Phd. – T., 2023. – B. 35.

⁵ Bu kabi ma'lumotlar 7-ildavda batafsil bayon qilingan.

⁶ <https://yandex.ru/video/preview/11133540347-665832157>

⁷ DBQning 23.08.2023-yildagi №22/05-23-00618-sonli, IJQDning 18.09.2023-yildagi №7-3382627/23-sonli, DXXning 23.08.2023-yildagi f/981-sonli, IIV huzuridagi TDning 21.08.2023-yildagi 124677-r/23-sonli, MIBning 08.09.2023-yildagi №9/12-23-60-sonli xati.

foiz jinoyat ishini yuritishga mas'ul davlat (tergov) organida videokonferensaloqa rejimidan foydalanish imkoniyati (qurilmasi) mavjud emasligi ma'lum bo'ldi⁸. Har bir surishtiruv va dastlabki tergov organi xodimlarini videokonferensaloqa xonasi bilan ta'minlash katta mablag' talab etadi. Ammo bugungi kunda har bir ichki ishlar bo'lim (boshqarma)-sida masofaviy yig'ilishlar o'tkazish imkonini beruvchi maxsus xona jihozlangan. Shuningdek, mazkur qurilmalar to'liq internet aloqasi bilan ta'minlanganligi sababli qo'shimcha xarajatlar qilishning oldi olinadi hamda ushbu qurilma ishchi holatida bo'lishini va sifatli videokonferensaloqa amalga oshirilishi, masofadan turib aloqani ta'minlash ishlarini nazorat qiluvchi xodimlar mavjudligi sababli mutaxassislar jalb etilishi, qo'shimcha shtat birliklarini ajratishga zarurat qolmaydi. Mazkur xonada o'rnatilgan videokonferensaloqa qurilmasidan foydalangan holda tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish imkoniyati mavjud. Ushbu amaliyot natijasida Respublika bo'yicha mavjud ichki ishlar organlarining bitta xonasini katta mablag'lar evaziga videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlari o'tkazish uchun jihozlash talab etilmaydi. Bu borada surishtiruvchi va tergovchilarning xizmat xonalariga tergov harakatlarini o'tkazish jarayonlarini tasvirga olish uchun kompyuterlariga maxsus kameralar o'rnatilganligi sababli mazkur kameralardan ham masofadan turib tergov harakatlarini o'tkazish imkoniyatidan hanuz foydalanilmasdan qolmoqda.

⁸ O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar natijalaridan olindi.



Aynan yuqoridagi imkoniyatlardan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga masofadan turib qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash imkoniyatini eksperiment o'tkazish orqali aniqlangan. Mavjud ushbu imkoniyatdan foydalanish natijasida konvoy qilinuvchi shaxslarning qochib ketish ehtimoli to'liq kamayishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston JPKda 14-bo'lim (2 ta bob, 17 ta modda) xalqaro hamkorlik masalalariga bag'ishlangan bo'lsa-da, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni, fuqaroviy da'vogarni, fuqaroviy javobgarni, ularning vakillari hamda protsessning boshqa ishtirokchilarini videokonferensaloqa orqali so'roq qilish tartibi kiritilmagan. Mamlakatimiz jinoyat ishi doirasida xorijiy davlatlar bilan 50 ga yaqin shartnomalar imzolagan⁹. O'rganishlar davomida O'zbekiston va Ozarboyjon¹⁰, Qozog'iston¹¹, Bolgariya¹², Hindiston¹³, Xitoy¹⁴,

⁹ Umarxonova Dildora Sharipxanovna, "Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish". Avtoreferat dok.diss. – Toshkent, 2018. – B.3. <https://diss.natlib.uz/tanishish/b60270d1-f662-446a-a619-f0cf4ff9423d>

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi va Ozarboyjon Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi shartnoma. 1997-yil 18-iyun, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2191465>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi shartnoma. 1997-yil 2-iyun, Olma-ota (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2176326>

¹² O'zbekiston Respublikasi va Bolgariya Respublikasi o'rtasida "Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2003-yil 24-noyabr, Sofiya (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/1326768>

¹³ O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o'rtasida "Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2000-yil 2-may, Dehli (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2095802>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi va Bolgariya Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 1997-yil 11-dekabr, Pekin (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2198491>

Litva¹⁵, Chexiya¹⁶, Koreya Respublikasi¹⁷, Pokiston¹⁸ davlatlari bilan ikki tomonlama **shartnomalar** o'rganilganida guvoh, ekspert va boshqa ishtirokchilarni masofadan turib, videokonferensaloqa orqali so'roq qilish hamda boshqa tergov harakatlarini o'tkazish tartibi belgilanmaganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, jinoyat ishlari yuzasidan o'zaro huquqiy yordam masalasida videokonferensaloqadan foydalanishni belgilovchi qonun loyihasi ham hozirda mavjud emas¹⁹.

Milliy qonunchiligida jinoyat ishi yuzasidan o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish borasida qoidalar belgilangan ayrim davlatlarga to'xtalamiz. Ozarboyjon JPKning 52-2-moddasida²⁰ videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda jinoiy ish yuritishni amalga oshirish tartibi yoritilgan bo'lib, unda dastlabki tergov vaqtida tergov harakatlari o'tkaziladigan shaxs xorijiy davlat hududida bo'lgan taqdirda amalga oshiriladigan protsessual tartib belgilangan. Jumladan, 52-2.13-moddasida agar tergov harakatlariga

jalb etilishi zarur bo'lgan shaxs (jinoyat protsessining ishtirokchisi) Ozarboyjondan tashqarida bo'lsa videokonferensaloqa tizimi orqali tergovchi, dastlabki tergovda protsessual boshqaruvni olib boruvchi prokuror yoki sud tomonidan chiqarilgan qaror tegishli ravishda ijro uchun o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish doirasida xorijiy davlatning vakolatli organiga yuborilishi ko'rsatilgan. Mazkur davlat qonunchiligining o'ziga xos jihati shundaki, aynan videokonferensaloqa rejimida tergov harakatlari o'tkazish tartibi mustahkamlangan moddaning o'zidayoq xorijiy davlat hududida bo'lgan protsess ishtirokchisi bilan bog'liq masofaviy tergov harakatlarini o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish doirasida amalga oshirish imkoniyati nazarda tutilgan.

Gruziya JPKning 113-moddasida so'roq qilish tartibi nazarda tutilgan bo'lib, 11-qismida²¹ agar Gruziyaning tegishli xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan bo'lsa prokuror yoki prokurorning roziligi bilan tergovchiga elektron vositalardan (videokonferensaloqadan) foydalangan holda xorijiy davlat hududida bo'lgan shaxsdan yuridik yordam so'rab murojaat qilmasdan ham masofadan turib so'roq qilish mumkinligi bo'yicha vakolat berilgan. Mazkur vakolatning o'ziga xos jihati shundaki, shaxs chet elda bo'lsa-da, xorijiy davlatning vakolatli organiga huquqiy yordam so'rab murojaat etishga ehtiyoj mavjud emasligidir. Nazarimizda, haqiqatan ham mazkur qoida dastlabki tergov muddatini tejash va o'z vaqtida qonuniy qaror qabul qilinishiga xizmat qilib, yozma shaklda xalqaro so'rov yuborish va uning javobini olish kabi byurokratik to'siqlarga sarflanadigan vaqt tejatlashiga olib keladi.

Tadqiqot ishi doirasida o'rganilgan Qozog'iston JPKning 59-bobi 576-moddasida, Latviya Jinoyat-protsessual qonunining 73-bobi²² **817-moddasida**, Qirg'iz Respublikasi JPKning²³

²¹ Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Консолидированный публикации 15.06.2023 г. (murojaat vaqti 31.07.2023-yil). <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=151>

²² Уголовно-процессуальный закон Латвийской Республики, принятый Сеймом 21 апреля 2005 года (murojaat vaqti 02.08.2023-yil). <https://lawyer-khroulev.com/zakoni-kodeksi-latvii-i-germanii/v - Законы Латвии по-русски>.

²³ Кыргыз Республикасынын Кылмыш-жаза процессуалдык кодекси. 2021-жылдын

¹⁵ Договор между Республикой Узбекистан и Литовской Республикой о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам. Ташкент, 20 февраля 1997 года (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2190179>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi bilan Chexiya Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi shartnoma. 2002-yil 18-yanvar, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/uz/docs/2085965>

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida "Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2003-yil 12 fevral, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/1328373>

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Pokiston Islom Respublikasi Hukumati o'rtasida "Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2007-yil 14-mart, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/acts/2071423>

¹⁹ Adliya vazirligining 2023-yil 28-avgustdagi 8/10-3/1-555-3/3-663-sonli xati.

²⁰ Azərbaycan Cinayət Prosessual Məcəlləsi. (Bu Məcəllə Azərbaycan Respublikasının 2000-ci il 14 iyul tarixli 907-IQ nömrəli Qanunu ilə təsdiq edilmişdir). (murojaat vaqti 29.07.2023-yil). https://www.e-qanun.az/framework/46950#_edn1



520-moddasida, Ukraina JPKning 567-moddasida²⁴, Estoniya JPKning²⁵ 468-moddasida xorijiy

28-октябры № 129 (*Кыргыз Республикасынын 2021-жылдын 28-октябрындагы № 126 Мыйзамы менен колдонууга киргизилди*) (мурожаат вакти 02.08.2023 йил). <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ky-kg/112308>

²⁴ Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года № 4651-VI (с изменениями и дополнениями по состоянию на 21.03.2023г.) (мурожаат вакти 03.08.2023-йил). https://continent-online.com/Document/?doc_id=31197178#pos=5;-128&sdoc_params=text%3D%25D0%25B2%25D0%25B8%25D0%25B4%25D0%25B5%25D0%25BE%26mode%3Dindoc%26topic_id%3D31197178%26spos%3D1%26tSynonym%3D0%26tShort%3D1%26tSuffix%3D1&sdoc_pos=5

²⁵ Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166. (мурожаат вакти 05.08.2023-йил) <https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/1291>.

davlat hududida bo'lgan protsess ishtirokchilari bilan bog'liq masofaviy tergov harakatlari o'tkazish tartibi batafsil yoritilgan.

Milliy qonunchiligimizda esa xorijiy davlat hududida bo'lgan protsess ishtirokchilari bilan bog'liq dalillarni olishda ayrim salbiy amaliyotlar shakllanmoqda. Jumladan, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 66 foizi faoliyatida xorijiy davlat hududidagi guvohlardan ijtimoiy messenjer (telegram, WhatsApp, Skype yoki boshq.) orqali ko'rsatma olishga to'g'ri kelganligini bildirishgan. Ammo ayrim olimlar huquqni qo'llash amaliyotida ishlash yoki boshqa maqsadlarda xorijga ketgan guvoh yoki jabrlanuvchilarni "What'sApp", "Telegram" va boshqa shu kabi ijtimoiy messenjerning imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda so'roq qilish amaliyoti kengayib, protsess ishtirokchilariga qo'shimcha qulayliklar keltirib chiqarayotgan bo'lsa-da,

amaldagi jinoyat-protsessual qonun normalari ta'lablariga zid ekanligini qayd etishgan²⁶.

Jinoyat ishlarini o'rganish natijasida O'zR JKning 168-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuzasidan fuqaro B.O. Rossiya Federatsiyasida bo'lib, dastlabki tergov organi bilan telefon orqali gaplashib turganligi, jinoyat ishi doirasida yuborilgan so'rovnoma javob kelishi ko'p vaqt talab etganligi sababli va dastlabki tergov muddatini tejash maqsadida jinoyat ishi JPKning 364-moddasi 1-qismi 1-bandi (ish bo'yicha ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan

shaxs aniqlanmagan) asosi bilan to'xtatilganligi ma'lum bo'ldi. Ish hujjatlarida esa xorijning vakolatli organiga qariyb 2 oy ilgari so'rovnoma yuborilganligi aniqlandi. Bu kabi jinoyat ishlarini Respublika doirasida ko'plab uchratish mumkin.

Yuqoridagi qonundagi bo'shliqlar, milliy qonunchiligimizga xorijiy davlat hududida bo'lgan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari hamda protsessning boshqa ishtirokchilari bilan bog'liq tergov harakatlarini masofadan turib o'tkazish, olingan dalillarning maqbulligi mezonlarini aniq mustahkamlash vaqti kelganligidan dalolat bermoqda.

²⁶ Mexmonov Azizbek Yakubovich.- So'roq qilish tergov harakatini o'tkazishni takomillashtirish. Phd dissertatsiyasi avtoreferati. T.-2024. B-18. file:///C:/Users/User/Downloads/0e8a205c-fe85-44d9-b3eafced0c0311c1.pdf

ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-542-son Qonuni. 19.05.2019-y. <https://lex.uz/uz/docs/4349703> (murojaat vaqti 29.11.2022-y).

2. Oripov S.S. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Diss. Phd. – T., 2023. – B.65.

3. Umarxonova Dildora Sharipxanovna "Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmini takomillashtirish". Avtoreferat dok.diss.-Toshkent -2018. B-3. <https://diss.natlib.uz/tanishish/b60270d1-f662-446a-a619-f0cf4ff9423d>

4. O'zbekiston Respublikasi va Ozarboyjon Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi shartnoma. 1997-yil 18-iyun, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2191465>

5. O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi shartnoma. 1997-yil 2-iyun, Olma-ota (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2176326>

6. O'zbekiston Respublikasi va Bolgariya Respublikasi o'rtasida "Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2003-yil 24-noyabr, Sofiya (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/1326768>

7. O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o'rtasida "Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2000-yil 2-may, Dehli (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2095802>

8. O'zbekiston Respublikasi va Bolgariya Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 1997-yil 11-dekabr, Pekin (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2198491>

9. Договор между Республикой Узбекистан и Литовской Республикой о правовой помощи и правовых отношениях по гражданским, семейным и уголовным делам. Ташкент, 20 февраля 1997 года (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/2190179>

10. O'zbekiston Respublikasi bilan Chexiya Respublikasi o'rtasida "Fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi shartnoma. 2002-yil 18-yanvar, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/uz/docs/2085965>
11. O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida "Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma 2003-yil 12-fevral, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/docs/1328373>
12. O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Pokiston Islom Respublikasi hukumati o'rtasida "Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risida"gi shartnoma. 2007-yil 14-mart, Toshkent (murojaat vaqti 03.07.2023-yil). <https://lex.uz/acts/2071423>
13. Azərbaycan Cinayət Prosessual Məcəlləsi (Bu Məcəllə Azərbaycan Respublikasının 2000-ci il 14 iyul tarixli 907-IQ nömrəli Qanunu ilə təsdiq edilmişdir). (murojaat vaqti 29.07.2023-yil). https://www.e-qanun.az/framework/46950#_edn1
14. Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Консолидированный публикации 15.06.2023 г. (murojaat vaqti 31.07.2023-yil). <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034?publication=151>
15. Уголовно-процессуальный закон Латвийской Республики, принятый Сеймом 21 апреля 2005 года (murojaat vaqti 02.08.2023-yil). [https://lawyer-khroulev.com/zakoni-kodeksi-latvii-i-germanii/v - Законы Латвии по-русски](https://lawyer-khroulev.com/zakoni-kodeksi-latvii-i-germanii/v-%20Законы%20Латвии%20по-русски).
16. Кыргыз Республикасынын Кылмыш-жаза процессуалдык кодекси. 2021-жылдын 28-октябры № 129 (*Кыргыз Республикасынын 2021-жылдын 28-октябрындагы № 126 Мыйзамы менен колдонууга киргизилди*) (murojaat vaqti 02.08.2023-yil). <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ky-kz/112308>
17. Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года № 4651-VI(с изменениями и дополнениями по состоянию на 21.03.2023г.) (murojaat vaqti 03.08.2023-yil). https://continent-online.com/Document/?doc_id=31197178#pos=5;-128&sdock_params=text%3D%25D0%25B2%25D0%25B8%25D0%25B4%25D0%25B5%25D0%25BE%26mode%3Dindoc%26topic_id%3D31197178%26spos%3D1%26tSynonym%3D0%26tShort%3D1%26tSuffix%3D1&sdock_pos=5
18. Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии, принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166. (murojaat vaqti 05.08.2023-yil) <https://www.wipo.int/wipolex/ru/legislation/details/1291>.
19. Mehmonov Azizbek Yakubovich.- So'roq qilish tergov harakatini o'tkazishni takomillashtirish. Phd dissertatsiyasi avtoreferati. T.-2024. B-18. file:///C:/Users/User/Downloads/0e8a205c-fe85-44d9-b3ea-fced0c0311c1.pdf
20. <https://yandex.ru/video/preview/11133540347665832157>

QO'L TIRNOQLARI OSTIDAGI MIKROTOLALAR – JINOYATNING YASHIRIN GUVOHI

ABDUQODIROVA

*Shaxnoza Abduqodir qizi,
X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi,
Materiallar, ashyolar va ulardan
tayyorlangan buyumlarni kriminalistik
tadqiq qilish laboratoriyasi eksperti*

ANNOTATSIYA

Maqolada jinoyat tergovida qo'l tirnoqlari ostida qoladigan mikrotolalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Mikroskopiya, mikrokimyoviy tahlil va spektroskopiya usullari orqali tolalarning tarkibi, bo'yoqlari va strukturasini aniqlash jarayoni batafsil bayon etiladi. Gumonlanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasida jismoniy kontakt bo'lganini mikrotolalar almashinuvi orqali aniqlash misol sifatida keltiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mikroskopik izlar jinoyat dinamikasini tiklashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mikrotola, tirnoq osti, kriminalistika, mikroskopiya, spektroskopiya, bo'yoq tahlili, daliliy ashyo, jismoniy kontakt.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается криминалистическое значение микроволокон, обнаруживаемых под ногтями при расследовании преступлений. Приведены методы их исследования, включая стереомикроскопию, световую микроскопию, микрохимический анализ красителей и спектроскопию. На примере обмена волокон между подозреваемым и потерпевшим показана роль микротрасс в установлении факта физического контакта и реконструкции динамики события. Результаты исследования подтверждают высокую информативность и доказательственное значение микроволокон как одного из наиболее надежных микрообъектов в криминалистике.

Ключевые слова: микроволокна, подногтевые микрообъекты, криминалистика, микроскопия, спектроскопия, анализ красителей, вещественные доказательства, физический контакт.

ANNOTATION

This article explores the forensic significance of microscopic fibers found beneath fingernails during criminal investigations. The study outlines analytical methods such as stereomicroscopy, light microscopy, microchemical dye analysis, and spectroscopy used to identify fiber composition and origin. A case involving fiber transfer

between a suspect and a victim demonstrates how these microtraces can confirm physical contact and help reconstruct the dynamics of an incident. The findings highlight the high evidential value and reliability of fingernail microfibers as crucial trace materials in modern forensic science.

Key words: microfibers, subnail trace evidence, forensic science, microscopy, spectroscopy, dye analysis, physical evidence, physical contact.

Jinoyat sodir bo'lganida gumonlanuvchi ko'pincha izlarni yashirishga urinadi. Ammo inson tanasida bir joy bor – u yerdagi mikroskopik izlarni deyarli hech kim o'chirib tashlay olmaydi. Bu – **tirnoq osti**. Aynan shu yerda to'planib qoladigan mikrotolalar tergov jarayonida voqea tafsilotlarini ochib beruvchi eng muhim dalillardan biri hisoblanadi.



Tirnoq osti kesmalari(mikrotolalar) shaxslar o'rtasidagi jismoniy aloqani, kiyim-matolar bilan bo'lgan kontakti, hatto hodisaning dinamikasini ham aks ettiradi. Shu bois sud ekspertizasi jarayonida ular keng ko'lamli laborator tahlillar yordamida chuqur o'rganiladi. Tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlarning ekspertizasi ushbu kesmalarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Mutaxassis tomonidan gumonlanuvchi va jabrlanuvchilarning tirnoq osti kesmalari va ularning kiyimlari ashyoviy dalil sifatida sudga oid tolali materiallar va ulardan tayyorlangan buyumlar ekspertizasi o'tkazilishi uchun taqdim qilingan:

- jabrlanuvchi tirnoqlari ostidan – gumonlanuvchi sviteridan chiqqan ko'k tolalar;
- gumonlanuvchidan esa – jabrlanuvchi futbolkasining oq tolalari chiqqan.

Tirnoq ostidagi bir gramm mikroskopik tola juda ko'p sirni ochadi. Bu holat faqat maxsus laboratoriyada mikroskop orqali ko'riladi, lekin uning ahamiyati jinoyatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tirnoq ostidagi har bir tola – jismoniy kontakt, harakat va hatto emotsional holatning “miniatur yodgorligi” hisoblanadi.

Tolalarning ilmiy ahamiyati

Nega bu tolalar muhim?

1. Jismoniy aloqani aniqlash.

Tolalar o'zaro almashgani – qarshilik yoki himoya harakati bo'lganini ko'rsatadi.

2. Kiyim va shaxsni identifikatsiya qilish.

Ko'k akril tolalar – gumonlanuvchi sviteriga xos.

Oq paxta tolalar – jabrlanuvchi futbolkasiga xos.

3. Holat dinamikasini rekonstruksiya qilish.

Tirnoq ostidagi uzilish va deformatsiyalar – harakat tezligi va qo'l bilan ushlab kuchini aks ettiradi.

Boshqacha qilib aytganda, tirnoq ostidagi mikrotolalar – jinoyatning “miniatur guvohi”.

Tabiiyki, ularni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, faqat mikroskop yordamida aniqlash mumkin.

Sud ekspertiga tadqiqot uchun taqdim etilgan tekshirish obyektlari, taqqoslovchi materiallar ustida quyidagi tadqiqotlar amalga oshirildi.

Daliliy ashyolarni ko'zdan kechirish

Taqdim qilingan daliliy ashyolarni ko'zdan kechirish vaqtida ularning tolali tarkibini aniqlash maqsadida tadqiqot uchun qaychi bilan mato bo'lakchalari qirib olindi va ushbu joylar marker bilan belgilab qo'yildi.

Mikroskopiya

- Tirnoq ostidagi tolalarni “Olympus SZX10” rusumli (126 marta kattalashtirilgan, halqali diod lampali yoritkichli) stereoskopik mikroskop yordamida tekshirildi.

- Tolalardan tayyorlangan mikropreparat “MOTICAM” rusumli yorug'lik mikroskopi (200 marta kattalashtirilgan) yordamida, sun'iy o'tkazuvchi nurda o'rganildi.

- Tolalarning rangi, struktura va uzilishlarini aniqlash.

Tolalar bo'yoqlarining mikrokimyoviy tahlili

- Taqqoslanayotgan qora rangli paxtali tolalar juftlari bo'yoqlarining sinfini aniqlash maqsadida mikrokimyoviy tahlillar o'tkazildi.





Spektroskopiya

- Taqqoslanayotgan tolalar bo'yoqlarining spektrlari taqqoslanganda ular spektr chizig'ining tuzilishi, soni va maksimumlarining mos kelishi aniqlandi.
- Tolalarning kimyoviy tarkibini aniqlash, bo'yoq yoki pigmentlarini solishtirish.
- Taqqoslanayotgan tolalar juftlari spektral xarakteristikalarini bo'yicha o'zaro bir-birlariga turdoshligi aniqlandi.
- Tirnoq ostidagi tolalar manbayi bilan solishtiriladi: shaxsning kiyimi, matosi yoki boshqa buyumlari.

Tadqiqot natijalari: voqea tasviri tiklandi

Mutaxassislar o'tkazgan analizlar shuni ko'rsatdiki:

Jabrlanuvchi o'zini himoya qilgan, qo'llari bilan gumonlanuvchining kiyimidan mahkam ushlagan.

Shu jarayonda gumonlanuvchi sviteridan tolalar ajralib, jabrlanuvchi tirnoqlari ostida qolgan.

Gumonlanuvchi ham qarshilik ko'rsatgan – uning tirnoq ostidan jabrlanuvchi futbolkasining tolalari topilgan.

Bir turga xos bo'lgan tabiati, rangi, bo'yog'ining sinfi va bo'yalish xarakteri kabi belgi-xususiyatlarga ega bo'lgan tolalar aniqlandi va bundan “Ular bir-biri bilan juda yaqin masofada, jismoniy tortishuvda bo'lgan” degan xulosaga kelish mumkin.

Mikroskopiya ham shu tasdiqlandi: tolalar tishsimon, “uzilgan” izlari bilan. Bu tirnoqlar bilan qattiq ushlanganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalariga ko'ra mutaxassislar “Jabrlanuvchi o'zini himoya qilgan va jang jarayonida gumonlanuvchining kiyimidan tolalar o'tib qolgan. Gumonlanuvchi ham qarshilik ko'rsatgan – uning ham tirnoq osti kesmalarida jabrlanuvchining kiyimlari tarkibiga kiruvchi tolalar o'tib qolgan” degan xulosaga keladilar.

Tolalar har bir harakatni, har bir tortishuvni va hatto qo'l bilan kiyimga uzatilgan energiyani aks ettiradi. Hatto bir gramm tola ham butun voqeani ochib berishi mumkin.

Xulosa. Ushbu holat ko'rsatadiki, jinoyat sodir bo'lgan joydagi mayda, mikroskopik dalillar ham muhim ahamiyatga ega. Eng muhimi, tirnoq ostidagi mikrotolalar beradigan ma'lumotlar yordamida jinoyat haqiqati yashirincha, lekin qat'iy dalillar bilan ochiladi.

ADABIYOTLAR

1. “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida”gi NAMUNAVIY NIZOM (21.02.2023-yil, VMQ №73).
2. QOP 5.6 (6.5) (5) “Метрологическая прослеживаемость”. Markaz direktori tomonidan 01.05.2025-yilda tasdiqlangan. 5-nashri.
3. QOP 7.8 (8) “Natijalar haqidagi hisobotlar”. Markaz direktori tomonidan 21.02.2025-yilda tasdiqlangan. 8-nashri.
4. Zamonaviy sud ekspertizasining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish bo'yicha amaliy qo'llanma. X. Sulaymonova nomidagi RSEM Sud ekspertlik ITI, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2023.
5. Tekstil tolalarining fizik-kimyoviy xususiyatlari bo'yicha metodik qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi markazi. – Toshkent, 2022.
6. Tolali materiallar ekspertizasi: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. Toshkent davlat texnika universiteti. – Toshkent, 2021.
7. Kimyoviy tolalar va tabiiy tolalarning laborator tahlili. Amaliy qo'llanma. Oliy ta'lim, 2019.
8. “Назначение криминалистической экспертизы объектов волокнистой природы и подготовка материалов для ее производства”. Информационное письмо. – Ташкент, 2006.
9. Мамедова Е.А., Пак А.И. Криминалистическое исследование полиакрилонитрильных волокон, окрашенных катионными красителями различных марок. Методические рекомендации для экспертов. – Ташкент, 2016.
10. Дьяченко А. Исследование красителей текстильных волокон спектроскопическими методами. *Судебная химия*, 2015.
11. Шлыгина Н. Микроскопические методы в криминалистике. *Криминалистика и судебная экспертиза*, 2020.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KOMPLEKS SUD EKSPERTIZALARINI TAYINLASH VA O'TKAZISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

KUDAYNAZAROV
Alisher Muratbayevich,
O'zbekiston Respublikasi
52738-sonli harbiy qism
harbiy xizmatchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida kompleks sud ekspertizalarining nazariy-qonuniy asoslari, amaliyotidagi asosiy muammolar va ularni yechish usullari chuqur tahlil qilinadi. Qonunchilikda kompleks ekspertiza ishtirokchilarining o'zaro o'rni, tadqiqot obyektlari va natijalarini shakllantirish tartibi aniq belgilanmaganligi amaliyotda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Maqolada tahlil va sintezdan foydalanilgan, shuningdek, amaliy misollar keltirilgan. Kompleks ekspertiza jarayonini yanada takomillashtirish, uning ishonchliligi va samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida sud ekspertizasi, shu jumladan, kompleks ekspertizalar sohasidagi qonunchilik asoslari yaratilgan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu jarayonni tashkil etish va o'tkazishda bir qator muammolar mavjud. Ularning asosiy sabablari qonunchilik va uslubiy jihatdan rivojlanmaganligi, tashkiliy qiyinchiliklar hamda kadr tayyorlash tizimidagi bo'shliqlar. Ushbu maqolaning maqsadi – kompleks sud ekspertizalarini tayinlash, tashkil etish va natijalarini baholash bosqichlaridagi asosiy qiyinchiliklarni aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolada kompleks ekspertizaning uslubiy ta'minoti va umummilliy standartlashtirish darajasining pastligi, tashkiliy-huquqiy va kadrlar tayyorlash tizimidagi nuqsonlari va faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan takliflar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: kompleks sud ekspertizasi, jinoyat protsessi, kriminalistika, ekspert, uslubiy ta'minot, integratsiya, uslubiy tavsiyalar, Jinoyat-protsessual kodeksi, sud-ekspertlik faoliyati.

АННОТАЦИЯ

В статье подробно анализируются теоретико-правовые основы проведения комплексных судебных экспертиз в Республике Узбекистан, а также основные проблемы,

возникающие в правоприменительной практике, и возможные пути их решения. Отмечается, что действующее законодательство не в полной мере определяет взаимную роль участников комплексной судебной экспертизы, порядок формирования объектов исследования и оформления его результатов, что создает существенные трудности в практической деятельности. В ходе исследования использованы методы анализа и синтеза, а также рассмотрены практические примеры из экспертной практики. Разработаны предложения, направленные на дальнейшее совершенствование процесса проведения комплексных судебных экспертиз, повышение их надежности и эффективности.

Несмотря на наличие в Республике Узбекистан законодательных основ в сфере судебно-экспертной деятельности, включая комплексные экспертизы, на практике сохраняется ряд проблем, связанных с их организацией и проведением. К основным причинам относятся недостаточная развитость нормативно-правовой базы и методического обеспечения, организационные трудности, а также пробелы в системе подготовки и повышения квалификации кадров. Целью статьи является выявление ключевых проблем, возникающих на этапах назначения, организации и оценки результатов комплексных судебных экспертиз, анализ причин их возникновения и разработка научно обоснованных предложений по дальнейшему развитию данного института.

В статье также рассматриваются вопросы методологического обеспечения комплексных экспертиз, низкий уровень общенациональной стандартизации, недостатки в организационно-правовой системе и системе подготовки кадров, а также предлагаются меры, направленные на совершенствование судебно-экспертной деятельности.

Ключевые слова: комплексная судебная экспертиза, уголовный процесс, криминалистика, эксперт, методическое обеспечение, интеграция, методические рекомендации, Уголовно-процессуальный кодекс, судебно-экспертная деятельность.

ANNOTATION

This article provides a detailed analysis of the theoretical and legal foundations of comprehensive forensic examinations in the Republic of Uzbekistan, the main challenges in practice, and solutions. Legislation does not clearly define the mutual roles of participants in a comprehensive examination, nor the procedure for compiling objects and research results, which creates significant practical difficulties. The article utilizes analysis and synthesis, as well as practical examples. Practical proposals are developed for further improving the comprehensive examination process, increasing its reliability and effectiveness.

Despite the establishment of a legislative framework for forensic examinations, including comprehensive examinations, in the Republic of Uzbekistan, a number of challenges in organizing and conducting this process persist in practice. The main reasons include underdeveloped legislation and methodology, organizational difficulties, and gaps in personnel training. The purpose of this article is to identify the main challenges in the commissioning, organization, and evaluation of comprehensive forensic examinations, analyze their causes, and develop proposals for their improvement.

This article presents the methodological support for comprehensive forensic examinations, the low level of national standardization, shortcomings in the organizational and legal systems, and personnel training, as well as proposals for developing these activities.

Key words: comprehensive forensic examination, criminal procedure, forensic science, expert, methodological support, integration, methodological recommendations, Criminal Procedure Code, forensic activity.

Sud ekspertizasi instituti qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tekshirishlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqlik tamoyillari asosida jamiyatning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga javob beradi. Zamonaviy jinoyatchilik murakkab, transmilliy va ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, uni ochish uchun bir necha ilmiy soha va mutaxassislik bilimlarining integratsiyasi talab etiladi. Ana shu ehtiyoj kompleks sud ekspertizalarining ahamiyatini kundan kunga oshirmoqda.

Kompleks sud ekspertizasi – sud ekspertizaning alohida turi sifatida, ilmiy bilimlarning differentsiatsiyasi va integratsiyasi jarayonlarining o'zaro murakkab ta'siri natijasida shakllangan. Fan va texnikaning taraqqiyoti bilan bog'lik ravishda yangi tadqiqot obyektlari (masalan, ma'lumotlarni shifrlash tizimlari, biometrik ma'lumotlar, murakkab iqtisodiy operatsiya izlari) paydo bo'ldi, ularni bir mutaxassislik doirasida to'liq o'rganishning imkonsizligi kompleks ekspertizaga bo'lgan ehtiyoj zaruratini talab qildi. Tadqiqotchi N.S. Neretina ta'kidlaganidek, sud ekspertizasining yangi turlari shakllanishiga tergov amaliyotining amaliy ehtiyojlari va ilmiy bilimlarning integratsiyasi sabab bo'ladi.

Kompleks sud ekspertizasining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi (JPK) 1761 - moddasi bilan belgilangan bo'lib, unga ko'ra "Ekspertiza bir xil (komissiyaviy ekspertiza) yoki turli xil (kompleks ekspertiza) sud-ekspert ixtisosligidagi bir necha ekspert tomonidan o'tkazilishi mumkin". Sud ekspertizasi sohasidagi asosiy munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, sud-ekspertlik tizimini isloh qilish cho-

ra-tadbirlari 2010-yil 1-iyundagi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-249-sonli Qonuni va 2023-yil 21-fevraldagi "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining

73-sonli qarori tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarining ilmiy asoslanganligi va tizimliliigi tamoyillari 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonunda belgilangan.

Amaliyotda kompleks ekspertizalar keng ko'lamda qo'llanilib, turli xildagi jinoiy ishlarni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni asosan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Kompleks sud-tibbiy-kriminalistik ekspertiza: jismoniy shikast yetkazish holatlarida ziyonning mexanizmi, o'lchovi va vositasini aniqlash;
- Kompleks sud-psixologik-psixiatrik ekspertiza: noodatiy holatda sodir etilgan jinoyatlarda shaxsning ahvoli va javobgarligi darajasini baholash;
- Kompleks sud-iqtisodiy ekspertiza: moliyaviy mohirlik, soliqlardan qochish jarayonlaridagi ziyon miqdori va usullarini aniqlash;
- Kompleks sud-avtotexnikaviy-tra-sologik ekspertiza: yo'l transport hodisasida transport vositasining holati va voqea joyida qolgan izlarni o'rganish;
- Kompleks sud-biologik ekspertiza: jinoyat joyidan topilgan biologik obyekt (qon, soch va boshqa)lar asosida shaxsni aniqlash.

Qonunda kompleks ekspertizaning mavjudligi tan olinsa-da, uning amaliy tatbiqini tartibga soluvchi yetarli darajada aniq normalar mavjud emas. Ayniqsa, quyidagi jihatlar belgilanmagan:

– Ijrochi (rahbar) ekspertning maqomi va javobgarligi: kompleks ekspertizaga rahbarlik qiladigan ekspertning maqomi, uning boshqa ekspertlarga nisbatan huquq va majburiyatlari;

– O'zaro o'rin almashishi mumkin bo'lmaydigan tadqiqot obyektlarining tabiati: qaysi holatlarda obyektni o'rganish turli mutaxassislikdagi ekspertlarning birgalikdagi ishtirokini zarur qiladi, ya'ni unday obyektlarning tabiati;

– Natijalarni shakllantirish tartibi: agar turli mutaxassislikdagi ekspertlarning xulosalari o'zaro zid bo'lsa, sud-tergov organlari qaysi xulosaga asoslanishi lozim? Bu muammo hozirda yechimini amaliyotda topmagan.

Uslubiy (metodik) ta'minot va standartlash-tirish muammolarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, nazariy jihatdan kompleks ekspertiza alohida tur sifatida tayinlansa-da, uning amaliy-uslubiy ta'minoti hali rivojlanish bosqichida turibdi. Hozirgi vaqtda turli mutaxassisliklar bo'yicha yagona, umumiy yondashuvga asoslangan uslubiy tavsiyalar mavjud emas. Masalan, kompleks sud-tibbiy-kriminalistik ekspertizada tibbiy va kriminalistik ekspertlarning tadqiqotini moslashtirish uchun yagona dastur mavjud emas. Bu esa tadqiqotning to'liqligi va xolisligiga ta'sir qilishi mumkin.

Yuqoridagi muammolar bilan bir qatorda quyidagi asosiy tashkiliy muammolar ham mavjud:

– Mutaxassislarni tanlash va moslashtirish: turli muassasalar yoki tashkilotlarda ishlaydigan mutaxassislarni bir vaqtda va bir joyga to'plash, ularning ish jadvallarini moslashtirishdagi qiyinchiliklar;

– Materiallarni taqsimlash va ular bilan ishlash tartibi: tibbiy va kriminalistika mutaxassislari bir obyektни tadqiq etishsa, ularning tadqiqot obyektlari (tibbiy hujjatlar va moddiy izlar) o'zaro bog'liq bo'lishi aniq, ammo

o'rganish usullari va xulosa chiqarish prinsiplari go'yo ikki alohida olam. Shuning uchun ularning tadqiqotlarini moslashtirish uchun yagona tartib yo'q.

– Ekspertlar o'rtasidagi aloqa va vazifalar taqsimoti: kim qaysi ketma-ketlikda tadqiqotlarni o'tkazish va umumlashtirilgan xulosa qanday aks etishii kabi masalalar ekspertlarning o'zaro kelishuvlariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Bu esa belgilangan tartib yo'qligini bildiradi.

Buning barchasi kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimidagi nuqsonlar bilan birga chambarchas bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida kompleks ekspertizasining tashkiliy, o'tkazishning maxsus kursi va uslubiyati o'qitilmaydi. Natijada ekspert o'z mutaxassisligini chuqur biladi, ammo kompleks tadqiqotdagi o'zining roli va boshqa mutaxassis bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibini yetarli darajada bilmasligi mumkin. Shu bilan birga, Adliya vazirligi huzuridagi Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish va ayrim yo'nalishlar bo'yicha magistratura ta'limini joriy etish kadrlar tayyorlash tizimini yaxshilashga qaratilgan muhim qadamlardir.

Iqtisodiy jinoyatlarda kompleks sudga oid iqtisodiy hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi tayinlanadi. Unda iqtisodiy ekspert moliyaviy operatsiyalarning tabiati va ziyon miqdorini, HTK eksperti esa hujjatlardagi o'zgartirishlar va imzolarni tekshiradi. Agar bu ekspertlar bir-birining tadqiqot natijalari bilan o'z vaqtida tanishmasa, u holda ishning to'liq manzarasi shakllanmasligi va jarayon uzoq davom etishi mumkin.

Mazkur muammolarni hal etishga qaratilgan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

Qonunchilikni takomillashtirish – O'zbekiston Respublikasi JPKga "Kompleks sud ekspertizasi" tushunchasining aniq ta'rif, uning tayinlanish asoslari, rahbar ekspertning maqomi va javobgarligi, natijalarni shakllantirish tartibi (masalan, bir xil savolga turli javoblar bo'lsa, xulosada shu haqda ko'rsatib o'tish) to'g'risidagi modda kiritilishi zarur;

Uslubiy birliklarni yaratish va standartlashtirish – O'zbekiston Respublikasi Adliya



vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi markazi va Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti rahbarligida turli mutaxassislikdagi ekspertlar ishtirokida umummilliy darajada “Kompleks sud ekspertizalarini o'tkazishning uslubiy qo'llanmasi” ishlab chiqilishi lozim. Unda tashkiliy tartib, vazifalar taqsimoti, natijalarni shakllantirish, hujjatlashtirish va umumlashtirish prinsiplari belgilanishi kerak;

E-ekspertiza platformasi va ekspertiza tayinlovchi organlarning axborot tizimlari o'rtasida o'zaro elektron axborot almashinuvi jarayonini sud-ekspertlik faoliyatiga qisqa muddatda joriy etish. Bunda yagona platforma yaratilib protsess ishtirokchilari o'rtasidagi muomala jarayoni soddalashtirib, sifati oshadi;

Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish – sud ekspertlarini tayyorlash va malaka oshirish dasturlariga kompleks ekspertizaning nazariyasi va amaliyoti bo'yicha majburiy modul kiritilishi, turli mutaxassislikdagi ekspertlar o'rtasidagi amaliy mashg'ulot va stajirovkalar tashkil etilishi lozim;

Ijro mexanizmini ta'minlash va nazoratni kuchaytirish – normativ-huquqiy hujjatlarni

qabul qilish va ularni ijro etish jarayonlarining ilmiy va tizimlilik prinsiplariga amal qilish zarur. Ya'ni, yangi uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilganda, ularning amaliy joriy etilishi ham nazorat qilinishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida kompleks sud ekspertizalarining amaliy qo'llanilishi qonunchilik, uslubiy ta'minot, tashkilot va kadrlar nuqtayi nazaridan bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarning yechimi kompleks yondashuvni talab etadi, ya'ni qonunchilikni takomillashtirish, yagona uslubiy asoslarni yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va kadrlar sifatini oshirishni o'z ichiga olishi kerak. Fan-texnikaning tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida yangi, murakkab jinoyat shakllari paydo bo'lmoqda, shuning uchun kompleks ekspertiza institutini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish vaqt talabiga aylanib bormoqda. Ushbu yo'naltirilgan chora-tadbirlar maqsadli ravishda amalga oshirilgan taqdirdagina kompleks sud ekspertizasi o'z o'rnidagi yuksak ilmiy-amaliy vazifasini bajarish imkoniyatini topa oladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.//www.lex.uz;
2. O'zbekiston Respublikasining 2010-yildagi O'RQ-249-sonli “Sud ekspertizasi to'g'risida”-gi Qonuni.//www.lex.uz;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 73-sonli “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.//www.lex.uz;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-270-son Qarori.
5. Neretina N.S. - “Sud ekspertiza turlarining rivojlanish qonun va tendensiyalari”//Kriminalistika va sud ekspertizasi masalalari. - T.: 2019.
6. Bessonov A.A. - “Kompleks sud ekspertizalarining nazariy va amaliy masalalari”. Monografiya. - M.: 2020.

JINOYAT PROTSESSIDA EKSPERTNING HUQUQIY MAQOMI, ULARNI JALB ETISHDA YUZAGA KELADIGAN XARAJATLAR HAMDA QOPLASH TARTIBI

BOZOROV

*Maqsudali Maxmudovich,
Toshkent davlat yuridik
universitetining "Jinoyat-protsessual
huquqi" kafedrası o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoyat protsessida ekspertning protsessual maqomi, uning huquq va majburiyatlari, shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash va o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni qoplash tartibi tahlil qilingan. O'zbekiston qonunchiligi asosida ekspert va mutaxassis o'rtasidagi farqli jihatlar yoritilib, amaliyotda protsessual chiqimlarni undirishdagi mavjud muammolar o'rganilgan hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, sud ekspertizasi, ekspert, mutaxassis, protsessual chiqimlar, ekspertiza xarajatlari, xarajatlarni davlat hisobiga o'tkazish, xarajatlarni ayblanuvchi zimmasiga yuklash.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется процессуальный статус эксперта в уголовном процессе, его права и обязанности, а также порядок возмещения расходов, возникающих при назначении и проведении экспертизы по уголовным делам. На основе законодательства Республики Узбекистан раскрываются различия между экспертом и специалистом. Кроме того, исследуются существующие на практике проблемы взыскания процессуальных издержек и разрабатываются научно обоснованные предложения, направленные на совершенствование законодательства.

Ключевые слова: уголовный процесс, судебная экспертиза, эксперт, специалист, процессуальные издержки, расходы на экспертизу, отнесение расходов на счет государства, возложение расходов на обвиняемого.

ANNOTATION

This article analyzes the procedural status of an expert in criminal proceedings, their rights and obligations, as well as the procedure for reimbursing expenses incurred during the appointment and conduct of expert examinations in criminal cases. Based on Uzbekistan's legislation, the differences between an expert and a specialist are highlighted. Additionally, existing problems in the recovery of procedural costs in practice were examined, and scientifically grounded proposals for improving legislation were developed.

Key words: criminal procedure, forensic examination, expert, specialist, procedural costs, examination expenses, transferring expenses to the state account, assigning expenses to the accused.

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq sohasini tubdan takomillashtirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan bog'liq huquqiy normalar kiritildi, huquqbuzarlikdan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinishi, davlat jabrlanganlarga himoyalaniшни va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlashi, ularga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishi uchun shart-sharoitlar yaratishiga oid qoidalar aniq belgilab qo'yildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, muayyan jinoyat so'dir etilishi faktiga davlatning reaksiyasi, avvalo, aybdor shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyatida ifodalanadi.

Jinoyatchilikni aniqlashga doir xarajatlarning katta qismi jinoyatni tergov qilish bilan bog'liq chiqimlarga to'g'ri keladi.

Jinoyat protsessida ishni tergov qilish va ko'rib chiqishda ekspertning ishtiroki ahamiyatli bo'lib, u protsessning boshqa ishtirokchilari huquqlarini to'g'ri amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ekspertning mehnati munosib taqdirlanishi lozim.

Jinoyat protsessida xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs ekspert sifatida jalb qilinishi mumkin.

Shuningdek, JPKning 173-moddasiga asosan ekspertiza tayinlash va o'tkazishning shartligi belgilangan bo'lib, unga asosan ish bo'yicha:

1) o'limning sababi, yetkazilgan tan jarohatlarining xususiyati va og'irlik darajasini;

2) jinsiy aloqada bo'lganlik, homiladorlik holati va homilani sun'iy yo'l bilan tushirish belgilarini;

3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchining yoshini, agar bu haqda hujjatlar bo'lmasa yoki hujjatlar shubha tug'dirsa;

4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining, ustidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llashga doir ish yuritilayotgan shaxsning ruhiy va jismoniy ahvolini hamda ularning g'ayrihuquqiy qilmishni sodir etayotgan paytda o'z harakatlarini idrok etish va idora qilish layoqatini, shuningdek, jinoiy javobgarlikning ahamiyatini tushunish, jinoyat protsessida ko'rsatuvlar berish hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

5) jabrlanuvchi hamda guvohning ruhiy va jismoniy holatini hamda ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan vaziyatlarni idrok qilish, esda saqlash va so'roq qilganda ifodalab berish layoqatiga ega ekanliklarini, shuningdek, jabrlanuvchining jinoyat protsessi chog'ida o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustaqil himoya qila olish layoqatini;

6) tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarga chalingan, surunkali ichkilikbozlik va giyohvandlikka duchor bo'lgan shaxslarni davolash zarurligi va imkoniyatlarini;

7) giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar va ularning turi mavjudligini;

8) pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqa hujjatlar qalbakilashtirilganligini;

9) portlash, halokat va boshqa favqulodda hodisalarning texnikaviy sabablarini aniqlash, zarur bo'lganda ekspertiza tayinlash va o'tkazish shart.

Ish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashda ham, agar buning uchun maxsus bilimlarni qo'llash zarur bo'lsa va bu holatlar isbotlashning boshqa vositalari bilan puxta aniqlanmagan bo'lsa, ekspertiza o'tkazish shart.

Mazkur kodeksning 68-moddasida ekspertning huquq va majburiyatlari keltirilgan bo'lib, unga asosan:

Ekspertiza predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish;

ekspertizani o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish;

tergov harakatlari o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo'lish hamda shu tergov harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga ekspertiza predmetiga oid savollar berish;

sud muhokamasida ekspertiza predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish va so'roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish;

dalillar va hujjatlarni ko'zdan kechirish;

o'z xulosasida nafaqat o'zining oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha, balki ekspertiza predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo'yicha ham fikrlarini bayon etish;

uning xulosasi yoki ko'rsatuvlari protsess ishtirokchilari tomonidan noto'g'ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan bayonotlar berish;

agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o'z ona tilida xulosa taqdim etish va ko'rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish;

agar ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ekspertning huquq va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan shikoyatlar qilish huquqiga ega.

Ekspert: qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda o'zini o'zi rad etishi haqida darhol arz qilishi;

o'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirishdan o'tkazishi, o'z oldiga qo'yilgan savollar yuzasidan asosli va xolisona yozma xulosa berishi;

surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning chaqiruviga binoan surishtiruvda, dastlabki tergovda yoki sud majlisida shaxsan ishtirok etish uchun kelishi;

o'zi o'tkazgan ekspertiza xususida ko'rsatuvlar berishi va o'zi bergan xulosani tushuntirish uchun qo'shimcha savollarga javob berishi;

ekspertizani o'tkazishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi;

taqdim etilgan tekshirish obyektlari va ish materiallarining saqlanishini ta'minlashi;

ish tergov qilinayotganda va sud muhokamasi vaqtida tartibga rioya qilishi shart.

Ekspert uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan taqdirda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ekspert bila turib noto'g'ri xulosa bergani, surishtiruv yoki dastlabki tergov ma'lumotlarini

surishtiruvchining, tergovchining yoxud prokurorning ruxsatisiz, yopiq sud majlisi muhokamasi ma'lumotlarini hamda tafsilotlarini esa sudning ruxsatisiz oshkor qilgani, shuningdek uzrsiz sabablarga ko'ra xulosa berishni rad etganligi yoki bu ishdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgar bo'ladi.

Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son bilan tasdiqlangan Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomning 12-bandiga ko'ra, ekspert, mutaxassis, tarjimon tomonidan bajarilgan ish uchun haq manfaatdor tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomalar yoki ushbu Nizomda belgilangan miqdorda to'lanadi.

Bundan tashqari, Nizomning 13-bandida "Ekspert va mutaxassisga mas'ul organlar (mansabdor shaxslar) topshirig'iga ko'ra bajargan ishi uchun soatiga bazaviy hisoblash miqdorining 0,10 koeffitsiyenti miqdorida haq to'lanadi" deb ko'rsatib o'tilgan.

Biroq, bugungi kunda ushbu sohada sud ekspertlarining sud muhokamasida ishtirok etishi bilan bog'liq xarajatlar masalasida hal etilishi lozim bo'lgan muayyan muammo va kamchiliklar mavjud.

Mazkur institutning to'liq faoliyat yuritmasligi asosiy sabablari quyidagilardir:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunida ekspertiza muassasalari rahbarlarining protsessual xarajatlarni undirish huquqlari to'liq aks ettirilmagan.

Xususan, "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunning 13-moddasida davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbarining sud-ekspertlik faoliyati sohasidagi huquqlari belgilangan. Unga ko'ra, davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa tashkilot rahbari sud ekspertizasini tayinlagan organdan(shaxsdan) quyidagi xarajatlarni qoplashni talab qilishga haqli: tadqiqot obyektlari mazkur tashkilot tomonidan tekshirilgandan so'ng tashish xarajatlari(pochta xarajatlari bundan mustasno); tadqiqot obyektlarini, agar ular sud ekspertizasini tayinlagan organ(shaxs) tomonidan olinmagan bo'lsa, qonunda belgilangan muddat davomida ushbu tashkilotda saqlash xarajatlari; yuqori

darajada xavfli obyektlarning mazkur tashkilotga kelib tushishi natijasida yuzaga kelgan zararli oqibatlarni (portlash, yong'in va shu kabilarni) bartaraf etish xarajatlari, agar sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) ushbu obyektlar bilan muomala qilishning o'ziga ma'lum bo'lgan maxsus qoidalar haqida rahbari xabardor qilmagan yoki ular tegishli tarzda o'ralmagan bo'lsa.

Biroq Jinoyat-protsessual kodeksining 318-moddasida protsessual xarajatlarning turlari ko'rsatilgan bo'lib, ular orasida ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan mablag'lar, shuningdek, ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish bilan bog'liq xarajatlar protsessual xarajatlar sifatida belgilangan.

Bu esa, o'z navbatida, mazkur xarajatlarning ekspertiza muassasalari rahbarlari tomonidan undirilishiga to'sqinlik qilmoqda, natijada ushbu to'lovlar undirilmay qolmoqda.

Shu bilan birga ekspertizani tayinlagan organ (shaxs) tomonidan ushbu tashkilot obyektlarni tekshirgandan so'ng ularni tashish xarajatlari, pochta xarajatlaridan tashqari, to'lanmasligi belgilanishi JPK 318-moddasi talablariga zid hisoblanadi.

Vaholanki, JPKning 318-moddasida ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish bilan bog'liq xarajatlar protsessual xarajatlar tarkibiga kiritilgan.

Bundan tashqari, rahbarga "jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o'tkazilishi mumkin bo'lgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish uchun shartnomalar tuzish" bo'yicha qo'shimcha huquq berish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish natijasida quyidagilarni kuzatish mumkin.

Xususan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining Parlamentlararo Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning 27-moddasida sud ekspertizasi tashkiloti (muassasasi) rahbarining huquqlari belgilangan. Unga ko'ra, sud ekspertizasi tashkiloti (muassasasi) rahbari davlat qonunchiligida belgilangan cheklolarni hisobga olgan holda yuridik va jismoniy shaxslar uchun

maxsus bilimlardan foydalanishni talab qiladigan tadqiqotlarni o'tkazish to'g'risida shartnomalar tuzish huquqiga ega.

Qirg'iziston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonunining 20-moddasida qo'shimcha ravishda rahbar ekspertning ko'chmas yoki ko'chirib bo'lmaydigan obyekt joylashgan joyga borishi bilan bog'liq xarajatlarni qoplashni talab qilish huquqiga egaligi ko'rsatilgan.

Rossiya Federatsiyasining "Davlat sud-ekspertlik faoliyati to'g'risida"gi qonunining 20-moddasiga ko'ra, rahbar sud ekspertizasini tayinlagan organ yoki shaxsdan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega: 1) sud ekspertizasini o'tkazish uchun olingan tadqiqot obyektlarini tashish xarajatlarini qoplash, ushbu muassasaga o'z vaqtida kelmaganlik uchun jarimalar bundan mustasno; 2) obyektlar tadqiq etilgandan keyin ularni tashish xarajatlarini qoplash, pochta xarajatlari bundan mustasno; 3) sud ekspertizasi tugagandan so'ng tadqiqot obyektlarini davlat sud ekspertizasi muassasasida saqlash xarajatlarini tegishli vakolatli federal davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan muddatlardan ortiqcha qoplash; 4) agar sud ekspertizasini tayinlagan organ (shaxs) ushbu obyektlar bilan muomalada bo'lishning o'ziga ma'lum bo'lgan maxsus qoidalar to'g'risida rahbari xabardor qilmagan bo'lsa yoki ular lozim darajada o'rab-joylanmagan bo'lsa, oqibatlarni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash.

Ikkinchidan, protsessual chiqimlarning turlari Jinoyat-protsessual kodeksida aniq va batafsil bayon etilmagan. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 318-moddasida protsessual chiqimlarning turlari nazarda tutilgan bo'lib, ulardan biri ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summasi deb belgilangan. Bu borada qaysi xarajatlarni ushbu xarajatga qo'shish kerakligi aniq bayon etilmagan. Misol uchun, jinoyat ishlari doirasida kimyoviy moddalarni aniqlashga oid tayinlangan ekspertizalar bo'yicha reagentlar, sarf materiallari, tibbiy ekspertizalar davomida kasallikni aniqlashga doir ko'rik (reagent, rentgen, MSKT, KT va boshqa) xarajatlari, sud-psixiatriya ekspertizasida 30 kungacha statsionar davolash uchun juda katta miqdorda yiliga bir necha o'n mlrd so'm miqdoridagi xarajatlari

davlat budjetidan hamda davlat tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag' hisobidan sarflanadi.

Qozog'iston Respublikasi JPKning 176-moddasiga asosan mutaxassis va ekspertga topshirilgan ishni bajarishda ular tomonidan sarflangan o'zlariga tegishli kimyoviy reaktivlar va boshqa sarflash materiallari qiymati, shuningdek, asbob-uskunalaridan foydalanganlik, kommunal va boshqa xizmatlar uchun ular tomonidan ishni bajarish uchun to'langan haq ham qoplanishi qayd etilgan. Shuningdek, ushbu moddada ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summa tushunchasiga aniqlik kiritilmagan ushbu normani amaliyotda qo'llashda ko'plab muammolar keltirib chiqarmoqda. Masalan, bitta jinoyat ishi doirasida 10 dan ortiq ekspertiza tayinlanishi mumkinligi, taqqoslash obyektlari ko'p bo'lishi mumkinligi, ushbu summa aynan qanday shakllanishi (elektr energiyasi sarfi, asbob-uskunalarining eskirishi va boshqa omillarni hisobga olish mumkinmi) aniqlanmagan va hokazo.

Bundan tashqari ashyoviy dalillarni olib kelish, tashish, shuningdek, murdalarni va ularning qismlarini tashishga sarflangan summalar xarajati aniqlashtirilmagan.

Belarus Respublikasi JPKning 162-moddasi 8-1-bandida protsessual chiqimlarning turlari sifatida davlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan ekspertiza o'tkazish uchun foydalanilgan sarf materiallarini sotib olish va ekspert (maxsus) uskunalarini joriy ta'mirlash uchun sarflangan mablag'lar nazarda tutilgan.

Rossiya Federatsiyasi JPKning 131-moddasiga asosan ashyoviy dalillarni demontaj qilish, saqlash, o'tkazish va tashish, shuningdek murdalar va ularning qismlarini tashish (tashuv) ga sarflangan summalar protsessual chiqimlar turlari sifatida aniq nazarda tutilgan.

Ta'kidlash joizki, davlat sud-ekspertiza muassasalari va ularning hududiy bo'linmalari zamonaviy talablarga javob beradigan uskunalar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Bundan tashqari, yangi uskunalarini sotib olish uchun mablag' yetishmasligi sabab vakolatli organlar tomonidan sud ekspertlari oldiga qo'yilgan ayrim masalalar o'z yechimini topmay qolmoqda. Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual kodeksining 75 va 318-moddalarida sud eksperti va mutaxassislar topshiriqni xizmat vazifasi doirasida bajarsa, haq

to'lanmasligi belgilangan.

JPKning 320-moddasiga asosan keyinchalik protsessual chiqimlarni mahkumlardan undirish bilan bog'liq normalar ko'rsatilgan bo'lsa-da, mazkur moddada chiqimlarni undirishga doir talablar aniq yoritilmagan aksariyat holatda undirilishi lozim bo'lgan protsessual chiqimlarni davlat budjeti hamda davlat sud- ekspertiza muassasalari hisobiga undirilmasdan qolinishiga olib kelmoqda.

Mazkur holatda qonunchilikda "xizmat topshirig'ini xizmat vazifasi tartibida bajarish" tushunchasiga aniqlik kiritilmaganligi sabab bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida budjetdan moliyalashtiriladigan shtatlarga qo'shimcha ravishda ko'rsatiladigan pullik xizmatlar hisobidan 60 dan ortiq sud ekspertlari shtat birliklari joriy etilgan.

Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-son qarorining 4-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi adliya vaziriga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining pullik xizmatlar ko'rsatishdan keladigan mablag'lari va boshqa budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan markazning yangi bo'linmalarini tashkil etish va qo'shimcha shtat birliklarini kiritish, shuningdek, markaz tomonidan bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning tariflari, narxlari va qiymatini mustaqil ravishda belgilash huquqi berilgan. Biroq bugungi kunda ushbu joriy etilgan shtat birliklari tomonidan o'tkazilgan sud ekspertizalari uchun to'lov undirilmayapti.

Bunday holatlarni boshqa davlat sud-ekspertiza muassasalari va ilmiy faoliyat olib boruvchi muassasalarda ham kuzatish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrda "Arxitektura va qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-416-son qarorining 14-bandida Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va Mirzo

Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetiga tegishli litsenziya talablari va shartlariga rioya etgan holda bino va inshootlarning texnik holatini tekshirish hamda moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarini saqlash faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilgan.

Ushbu universitetlar tomonidan mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmalar uchun o'z mablag'lari hisobidan qo'shimcha shtatlar ajratilgan bo'lib, jinoyat ishlari doirasida bu mutaxassislar mutaxassis va ekspert sifatida jalb etilishi mumkin.

Bundan tashqari, amaliyotda asosan vakolatli organlar tomonidan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari ekspert sifatida jalb qilinadi va ularga ham haq to'lanmaydi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: birinchidan, bu mutaxassislar tomonidan sud-tergov organlarining topshiriqlarini bajarish xizmat vazifasiga kiradimi va buning uchun haq olishi mumkinmi?

Bu holatda ham xizmat topshirig'i ko'rinishida bajarilishiga aniqlik kiritish lozim.

Uchinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual chiqimlarni undirishning aniq mexanizmlari belgilanmagan.

JPKning 320-moddasiga asosan, keyinchalik protsessual chiqimlarni mahkumlardan undirish bilan bog'liq normalar ko'rsatilgan bo'lsa-da, mazkur moddada chiqimlarni undirishga doir talablar aniq yoritilmaganligi aksariyat holatda undirilishi lozim bo'lgan protsessual chiqimlarni davlat budjeti hamda davlat sud-ekspertiza muassasalari hisobiga undirilmasdan qolinishiga olib kelmoqda.

Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual chiqimlarni undirish bilan bog'liq aniq mexanizmlar belgilanmagan, yarashuv bilan yakunlangan ishlarda qaysi tomon protsessual chiqimlarni to'lashi lozimligi ko'rsatilmagan. Bu o'z navbatida davlat budjetidan qilingan juda ko'p miqdordagi mablag'larni qaytarilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son qarori bilan tasdiqlangan Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq ishda ko'maklashuvchi shaxslarga ishlarda

ishtirok etganligi uchun tegishli to'lovlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur mablag'larni qaytarilishi davlat budjeti mablag'lari hisobidan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning faoliyatini qo'shimcha ravishda moliyalashtirilishiga va sohani yanada rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Misol uchun, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi tomonidan 2024-yil va 2025-yil 9 oyi davomida sud-tergov organlar tomonidan tayinlangan ekspertizalarni amalga oshirish bilan qilingan 4 mlrd.dan ortiq so'm miqdoridagi protsessual xarajatlarni qoplash bo'yicha xatlar chiqarilgan bo'lsa-da, biror so'm miqdoridagi mablag' qoplanmagan.

Jumladan, Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksining 118–126-moddalarida jinoyat ishlari bo'yicha jalb qilingan shaxslarga to'lanishi lozim bo'lgan protsessual xarajatlarning qoplanishiga oid aniq mexanizmlar belgilab berilgan.

Ushbu Kodeksning 122-moddasida istisno holatlardan tashqari, guvohlar, mutaxassislar, tarjimonlar va ekspertlarni jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar chaqirish to'g'risida iltimosnoma yoki jalb qilgan protsess ishtirokchisi tomonidan qoplanishi belgilangan. Shuningdek, mazkur Kodeksda jalb qilinganlik bo'yicha xarajatlarni qoplashning eng yuqori miqdori Ukraina Vazirlar Mahkamasiga tomonidan belgilanishi qayd etilgan.

Xorvatiya Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 145–152-moddalarida protsessual xarajatlarning turlari va ularni undirish tartibi batafsil bayon etilgan.

Shuningdek, Kodeksning 148-moddasida sud sudlanuvchini aybdor deb topganda, sud hukmida u jinoyat ishini yuritish xarajatlarini to'lashi shartligini ko'rsatilishi qayd etilgan.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 177-moddasida protsessual xarajatlarning undirishga doir masalalar nazarda tutilgan bo'lib, unga asosan protsessual xarajatlarni undirish masalasi sud tomonidan jinoyat ishi bo'yicha yakuniy qaror chiqarilayotganda ko'rib chiqiladi. Agar ish yuritish jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichida yakunlangan bo'lsa, tergov sudyasi protsessual xarajatlarni undirish masalasini prokurorning taqdimnomasiga asosan ko'rib chiqadi.

Shuningdek, ushbu moddaga asosan protsessual xarajatlar jazodan ozod qilingan

mahkumga ham yuklatilishi, gumon qiluvchi, ayblanuvchi vafot etgan taqdirda, ularning merosxo'rlari protsessual xarajatlar bilan bog'liq majburiyatlar bo'yicha javobgar bo'lmazligi hamda protsessual xarajatlarni undirish huquqi sudning tegishli qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e'tiboran uch yil o'tganidan keyin da'vo muddatiga ko'ra bekor bo'lishi qayd etilgan.

Belorus Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 162-moddasida protsessual xarajatlarning turlari batafsil ko'rsatilgan. Shuningdek, ushbu Kodeksning 163-moddasida protsessual xarajatlarni undirish tartibi belgilangan bo'lib, protsessual xarajatlar ayblanuvchi aybdor deb topilgan taqdirda sud undan xarajatlarni undirishi shartligi, sud protsessual xarajatlarni to'lashga majbur qilishi ko'rsatilgan.

Protsessual xarajatlar aybdor deb topilgan, biroq jazodan ozod etilgan shaxsdan, shuningdek jazo tayinlanmagan yoki ma'muriy jazo choralari qo'llanilgan holda hukm qilingan shaxsdan ham undiriladi.

Estoniya Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 180-moddasida jinoyat protsessual xarajatlarni sud tomonidan mahkumning moddiy ahvolidan kelib chiqib, bo'lib to'lash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Shuningdek, ushbu kodeksning 183-moddasiga asosan agar jinoyat ishi bo'yicha ish yuritish tugatilsa va jinoyat ishi materiallari ma'muriy huquqbuzarlik belgilari aniqlanganligi munosabati bilan ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan ish olib boruvchi organga yuborilganda, ish yakunida jinoyat ishi doirasidagi protsessual chiqimni undirish masalasi ko'rib chiqilishi lozimligi belgilangan.

Gruziya Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 91-moddasida asosan mahkumga o'zi yoki advokatining iltimosi bilan jabrlanuvchi, guvoh, tarjimon va ekspertni taklif qilish, taqdim etilgan ashyoviy dalillarni saqlash va yuborish, tergov harakatlarini o'tkazish, shuningdek, ayblovtomonidan olingan ma'lumotlardan nusxa olish xarajatlarni qoplash majburiyati yuklatiladi.

Vafot etgan ayblanuvchi yoki mahkumning merosxo'rlari protsessual xarajatlarni to'lashdan ozod etiladi.

Ishni sudga qadar yuritish bosqichidagi o'z protsessual xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotnomani prokuror tuzadi va ishni

mazmunan ko'rib chiqayotgan sudyaga taqdim etadi. Ishni mazmunan ko'rib chiqish jarayonida o'z protsessual chiqimlari o'zgargan taqdirda, prokuror tegishli o'zgarishlarni ma'lumotnomada aks ettirishi va uni sudga taqdim etishi shart.

Protsess ishtirokchisi uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan taqdirda, sud muhokamasini keyinga qoldirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash mazkur shaxs zimmasiga yuklanadi.

Ushbukodeksning 320-moddasida protsessual chiqimlarni keyinchalik mahkumlardan undirish bilan bog'liq normalar ko'rsatilgan bo'lsa-da, ushbu moddada chiqimlarni undirish bo'yicha talablar aniq belgilanmagani sababli aksariyat hollarda undirilishi lozim bo'lgan protsessual chiqimlar davlat budjeti va davlat sud-ekspertiza muassasalari hisobidan undirilmay qolmoqda. Ushbu mablag'larning qaytarilishi sohani yanada rivojlantirish va sud ekspertlarining ish haqi miqdorini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

To'rtinchidan, JPKning 319-moddasiga asosan barcha tashkilotlar, jumladan tadbirkorlik subyektlarining xodimlari ham guvoh tariqasida, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, jamoat ayblovdchisi va jamoat himoyachisi tariqasida chaqiriladigan shaxsning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudga chaqirilganligi bilan bog'liq butkul vaqt uchun ularning ish joyida o'rtacha ish haqi saqlab qolinadi.

Ma'lumot uchun, Qozog'iston Respublikasi JPKning 176-moddasiga asosan bunday majburiyat faqatgina Davlat organlari va tashkilotlariga nisbatan yuklatilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud muammolarni hal etish va sohani yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

– “Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonunda ekspertiza muassasalari rahbarlari tomonidan protsessual chiqimlarni undirishni talab qilish huquqini kengaytirish;

– jinoyat protsessida ishni ko'rish bilan bog'liq xarajatlarning to'liq turlarini nazarda tutish. Bunda, ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summa tushunchasiga aniqlik kiritish;

– jinoyat protsessida protsessual chiqimlarni undirishning aniq mexanizmlarini, shuningdek mahkumlarning ishtiroki va ularni to'lashning

moddiy imkoniyati yo'qligi asosida protsessual chiqimlarni to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish. Bunda yarashuv, ishtirokchilik asosida va ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatilganda protsessual xarajatlarni undirish hamda to'lovga moddiy imkoniyati bo'lmagan mahkumlarni to'liq yoki qisman ozod qilish yoki to'lov muddatini uzaytirish;

– ish sudga qadar tugatilgan taqdirda prokurorning protsessual chiqimlarni undirish bo'yicha taqdimnomasiga asosan tergov sudyasi tomonidan hal qilinishi;

– ekspert, tarjimon va mutaxassislar tomonidan ishlarning xizmat topshirig'i tartibida

bajarilishi shartlarini aniqlashtirish.

– ayblanuvchi yoki uning himoyachisining iltimosnomasiga ko'ra, davlat budjeti hisobidan o'tkaziladigan tergov harakatlari bilan bog'liq xarajatlar jinoyat ishi yakunida ayblanuvchi yoki mahkumdan undirilishi;

– mahkumdan protsessual chiqimlarni undirishni ijro etishning o'ziga xos jihatlari ga doir munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish;

– protsessual chiqimlarni to'liq undirish masalalari aniq belgilangan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini qabul qilish lozim bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. (2026-yil holatiga). – lex.uz [Elektron manba].

3. “Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (O'RQ-848, 16.06.2023).

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislarga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2023-yil 28-oktabrdagi 570-son qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Jinoyat ishlari bo'yicha sud chiqimlarini undirish amaliyoti to'g'risida”gi 2009-yil 24-noyabrdagi 13-sonli qarori.

NODAVLAT SUD- EKSPERTIZA TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH BO'YICHA AYRIM MUAMMOLAR

JURAYEV

*Farrux Xusanovich,
Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va
sud-ekspertiza boshqarmasi bosh
maslahatchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining dolzarb muammolari tadqiq qilingan. O'zbekiston Respublikasida nodavlat ekspertiza faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining yetarli emasligi, majburiy akkreditatsiya va sertifikatlash tizimining yo'qligi, sifat nazorati mexanizmlarining shakllantirilmagani asosiy muammolar sifatida aniqlangan. Xorijiy davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gollandiya) tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirilgan va ISO 17025:2017, ISO 21043 xalqaro standartlari tahlil etilgan. Tadqiqotda nodavlat ekspertlar mustaqilligi va xolisligini ta'minlashda manfaatlar to'qnashuvi xavfi, davlat va nodavlat sektorlari o'rtasida sog'lom raqobat, kadrlar malakasi va uzluksiz malaka oshirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Muallif tomonidan soha bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Natijalar nodavlat sud-ekspertiza tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nodavlat sud-ekspertiza, akkreditatsiya, ISO 17025, sifat boshqarish tizimi, mustaqillik, xolislik, sertifikatlash, xalqaro standartlar.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются актуальные проблемы функционирования негосударственных судебно-экспертных организаций. Основные выявленные вопросы включают недостаточность законодательного регулирования деятельности таких организаций в Республике Узбекистан, отсутствие системы обязательной аккредитации и сертификации, а также недостаточное развитие механизмов контроля качества. На основе опыта зарубежных государств (США, Великобритании, Германии, Нидерландов) проведен сравнительно-правовой анализ и изучены международные стандарты ISO 17025:2017, ISO 21043. Исследование охватывает анализ рисков конфликта интересов, обеспечения независимости и объективности негосударственных экспертов, формирования здоровой конкуренции между государственным и частным секторами, а также вопросы квалификации кадров и непрерывного повышения их профессионального уровня. Автором предложены практические рекомендации по совершенствованию данной сферы. Полученные результаты могут служить теоретико-методологической основой для развития

системы негосударственной судебно-экспертной деятельности и ее соответствия международным стандартам.

Ключевые слова: негосударственная судебно-экспертная деятельность, аккредитация, ISO 17025, система управления качеством, независимость, объективность, сертификация, международные стандарты.

Annotation: The article explores the current problems in the activities of non-governmental forensic expert organizations. The main issues identified include the inadequacy of the legislative framework regulating non-governmental expertise in the Republic of Uzbekistan, the lack of a mandatory accreditation and certification system, and the absence of established quality control mechanisms. A comparative legal analysis was conducted based on the experience of foreign countries (USA, Great Britain, Germany, Netherlands), and the international standards ISO 17025:2017 and ISO 21043 were analyzed. The study examines the risk of conflicts of interest in ensuring the independence and impartiality of non-governmental experts, healthy competition between the public and private sectors, and problems related to the qualification of personnel and continuous professional development. The author has developed practical proposals for the field. The results serve as a theoretical and methodological basis for improving the non-governmental forensic examination system and raising it to the level of international standards.

Key words: Non-governmental forensic examination, accreditation, ISO 17025, quality management system, independence, impartiality/objectivity, certification, international standards.

Sud-ekspertiza instituti odil sudlovni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda maxsus bilimlarga asoslangan xulosalar taqdim etishni nazarda tutadi. So'nggi yillarda sud-ekspertiza faoliyatiga nodavlat sektorning kirib kelishi mazkur sohada raqobat muhitini shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish va sudlar hamda tergov organlarining yu-kini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4125-son qaroriga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga ruxsat berilgan.

Shuningdek, ushbu Qarorga muvofiq nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan 55 ta ekspertiza turi yuzasidan ekspertiza tadqiqotlari o'tkazilishiga ruxsat berilgan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-martdagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom asosida nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi "**Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi PQ-270-son qarorga asosan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatiga oid qator yangi tartiblar belgilab berildi:

- nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining notijorat tashkilot sifatida faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'yish;
- nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining ixtiyoriy a'zoligiga asoslangan O'zbekiston sud ekspertlari palatasini tashkil etish;
- nodavlat sud ekspertlarining kasbiy va

amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlash, shuningdek, ularning noqonuniy harakatlari bilan bog'liq holatlarning adolatli va xolis ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligi huzurida Ekspert-malaka komissiyasi faoliyatini yo'lga qo'yish;

– nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o'tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlarini 44 tadan 55 taga ko'paytirish;

– 2025-yil 1-dekabrda nodavlat sud ekspertlariga yakka tartibda sud-ekspertlik byurosi shaklida faoliyat yuritish huquqini berish va boshqalar.

Biroq amaliyotda nodavlat ekspertlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etishda ekspert xulosalarining sifati, ularning protsessual maqomi va davlat muassasalari bilan raqobatdoshligi bo'yicha qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatidagi muammolarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Akkreditatsiya va standartlashtirish muammosi. Ko'pchilik nodavlat tashkilotlarda xalqaro ISO/IEC 17025 standartining mavjud emasligi ular bergan xulosalarning ilmiy asoslantirilganligiga shubha uyg'otadi.

2. Protsessual tengsizlik. Sudya va tergovchilar ongida hali hanuz davlat eksperti xulosasiga "ustuvor dalil" tariqasida qarash saqlanib qolgan.

3. O'zini-o'zi boshqarish mexanizmining yo'qligi. Nodavlat ekspertlarning kasbiy etikasi va sifat nazoratini muvofiqlashtiruvchi mustaqil organ mavjud emas.

4. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash masalasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

O'z navbatida, tahlillar shuni ko'rsatadiki, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatida quyidagi asosiy muammolar mavjud:

Yagona metodik bazaning mavjud emasligi. Ayrim hollarda ekspertizalar turli uslubiy yondashuvlar asosida o'tkaziladi, bu esa xulosalarning sifat va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatining yetarli emasligi. Nodavlat tashkilotlarda yangi metodikalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish ishlari kam uchraydi;

Nazorat va baholash mexanizmlarining cheklanganligi. Ekspert xulosalarining ilmiy-uslubiy jihatdan ekspertizadan o'tkazilishi

amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagan.

Bu holat qator salbiy oqibatlariga olib keladi. Jumladan, malakasi past ekspertlar bozorga kirishining oldini olib bo'lmaydi, sifat nazorati zaif, ekspertiza xulosalarining ishonchliligiga shubha tug'diradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolar o'z yechimini topgan. Xususan, Vengriyada sud ekspertizasi sohasidagi eng muhim yutuq — Sud ekspertlari palatasi (MISZK) faoliyatidir. Ushbu organ davlat va nodavlat ekspertlarni birlashtirib, ularning yagona reyestrini yuritadi va ekspertlik xatosi uchun javobgarlik masalalarini ko'rib chiqadi. Bu tizim ekspertning idoraviy mansubligidan qat'i nazar, uning shaxsiy va kasbiy mas'uliyatini oshiradi.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada Forensic Science Regulator (FSR) instituti mavjud bo'lib, u bozordagi barcha ishtirokchilar uchun majburiy bo'lgan "Sifat kodlari"ni belgilaydi. Agar nodavlat laboratoriya ushbu kod talablariga javob bermasa, uning xulosasi sudda dalil sifatida qabul qilinmaydi.

Buyuk Britaniyada 2007-yildan Forensic Science Regulator instituti faoliyat ko'rsatadi. Regulyator Codes of Practice ishlab chiqadi va barcha ekspertiza provayderlari (davlat va nodavlat) uchun majburiy akkreditatsiya va sifat talablarini belgilaydi. 2021-yilda Forensic Science Regulator Act qabul qilinib, regulyatorga qonuniy majburiy vakolatlar berilgan.

Germaniyada Forensic Science Institute nodavlat laboratoriyalarni akkreditatsiyalash va ularning faoliyatini monitoring qilishda faol ishtirok etadi. Germaniyada ekspertlarni ixtiyoriy sertifikatlash tizimi mavjud, ammo sud ishlarida faqat ISO 17025 ga ega laboratoriyalardan foydalanish keng tarqalgan.

AQSHda nodavlat sud-ekspertiza laboratoriya va ekspertlari ISO/IEC 17025:2017 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiyadan o'tishlari majburiy hisoblanadi. Akkreditatsiyani ANAB (ANSI National Accreditation Board) kabi vakolatli tashkilotlar amalga oshiradi. Federal darajada National Commission on Forensic Science (NCFS) va NIST Organization of Scientific Area Committees (OSAC) tomonidan standartlar ishlab chiqiladi va sifat nazorati amalga oshiriladi. FBI Quality Assurance Standards (QAS) DNK ekspertizalari uchun majburiy talablar belgilaydi.

O'zbekistonda nodavlat ekspertlik tashkilotlarini rivojlantirish uchun quyidagi choralarni ko'rish zarur:

Birinchidan, nodavlat ekspertlik tashkilotlari uchun bosqichma-bosqich majburiy akkreditatsiya tizimini joriy etish. Bunda ekspertlik xulosasining xatolik darajasi xalqaro standartlarga muvofiq hisoblanishi lozim;

Ikkinchidan, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining ixtiyoriy a'zoligiga asoslangan O'zbekiston sud ekspertlari palatasini tashkil etish va unga nodavlat ekspertlarni sertifikatlash, ularning reytingini yuritish va kasbiy sug'urtalash masalalarini yuklash;

Uchinchidan, jinoyat-protsessual qonun-

chiligida nodavlat ekspertning protsessual himoyasini kuchaytirish;

To'rtinchidan, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari uchun yagona ilmiy-uslubiy standartlarni ishlab chiqish;

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini tashkil etishdagi muammolarni hal qilish nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki sohada xalqaro sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni talab qiladi. Vengriya modelidagi kabi professional palata tizimiga o'tish ekspertlarning haqiqiy mustaqilligini ta'minlaydi va sud ishlarini yuritishda tortishuv prinsipining amalda ishlashiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

“Sud ekspertizasi to'g'risida”gi Qonun.

<https://online.zakon.kz>.

<https://continent-online.com/>.

<https://lex.uz>.

Strengthening Forensic Science in the United States: A Path Forward. National Research Council. Washington, DC: The National Academies Press, 2009. 352 p.

Roux C., Crispino F., Ribaux O. From Forensics to Forensic Science // Current Issues in Criminal Justice. 2012. Vol. 24. №1. P. 7-24.

Cyberleninka.ru: Проблемы качества производимых судебных экспертиз негосударственными (частными) СЭУ. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-kachestva-proizvodimyh-sudebnyh-ekspertiz-negosudarstvennymi-chastnymi-seu> (accessed: 20.01.2026).

Forensic Science Regulator. Code of Practice (Version 2). UK Government, 2025. 156 p.

Morgan R.M. The Forensic Science Regulator: A model // Georgia State University Law Review. 2017. Vol. 33. №4. P. 835-880.

Thompson W.C., Newman E.J. Lay understanding of forensic statistics // Forensic Science International. 2015. Vol. 6. P. 109-132.

Аминев Ф.Г. Современные проблемы судебно-экспертной деятельности в Российской Федерации. М.: Юрлитинформ, 2019. 224 с.

ISO/IEC 17025:2017. General requirements for the competence of testing and calibration laboratories. ISO, 2017.

NIST Organization of Scientific Area Committees (OSAC) for Forensic Science. URL: <https://www.nist.gov/osac> (accessed: 18.01.2026).

National Commission on Forensic Science. Reflecting Back – Looking Toward the Future. U.S. Department of Justice, 2017. 68 p.

FBI Quality Assurance Standards for Forensic DNA Testing Laboratories. 2020 (revised 2025). URL: <https://ucr.fbi.gov/lab/biometric-analysis/codis/quality-assurance-standards> (accessed: 18.01.2026).

Forensic Science Regulator Act 2021. UK Government. URL: <https://www.legislation.gov.uk> (accessed: 17.01.2026).

Lawless C. The UK Forensic Science Regulator: A model // Forensic Science International. 2019. Vol. 296. P. 1-8.

BKA Forensic Science Institute. URL: <https://www.bka.de/EN/TheBKA/OrganisationalUnits/ForensicScienceInstitute/> (accessed: 19.01.2026).

ISO/IEC 17025:2017 – Application in forensic laboratories // Journal of Forensic Sciences. 2018. Vol.

63. №5. P. 1345-1359.

ISO 21043-1:2018. Forensic sciences – Part 1: Terms and definitions. ISO, 2018.

Lawinfo.ru: Правовые особенности осуществления негосударственной экспертной деятельности. URL: <https://lawinfo.ru/articles/6164/> (accessed: 16.01.2026).

Morrison G.S. Quality assurance in forensic science // Forensic Science International. 2021. Vol. 319. Article 110654.

Saks M.J., Koehler J.J. The individualization fallacy in forensic science evidence // Vanderbilt Law Review. 2008. Vol. 61. №1. P. 199-219.

Dror I.E. Biases in forensic experts // Science. 2018. Vol. 360. №6386. P. 243.

ENFSI Guideline for Evaluative Reporting in Forensic Science. Ver. 3.0. ENFSI, 2015. 18 p.

Morgan R.M. The Forensic Science Regulator: A model for forensic science regulation? // Georgia State University Law Review. 2017. Vol. 33. P. 835-880.

ANAB ISO/IEC 17025 Forensic Testing Laboratory Accreditation. URL: <https://anab.ansi.org/accreditation/iso-iec-17025-forensic-testing-laboratory/> (accessed: 19.01.2026).

Forensic Science Education Programs Accreditation Commission (FEPAC). URL: <https://www.aafs.org/FEPAC> (accessed: 17.01.2026).

Moret S., Chakraborty R. Blockchain in forensic science // Forensic Science International: Digital Investigation. 2020. Vol. 33. Article 301014.

Tharwat A. Artificial Intelligence in forensic sciences // Forensic Science International. 2020. Vol. 316. Article 110540.

ZAMONAVIY KIBERMAKONDA MISSIONERLIK TAHDIDILARINING NAMOYON BO'LISHI

MUSAYEV

*Mansur Tursunpo'latovich,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat
markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i,
siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy kibermakonda missionerlik tahdidlarining namoyon bo'lishi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda missionerlik zahirida taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlarning davlat suvereniteti, konstitutsion tuzumiga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab-quvvatlash kabi salbiy holatlar namoyon bo'layotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: davlat, suverenitet, konstitutsiya, ma'naviyat, mafkura, missionerlik, kibermakon, targ'ibot, ma'rifat, axloq, odob, prozelitizm.

АННОТАЦИЯ

В статье научно проанализированы взгляды на проявление миссионерских угроз в современном киберпространстве. Научно освещается тот факт, что сегодня на основе миссионерства проявляются такие негативные явления, как государственный суверенитет стран, стремящихся к прогрессу, идеологическая поддержка посягательств на конституционный строй.

Ключевые слова: государство, цивилизация, конституция, духовность, идеология, миссионерство, киберпространство, пропаганда, просвещение, мораль, этика, прозелитизм.

ANNOTATION

In this article, his views on the manifestation of missionary threats in modern cyberspace are scientifically analyzed. The article also scientifically illuminates the fact that today, on the basis of missionary work, such negative phenomena as the state sovereignty of countries striving for progress, ideological support for encroachments on the constitutional order are manifested.

Keywords. State, civilization, constitution, spirituality, ideology, missionary work, cyberspace, propaganda, enlightenment, morality, ethics, proselytism.

Kirish(Introduction). Bugungi kunda dunyo miqyosida tahlikali vaziyatning tobora kuchayishi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Bu esa o'z navbatida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar tobora kuchayayotganini ko'rsatmoqda. Hozir dunyoning turli mintaqalari va hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan, katta sarmoyalarga ega siyosiyliklashgan kuch markazlari ta'siridagi zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalari ayrim mintaq va mamlakatlarni ongli ravishda "nishonga olib", mavjud siyosiy rejim bilan fuqarolar orasiga nifoq solish orqali mavjud qonuniy hukumatni zaiflashtirishga harakat qilmoqda[1]. Bugun dunyoda sodir bo'layotgan globallashuv shiddati dunyo miqyosida barcha mamlakat va davlatlarga ta'sir o'tkazmoqda. Ayniqsa, rivojlangan davlatlar turli darajadagi bosimlarni kuchaytirayotgan bo'lsa-da, kichik davlatlar mudofaa pozitsiyasini saqlab qolishga majbur bo'lmoqda.

Hozir dunyoda kechayotgan murakkab globallashuv jarayonlari tufayli ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'siri ham tobora kengayib bormoqda. Missionerlikka yo'naltirilgan harakatlar nafaqat insonlarning e'tiqodiga, balki turli din, millat va elatlarning hamjihatligiga raxna solayotgani hamda siyosiy ta'sir doirasiga olishning vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Globallashuv sharoitida mafkura poligonlarida inson qalbi va ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Global miqyosda g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlikning kuchayishi dunyo jamoatchiligi ongi, ruhiyati va ma'naviyatiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bu haqda fikr yuritganda O'zbekiston Pespublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid

solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda"[2], – deya ta'kidlagani bejiz emas. Zero, bugungi kunda missionerlik zahirida tapaqqiyot sari intilayotgan mamlakatlarning davlat suvereniteti, konstitutsion tuzumiga qilinayotgan tajovuzlarni mafkuraviy qo'llab-quvvatlash kabi salbiy holatlar namoyon bo'lmoqda. Missionerlik tarafdoplarining mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash uchun juda katta sarmoyalarni safarbar etishayotgani namoyon bo'lmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, missionerlik ta'siriga tushgan inson ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, huquqiy va psixologik jihatdan jiddiy zararlar girdobiga giriftor bo'lishi natijasida oilalar barbod bo'lmoqda. Natijada, missionerlik oqibatida insonlar sog'ligiga putur yetib, pul va mol-mulkidan ajralish holatlari ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Missionerlik tashkilotlarining o'z a'zolariga nisbatan psixologik usullarni qo'llashi adeptlarga zarar yetkazishini anglash lozim. O'z navbatida, ular aqliy qiyinchiliklarni tushunish uchun emas, balki mustaqil sog'lom fikrlashni bartaraf etish maqsadida qo'llanadi. Ayniqsa, missionerlar o'z a'zolariga ommaviy uchrashuvlarda tantanali va'da berish orqali o'z a'zolaridan sadoqat to'g'risidagi arizalarga imzo chekishni talab etishadi. Natijada missionerlikning ommaviy bayonoti tarafdorlarning tashkilotga sadoqatini kuchaytirib, tashkilotdan ketishga intilayotgan a'zolari ishonchsiz insonlar sifatida ko'rinishga majbur qilishadi. Aynan mazkur omillar missionerlik tarafdorlari tomonidan insonlarni tashkilotga a'zo qilishda, eng avvalo, ularning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, missionerlik tarafdorlari hali ongi shakllanmagan, missionerlik to'g'risida aniq bilim va tasavvurga ega bo'lmagan insonlarning ongi va qalbini zabt etish orqali o'z tuzog'iga ilintirishda ustalik bilan yondashadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, bugungi kunda dunyo miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan missionerlik tashkilotlari o'zining internet veb-sahifalariga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Internet diniy segmentining tahlil natijalariga ko'ra, diniy veb-portallarda quyidagi bloklar mavjud: yangiliklar, diniy

ta'limot asoslari haqidagi ma'lumot, MR3 formatidagi va'zlar, Injil, guvohliklar, fotoko'rgazma, maqolalar, kitob matnlari, konferensiyalar, e'lonlar, tabriknomalar, bayramlar, xristian do'konlari.

Missionerlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan aksariyat oqimlarning diniy saytlari o'z tarafdorlariga mehmonlar kitobi, bloglar, forumlar uchun muloqot qilish sharoitlarini yaratgan. Bularning barchasi bu sohadagi faoliyatning bir tomoni bo'lib, missionerlik mansub siyosat va din maddohligiga qaratilgan. Ikkinchi tomondan missionerlar tashabbusi bilan internet tarmog'idagi juda ko'plab saytlarda muayyan hudud madaniy hayotini fahsh, qotillik, qoloqlik, yovuzlik o'choqlari sifatida buzib ko'rsatuvchi portallar shakllantirilganki, ular mazkur mamlakat siyosatini ham ichki hayotda, ham tashqi hayotda obro'sizlantirishning muhim omillari rolini bajaradi. ...Internet ommabop bo'lishining sabablari muloqotga osonlikcha kirish, anonim aloqani ta'minlash, ma'lumotni butun dunyoga tarqatish, ma'lumot uzatishning yuqori tezligi, multimedia imkoniyatlari va boshqalardir[3].

Shuningdek, missionerlik saytlarida tarmoq ichra onlayn, murabbiylik va o'qitish (elektron pochta yoki onlayn tartibda Injil bo'yicha mashg'ulotlar), maslahatlar, darslar, duolarni topish mumkin. Shu tariqa, diniy saytlarda video ketma-ketliklar, audiova'zlar, radio, teleko'rsatuvlar o'rin olganligini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, "Xristian portali", "Internet cherkov" keng miqyosda faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur portallarda "Injil nima deydi" turkumidagi mavzularning narxi ancha baland ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu portallar tarkibida yana "Eski Vasiyatnomada mafiya va reket", "Virtual jinsiy aloqa", "Do'zaxdagi vaziyat", "Cherkov va yuz dollar", "Xudo bilan uyali aloqa", "O'lim va dazmollar", "Jannatga kirish maxfiy kodi", "Xudoni sinash kalkulyatori" kabi xizmat turlari ham faoliyat ko'rsatib keladi[4].

Saytlarda tanishuv xizmatlari, axborot servislari, hatto duolarni jo'natish uchun maxsus shakllar mavjudligini aytish joiz. Mutaxassislar missionerlarning ushbu makkor usullari orqali insonlarning bir tomondan o'z

diniy va dunyoviy hayot tarzidan qoniqmaslik hissi ortayotgani, ikkinchi tomondan o'zga diniy sektalarga bo'lgan qiziqishlari ortayotganini tez-tez ta'kidlashadi. Missionerlik saytlaridagi mazkur holatlar oqibatida muayyan mintaqaga yoki mamlakat aholisi orasida xalqning milliy mentalitetiga yot va zid bo'lgan fikrlash usuli, yashash namunasi, qadriyat va ideallar shakllanishiga zamin yaratilmoqda. Shunday qilib, missionerlar targ'iboti orqali vujudga kelayotgan ko'p dinlilik yoki diniy loqaydlik o'z ma'naviy ustunligini har qanday yo'l bilan bo'lsa ham o'rnatishga intilishi jamiyat va mamlakat barqarorligi uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Binobarin, mazkur holat xalqlarning ko'p asrlik milliy qadriyatlarini unutishga olib keladi. "Informatsion xuruj tashkilotchilari o'zining mafkuraviy va xudbinlik manfaatlarini ko'zlab terrorizmga, XXI asr vabosi bo'lmish bu balo-qazoga qarshi kurash yo'lida birlashayotgan kuchlarni, odamlarni yo'ldan og'dirish, ularning orasiga nifoq solish, bir-biriga nisbatan shubha tug'dirishga urinishmoqda" [5], deya ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov. Haqiqatan, axborot xurujlari xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular avvalo, millatning tarixan shakllangan madaniyati, qadriyatlari va uning o'ziga xosligini barbod etish orqali insonlar millat va xalq sifatida yashashining xavf ostida qolishiga zamin yaratadi. Axborot-tahliliy o'rganishlarga ko'ra, 2022-yil yanvar oyida dunyo bo'yicha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning umumiy soni 4,62 milliard kishiga yetgan va bu dunyo aholisining 58,4 foizini tashkil etmoqda[6].

Bugungi globallashuv shiddati raqamlashtirish jarayonining tez sur'atlar bilan o'sib, dunyo miqyosida internet va ijtimoiy tarmoqlarning insonlar kundalik hayotiga ta'siri tobora kuchayayotganini ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatda, missionerlarga ham "qulay" shart-sharoitlar yaratish orqali o'z g'oyalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali, onlayn shaklda targ'ib etishiga zamin yaratmoqda. Bundan unumli va ustalik bilan foydalanayotgan missionerlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z o'ljalarini osonlik bilan qalbi va ongini ekspansiya qilish orqali tuzog'iga ilintirmoqda. Shu o'rinda,

missionerlik harakatining nazariyotchilaridan biri Richard J.Kreychir ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish missionerlik uchun ancha qulayligini ta'kidlab o'tadi. Bu haqda u shunday deydi: "Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari geometrik progressiya bilan o'sib bormoqda, bu esa informatsion targ'ibot strategiyasini birinchi o'ringa olib chiqmoqda. "Facebook"ni bir davlat deb tasavvur qiling. Agar u davlat bo'lganida aholi soni bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinni egallagan bo'lar edi"[7]. Facebook, Twitter yoki Instagram kabi kompaniyalar daromadlari o'z foydalanuvchilarining qiziqishiga proporsional tarzda o'sib borayotgan kompaniyalardir. Qayerda mobil aloqa va "wi-fi" mavjud bo'lsa, telefon, smartfon, ayfon, aypad, kommunikatorlar, netbuklar, noutbuklar orqali odamlar onlayn muloqotga kirishish imkoniga ega bo'ladi. Shu tariqa, missionerlik g'oyalarni ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilish dunyo miqyosida insoniyatga global tahdidga aylanishini anglash qiyin emas.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tashvishlanarli tomoni, bugungi kunda yoshlarning aksariyati ijtimoiy tarmoqlarga tobe bo'lib borishmoqda. Shu o'rinda, olib borilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra, internet va kompyuterning inson ruhiyati, sog'lig'i hamda ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tobora avj olib bormoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarga yoshlarning tobe bo'lishi natijasida ayrim kasalliklar, ya'ni "yuqumli internetukys" mavjudligi qayd etilmoqda. Ushbu kasallik qimor o'yini kabi yuqib, kishini yon-atrofdan, ijtimoiy hayotdan ajratib qo'yadi. Ma'lumotlarga ko'ra, internetdan foydalanuvchilarning 5 foizga yaqini shunday xastalikka chalinganligi aniqlangan [8].

Afsuslanarli tomoni mamlakatimizda ham keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlar ta'siriga tushib qolgan yoshlar juda ko'payib borayotganligi bu borada jiddiy fikrlashni taqozo etadi. Bundan unumli foydalanishni ko'zlayotgan missionerlar o'z da'vatchilariga: "Agar sen cherkoving, cherkov oldidagi xizmatining va hatto o'z biznesing samarali va mahsuldor bo'lishini istasang, yangi va rivojlanayotgan aloqa platformalaridan o'z vaqtida foydalanishing kerak. Bunday platformalarga Facebook, Twitter, Google+,

LinkedIn, bloglar, Internet chat kabilar misol bo'ladi. Bu va shu kabi ko'plab ijtimoiy tarmoqlardan odamlar bilan muloqotga kirishish uchun eng muhim maydon sifatida foydalanish mumkin"[9], deya "foydali" maslahatlarni berishmoqda.

2021-yil iyun oyida bo'lib o'tgan axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha MDH ekspertlar forumida qayd etilishicha, respublikamizda Internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni 2020-yilda 22,5 mln nafardan oshib, 2016-yilga nisbatan o'sish sur'atlari 17 foizni tashkil etgan[10]. Albatta, globallashuvning tobora avj olishi internetning dunyo miqyosida ommalashishiga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda missionerlik targ'ibotini ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirishning qulayligi shundaki, u katta mablag' talab etmaydi. Ammo mazkur makkorona g'oyaviy ta'sir va tazyiqni aksariyat holatlarda o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabin angamaydi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, tabiati, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish, shakllangan qadriyatlarini o'zgartirishga, ularning ahamiyatini kamaytirish yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Yurtimizda ham internet hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan raqamli missionerlik xavfi juda yuqori. Ammo bizni tashvishga soladigan jihati hali mafkuraviy immuniteti shakllanmagan, axborot bilan ishlash madaniyatiga ega bo'lmagan yoshlar missionerlarning makkorona tuzog'iga tezda ilinayotgani namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, bir mintaq hududida joylashgan davlatlar o'rtasida xavfsizlik sohasida mustahkam aloqalarning yo'lga qo'yilmagan ushbu davlatlarda notinchlik harakatlarini sodir etishga yoki bunday buzg'unchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga imkon beruvchi sharoitlarni yuzaga keltirishi oydinlashdi[11].

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali inson qalbi va ongiga ta'sir ko'rsatuvchi dezinformatsion ma'lumotlarni tarqatish ijtimoiy tarmoqlarda u yoki bu g'oyalarni targ'ib etish orqali foydalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish oddiy holga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy

tarmoq foylanuvchilarini dezinformatsion, ya'ni yolg'on ma'lumotlar asosidagi din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga da'vat etish tobora kuchayayotgani, afsuski, tashvishlanarli holdir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Rasmiy ma'lumotlardan chalg'itish maqsadida fuqarolarga davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarga nisbatan teskari kayfiyatni shakllantirish, davlat – hokimiyat – fuqaro o'rtasidagi yaxlit tizimni buzishga urinish holatlarining kuchayayotganligi insonlar o'rtasida qo'rquv, sarosima, vahima tuyg'ularini uyg'otishga zamin yaratmoqda. Bunga misol tariqasida yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan ma'lumotga e'tibor qaratilsa, masalaga bo'lgan yondashuvga yanada aniqlik kiritishini anglash mumkin. Isroil poytaxti Tel-Avivdan chiqayotgan "News" gazetasining bir sahifasida: "Nima qilsak Islom dinining muvozanatini yo'qotamiz, qanday qilib Islom dinidan ustunlik qila olamiz" degan mavzuda maqola chiqarilgan. Unda quyidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan: Yahudiylarning diniy olimlaridan biri Xenri Lyunar bunday deydi: "Biz musulmonlarning o'rtasiga nizo solib, Islom dinini kuchsizlantirish maqsadida WhatsAppdan foydalanamiz. Ubizga yordamchi bo'lib, tun-u kun xizmat qiladi. Biz bunday SMS xabarlarini, yer yuzidagi musulmonlarning ko'pchiligi muloqot qiladigan: arab, turk, hind, fors yana undan boshqa ko'plab tillarda yozib tarqatamiz. Musulmonlar bunday SMSlarga yanada ishonishlari uchun Qur'on oyatlaridan, sahih hadislarni, yer yuzida taniqli bo'lgan olimlarning so'zlaridan qo'shib, eng oxiriga: bu xabarni 10 kishiga yoki undan ko'p kishiga yuboring. Agar 10 kishiga yuborsangiz, 15 daqiqadan keyin, o'sha kuni, bugun yoki bir haftadan keyin bir karomat ko'rasiz, bu tajribada qo'llanilgan, ishonchlidir. Shu tariqa, "yuborganlar tan oladigan karomatlarga uchraganlar, jo'natmaganlar esa balolarga uchradilar" – deya yozib qo'yamiz. SMS xabarlarda yozilgan vaqtlar o'tganidan so'ng musulmonlar hech qanday karomat ko'rmaganlaridan keyin hech qanday o'zgarish bo'lmaganini tushunishadi. Bundan esa Alloh, Allohning Rasuli (s.a.v.) va yana olim degan so'zlarni oddiy ertak qatori qabul qilib, ularning so'zlarini yolg'on deb

tushuna boshlaydilar. Vaqtlar o'tishi bilan biz yuborgan SMS xabarlarimizning qayta-qayta yuborilishi bilan musulmonlarning iymonlari zaiflashib, dinga bo'lgan ishonchlari so'na boshlaydi. Mana shu yo'l orqali biz ularni o'z diniga bo'lgan ishonchidan yuz o'girishga, diniga bo'lgan ishonchi to'g'risida ikkilanib qolishiga, aqidaviy ishonchlarining buzilishiga olib boramiz. Shunday qilib, ular din degan narsani yolg'on-aldov deb tushunib qolishadi. Natijada biz musulmonlardan to'lig'icha ustunlik qilamiz"[12]. Shu o'rinda mazkur makkor usuldan ko'zlangan maqsad fuqarolarda o'z diniy e'tiqodiga nisbatan shubha uyg'otish orqali ishonchsizlikni keltirib chiqarish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardan qurol sifatida foydalanilayotganini anglash qiyin emas.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Bu haqda tadqiqotchi U.Yazdanov qayd etganidek, "XXI asr axborot almashinuvining xilma-xilligi, g'oyaviy-mafkuraviy poligonlarning keskinlashuvi, bir so'z bilan aytganda, inson ongiga hukmronlik uchun kurash kechayotgan davr sifatida tarixda qolmoqda. Bu davrda milliy xavfsizlik, madaniyat va ma'naviyatni saqlab qolish o'z kelajagini o'ylaydigan har bir xalq uchun bosh omil darajasida qaralishi shart"[13]. Zero, bugungi globallashuv shiddati, g'oyaviy, mafkuraviy, axborot xurujlari o'ta xatarli va nozik tus olgan bir vaziyatda ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy tarbiya dolzarb masalaga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz"[14]. Zero, azaldan ma'lumki, insoniyat taraqqiyotida qachonki beparvolik va loqaydlik hukm sursa, shu bilan birga eng dolzarb muhim masalalar o'z holiga tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanishi oqibatida ma'naviy tubanlik illatlari tobora avj olishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Ogohlik va hushyorlik tamoyillari. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2008. – B. 205.
2. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. <http://uza.uz/oz/politics/konstitutsiya-va-onun-ustuvorligi-u-u-iy-demokratik-davlat-v-07-12-2019>.
3. G'oyibnazarov Sh. Islom terrorizmga qarshi. Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 2021. – B.229.
4. Оразбаева Г.К. президент ОФ РИКЦ «Сана» К проблеме миссионерской деятельности в РК. vp.akmol.kz/home/relig_101.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B.15.
6. Digital 2022: Another year of bumper growth // <http://wearesocial.com/blog/2019/01/digital-2019-global-internet-use-accelerates>.
7. Richard J. Krejcir Internet Evangelism?//.
8. Журенков К. Internetукус - заразный // Психология зависимости. – Минск: Харвест, 2004, - Б. 135-151.
9. Фалендыш Е. Интернет Евангелизм? (Часть 1) // <http://bogblagodat.pp.ua/article/internet-evangelizm-2.html>
10. 2020-yilda O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 22,5 million kishiga yetgan. “Yangi O'zbekiston” gazetasining sayti -<https://yuz.uz/news/2020-yilda-ozbekistonda-internetdanfoydalanuvchilar-soni-225-million-kishiga-etgan?>.
11. Mustafoev M, Bozorova G. Xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda BMTning roli va yangi tahdidlar. Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. 2016. - №3. – B. 34-35.
12. <https://qrator.net/ru/>
13. Yazdanov U. Jamoatchilik fikrini transformatsiya qilish imkoniyatlari//. – Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2017. - № 2. – B. 79.
14. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 268.

KONSTITUTSIYA – XALQIMIZNING ERKIN VA ADOLATLI HAYOTI POYDEVORI

QOLQANOV

*Nuriddin Toshpulatovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent,
2-darajali yurist*

NISHONOVA

*Nigora Batirovna,
X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi
Sud-lingvistik-psixologik ekspertiza
bo'limi boshlig'i*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining huquqiy-demokratik davlat barpo etishdagi ahamiyati va inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlashdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Asosiy qonunning siyosiy tizim barqarorligi, hokimiyatlar bo'linishi, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, ijtimoiy davlat modeli va ma'naviy-ruhiy birlikni mustahkamlashdagi roli ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati, ular orqali jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga mos yangi huquqiy mexanizmlarning joriy etilgani talqin qilinadi. Maqola Konstitutsiyaning O'zbekiston Respublikasi siyosiy-huquqiy taraqqiyoti va xalqning erkin, adolatli hayotini ta'minlashdagi strategik ahamiyatini chuqur o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, demokratiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy davlat, konstitutsiyaviy islohotlar, kuchlar bo'linishi, ma'naviyat, davlat boshqaruvi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается значение Конституции Республики Узбекистан в контексте 33-летнего развития государства и общества. Анализируется ее роль в построении демократического и правового государства, обеспечении верховенства прав человека и формировании устойчивой политической системы. Особое внимание уделяется принципу разделения властей, развитию институтов гражданского общества, укреплению социального государства и духовно-нравственных основ общества. Исследуется содержание конституционных реформ 2023 года и их вклад в модернизацию правового механизма страны. Статья направлена на глубокое изучение стратегической роли конституции в обеспечении свободной и справедливой жизни граждан Республики Узбекистан.

Ключевые слова: конституция, права человека, демократия, правовое государство, гражданское общество, социальное государство, конституционные реформы, разделение властей, духовность, государственное управление.

ANNOTATION

This article examines the significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan within the 33-year trajectory of national state-building and societal transformation. It explores the Constitution's role in establishing a democratic and rule-of-law-based state, ensuring the supremacy of human rights, and shaping a stable political system. Particular attention is given to the principles of separation of powers, the development of civil society institutions, the formation of a social state, and the consolidation of the nation's moral and spiritual foundations. The study also analyzes the 2023 constitutional reforms and their contribution to modernizing the country's legal and governance mechanisms. The article highlights the strategic role of the Constitution in ensuring a free, just, and dignified life for the people of Uzbekistan.

Key words: Constitution, human rights, democracy, rule of law, civil society, social state, constitutional reforms, separation of powers, spirituality, public governance.

Konstitutsiya erkin va adolatli hayotning asosidir, chunki u inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlaydi va kafolatlaydi, davlatning faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy asoslarini belgilaydi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. U milliy huquqiy tizimni, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shu bilan birga mulkchilikning barcha shakllarini huquqiy himoya qilish va iqtisodiy faoliyat erkinligini ta'minlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Konstitutsiyamiz mamlakatimizda milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, islohotlarimizning ortga qaytmas tus olishini ta'minlashda doimo ishonchli kafolat bo'lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo'lib qoladi"¹.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganiga 33 yil to'lishi nafaqat muhim tarixiy sana, balki mamlakatimizning davlat va jamiyat qurilishi yo'lidagi chuqur o'zgarishlarni ilmiy asosda qayta baholash imkonini beradigan davr bosqichidir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya xalqimizning suveren davlat barpo etish, inson huquqlarini ta'minlash va adolatli jamiyat qurish yo'lidagi qat'iy siyosiy irodasining huquqiy ifodasidir. Asosiy qonun nafaqat davlatning huquqiy asosini, balki jamiyatning ma'naviy-siyosiy poydevorini ham belgilab berdi. Bugun Konstitutsiya mamlakatimiz taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati shakllanishi va islohotlar chuqurlashuvi jarayonida hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Konstitutsiyaning ilmiy-huquqiy mohiyatida eng avvalo **inson huquqlarining ustuvorligi** tamoyili turadi. Zamonaviy konstitutsiyaviy huquq nazariyasiga ko'ra, demokratik davlatning asosiy vazifasi insonning sha'ni, erkinligi va qadriyatlarini himoya qilishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ushbu yondashuv to'laqonli aks etgan: jumladan, asosiy

¹ O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi // <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/2434>



qonunning ikkinchi bo'limida shaxs daxlsizligi, fikr va so'z erkinligi, mulk huquqi, vijdon erkinligi, gender tengligi, ijtimoiy himoya kabi universal huquqlar xalqaro normalarga mos tarzda kafolatlangan². Bu jihat mamlakatning insonparvar-demokratik taraqqiyot yo'lini tanlaganidan dalolat beradi.

Konstitutsiyaning 33 yillik evolyutsiyasi davomida uning mazmuni jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga mos ravishda takomillashib bordi. Ayniqsa, 2023-yilgi konstitutsiyaviy o'zgartirishlar siyosiy-huquqiy tizimni zamonaviy talablar asosida qayta takomillashtirish jarayonida muhim bosqich bo'ldi. Yangilangan Konstitutsiya "inson qadri" tamoyilini davlat siyosatining bosh mezoni sifatida belgilab, ijtimoiy davlat g'oyasini mustahkamladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy, mehnat munosabatlari, ijtimoiy himoya kabi yo'nalishlar bo'yicha kafolatlar kengaytirildi. Bu esa davlatning fuqarolar oldida mas'uliyatini kuchaytirib, jamiyatda adolat, ishonch va barqarorlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiyaning davlat boshqaruvi tizimidagi ahamiyati ham ilmiy tadqiqotlar uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Undagi hokimiyatlar bo'linishi prinsipi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimlarining o'zaro muvozanati – samarali

boshqaruvning zamonaviy modelini yaratishga xizmat qilmoqda. Bu tizim davlat hokimiyatining cheklanishi, shaffoflik, mas'uliyat va jamoatchilik nazoratining huquqiy kafolatiga aylanadi. Mamlakatimizda keyingi yillarda sud tizimini mustaqil qilishga yo'naltirilgan islohotlar, parlament va jamoatchilik institutlarining faoliyati kuchaygani ana shu konstitutsiyaviy prinsiplarning amaliy natijasidir.

Konstitutsiya, shuningdek, davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi mafkuraviy qoidalarni ham belgilaydi. Unda milliy g'oya, tarixiy xotira, ma'naviyat va ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni mustahkamlangan. Huquqshunos va siyosatshunos olimlarning ta'kidlashicha, konstitutsiyaning ma'naviy funksiyasi jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida har qanday davlat tuzilmasini mustahkamlovchi ruhiy asosni yaratadi. Shu ma'noda, O'zbekiston Konstitutsiyasi nafaqat huquqiy hujjat, balki ma'naviy birlik, milliy o'zlik va Vatanga muhabbat g'oyalarining ham huquqiy katalizatoridir.

Huquqiy davlat qurish jarayonida Konstitutsiyaning bosh vazifalaridan biri – fuqarolik jamiyatini shakllantirishdir. So'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik kengashlari va fuqarolar yig'inlari faoliyatining kengayishi konstitutsiyaviy tamoyillarning amalda namoyon bo'layotganidan

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. 9–24-betlar.

darak beradi. Bu jarayon davlatning jamiyat bilan hamkorlikda ishlash, fuqarolarning tashabbusini qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazoratini institutsionallashtirishga intilayotganini ko'rsatadi.

Konstitutsiya xalqaro maydonda ham O'zbekistonning demokratik qiyofasini belgilab, mamlakatimizning xalqaro huquqiy majburiyatlarini bajarishdagi strategik yo'nalishini aniq belgilaydi. Xalqaro inson huquqlari institutlari, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari bilan hamkorlik aynan konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanadi. Bu O'zbekistonning jahon hamjami-

yatidagi nufuzini oshirib, ishonchli va ochiq davlat sifatida e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda.

Yakuniy xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Konstitutsiyaning 33 yilligi – bu o'tgan tarixiy yo'lga nazar tashlash bilan birga, yangi taraqqiyot bosqichiga dadil kirish jarayonidir. Asosiy qonun – davlatning huquqiy asosi, jamiyatning ma'naviy ustuni, fuqarolarning erkin va adolatli hayotining kafolatidir. Bugun Konstitutsiya jamiyatning barcha sohalarida, har bir islohotning markazida turmoqda. Demak, uni chuqur anglash, unga sodiq bo'lish va unga amal qilish – nafaqat davlat organlari, balki har bir fuqaroning burchidir.



ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Konstitutsiya – bu demokratiya, demokratiya – bu mas'uliyat demakdir // <https://xs.uz/uzkr/post/konstitutsiya-bu-demokratiya-demokratiya-bu-masuliyat-demakdir>
3. Konstitutsiyaviy huquq. Entsiklopedik lug'at // <https://lex.uz/dictionary?word=%D0%90%D0%A1%D0%9E%D0%A1%D0%98%D0%99%D0%B2%D0%A3%D0%9A%D0%A3%D0%9A%D0%92%D0%90%D0%AD%D0%A0%D0%9A%D0%98%D0%9D%D0%9B%D0%98%D0%9A%D0%9B%D0%90%D0%A0>

**O'ZBEKISTONDA
IJTIMOIY SIYOSATNING
IZCHIL RIVOJLANISHI –
MANZILLI
QO'LLAB-QUVVATLASH
MEXANIZMI MISOLIDA
BOLALAR KELAJAGIGA
INVESTITSIYA QILISH
MASALALARI**

SAPARBAYEV

*Rustam Tursinbayevich,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti
“Siyosatshunoslik va ma’naviyat
asoslari” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasida so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat islohotlari, xususan, kambag'allikka qarshi kurash, yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga manzilli yordam ko'rsatish sohasidagi izchil chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun joriy etilgan depozit hisobraqamlari amaliyoti inson kapitaliga qaratilgan adresli ijtimoiy investitsiya shakli sifatida ilmiy jihatdan baholanadi. Maqolada mazkur yondashuv ijtimoiy siyosatning istiqboldagi tabiiy rivojlanish yo'nalishlaridan biri ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy siyosat, adresli qo'llab-quvvatlash, inson kapitali, bolalar siyosati, kambag'allikka qarshi kurash, ijtimoiy investitsiya.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются реформы социальной политики, реализуемые в Республике Узбекистан в последние годы, в том числе последовательные меры по борьбе с бедностью, поддержке молодежи и женщин, а также оказанию адресной помощи социально уязвимым слоям населения. С научной точки зрения рассматривается внедрённая практика депозитных счетов для детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, которая оценивается как форма адресных социальных инвестиций, направленных на развитие человеческого капитала. Обосновывается, что данный подход является одним из перспективных направлений эволюции социальной политики.

Ключевые слова: социальная политика, адресная поддержка, человеческий капитал, детская политика, борьба с бедностью, социальные инвестиции.

ANNOTATION

The article analyzes the reforms of social policy implemented in the Republic of Uzbekistan in recent years, in particular, consistent measures to combat poverty, support youth and women, and provide targeted assistance to socially vulnerable segments of the population. Also, the practice of deposit accounts introduced for orphans and children left without parental care is scientifically assessed as a form of targeted social investment aimed at human capital. The article substantiates that this approach is one of the directions of natural development of social policy in the future.

Key words: social policy, targeted support, human capital, children's policy, poverty reduction, social investment

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar va izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatda ijtimoiy siyosatni takomillashtirish masalasi davlat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Aholining turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda joriy etilmoqda.

Bu jarayonda inson manfaatlari va ijtimoiy himoyani ta'minlash davlat siyosatining markaziga qo'yildi. Jumladan, yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston "suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"¹ ekani mustahkam belgilab qo'yildi. Mazkur konstitutsiyaviy norma ijtimoiy siyosatni davlat boshqaruvining muhim institutsional yo'nalishi sifatida rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy siyosatda manzilli yondashuv davlat resurslarini eng muhtoj aholi qatlamlariga samarali yo'naltirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va aholining davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ijtimoiy yordamning umumiy va noaniq taqsimotidan voz kechib, real ehtiyojlar asosida aniq guruhlar bilan ishlashni nazarda tutadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ijtimoiy himoya tizimini tubdan takomillashtirish doirasida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi joriy etildi. Mazkur tizim orqali aholining ijtimoiy himoyaga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash, ijtimoiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.4.

xavf guruhlarini identifikatsiya qilish hamda ularga manzilli yordam ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Reyestr tizimi aholining daromadlari, bandlik holati, oilaviy tarkibi va yashash sharoitlari kabi ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" nafaqat ijtimoiy yordam oluvchilarni aniq va shaffof ro'yxatga olish, balki davlat budjeti mablag'laridan oqilona va tejankor foydalanishni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali ijtimoiy yordamning takrorlanishi, noto'g'ri manzillarga yo'naltirilishi yoki suiiste'mol qilinishi xavfi kamayadi. Shu bilan birga, tizim ijtimoiy siyosatda raqamlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tamoyillarini joriy etishga xizmat qiladi.

Manzilli qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligi bir qator fundamental tamoyillarga tayanadi. Xususan, ushbu yondashuv quyidagi asosiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

- muhtojlik darajasini aniq va xolis baholash, bunda ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasidan foydalanish;
- yordamning o'z vaqtida, uzluksiz va yetarli miqdorda taqdim etilishi orqali ijtimoiy xavflarning oldini olish;
- yordamning vaqtincha yoki doimiy xarakterga egaligini aniqlash hamda shaxsning mustaqil daromad topish salohiyatini hisobga olish;
- himoya qilinuvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini muntazam monitoring qilish va baholash orqali ijtimoiy siyosat choralari moslashtirib borish.

Umuman olganda, adresli yondashuv ijtimoiy siyosatda faqat yordam ko'rsatish vositasi emas, balki kambag'allikni qisqartirish, inson kapitalini rivojlantirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni²da ijtimoiy siyosatning manzilli, samarali va inson manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lishi alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mazkur farmon ijtimoiy sohadagi islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish,

aholining ijtimoiy himoyaga bo'lgan real ehtiyojlarini hisobga olgan holda adresli yondashuvni kengaytirishga qaratilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi.

Farmonda belgilangan vazifalar doirasida O'zbekistonda 2022-yildan boshlab yetim bolalar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus depozit hisobraqamlarini ochish amaliyoti joriy etildi. Ushbu mexanizmga ko'ra, har bir mazkur toifadagi bola uchun davlat tomonidan belgilangan mablag' tijorat banklarida ochilgan individual depozit hisobraqamlariga joylashtiriladi hamda bola voyaga yetguniga qadar, ya'ni 18 yoshga to'lgunicha jamg'arib boriladi. Jamg'arilgan mablag'lardan bola voyaga yetgach ta'lim olish, kasb-hunar egallash, uy-joy masalasini hal etish yoki boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega ehtiyojlarni qondirish maqsadida foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur amaliyot o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy siyosatda yangi va innovatsion yondashuv sifatida quyidagi asosiy jihatlari bilan ajralib turaadi. Birinchidan, bu manzilli yordam shakli bo'lib, yordam faqatgina aniq belgilangan ijtimoiy guruh – yetim va ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga yo'naltirilgan. Bu esa ijtimoiy resurslarning adolatli va maqsadli taqsimlanishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ushbu mexanizm uzoq muddatli yondashuvga asoslangan bo'lib, mablag'lar bir martalik yordam sifatida emas, balki vaqt davomida jamg'ariladi. Bu holat bolalarning kelajakda iqtisodiy mustaqil hayot boshlashlari uchun zarur moliyaviy zamin yaratadi hamda ularni ijtimoiy xavf-xatarlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, mazkur tizim davlatning bolalar kelajagi uchun mas'uliyatini yaqqol namoyon etadi. Davlat bu orqali nafaqat qisqa muddatli ijtimoiy yordam ko'rsatish, balki moliyaviy instrumentlar orqali bolalarning uzoq muddatli farovonligini ta'minlashga intilayotganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, mazkur amaliyotni inson kapitaliga qaratilgan strategik investitsiya sifatida baholash mumkin. Jamg'arilgan mablag'lar bolaning ta'limi, sog'lig'i va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilishi uning kelajakdagi mehnat unumdorligi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatdagi muvaffaqiyatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan inson kapitali tushunchasi iqtisodiy nazariyaning eng muhim yu-

² Qarang: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

tuqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tushuncha insonning bilimi, kasbiy ko'nikmalari, sog'lig'i va boshqa shaxsiy resurslari majmui sifatida talqin qilinadi. Inson kapitali konsepsiyasi XX asrning 1960-yillarida amerikalik iqtisodchilar Geri Bekker va Teodor Schults tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, iqtisodiy o'sishning asosiy manbai moddiy kapital emas, balki inson kapitalining rivojlanish darajasidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, O'zbekistonda bolalarga qaratilgan depozit tizimi nafaqat ijtimoiy himoya chorasi, balki mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Bekker o'zining "Inson kapitali" (1993) asarida ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, sog'liqni saqlashga qo'yilgan investitsiyalarning uzoq muddatli iqtisodiy samarasini matematik modellar asosida isbotladi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarning umr bo'yi daromadi o'rta ma'lumotli shaxslarnikiga qaraganda 60–80% yuqori bo'ladi.

Shults esa "Inson kapitaliga investitsiya" (1961) nomli maqolasida qishloq xo'jaligida hosildorlikning oshishi asosan fermerlarning bilim darajasi va yangi texnologiyalarni qo'llash qobiliyati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. U ta'limga qo'yilgan har bir dollar investitsiya iqtisodiyotga 3–5 dollar miqdorida qaytishini hisoblab chiqdi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga investitsiya qilishning eng samarali davri bolalikdir. Xususan, erta bolalik davri (0–5 yosh) inson rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu davrda miya rivojlanishining 90% yakunlanadi, asosiy kognitiv va hissiy qobiliyatlar shakllanadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, bolalik davrida yuzaga keladigan yetishmovchiliklar – xususan, to'g'ri oziqlanishning ta'minlanmasligi, sog'liqni saqlash xizmatlaridan cheklangan foydalanish hamda sifatli ta'limga yetarli darajada jalb etilmaslik – inson hayotining keyingi bosqichlarida jiddiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xususan, bunday yetishmovchiliklar natijasida:

- kognitiv qobiliyatlar darajasi o'rtacha **20–30 foizga pasayadi;**
- mehnat unumdorligi **15–25 foizga kamayadi;**

- o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **5–10 yilga qisqaradi;**

- surunkali (kronik) kasalliklarga chalinish ehtimoli **2–3 baravar ortadi.**

Mazkur ko'rsatkichlar bolalik davrida inson kapitaliga yetarli e'tibor qaratilmasligi nafaqat individual darajada, balki jamiyat va milliy iqtisodiyot miqyosida ham uzoq muddatli salbiy oqibatlar keltirib chiqarishini ko'rsatadi.

Aksincha, erta bolalik davriga yo'naltirilgan sarmoyalar ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekani ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Jumladan, bolalik davrida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga investitsiya kiritish quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlaydi:

- maktabga tayyorgarlik darajasi **40–60 foiz oshadi;**

- oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinish imkoniyati **2 baravar ko'payadi;**

- kelajakda o'rtacha daromad darajasi **25–50 foiz yuqori bo'ladi;**

- ijtimoiy mobillik, ya'ni shaxsning jamiyatda yuqoriroq ijtimoiy maqomga erishish imkoniyati sezilarli darajada oshadi.

Bu holatlar inson kapitaliga qaratilgan siyosatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish yo'lidagi amaliy natijalar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon inson kapitalini rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi o'n yil ichida ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida amalga oshirilgan tizimli islohotlar sezilarli natijalar berdi.

Ta'lim sohasida:

- maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 2015-yildagi 35 foizdan 2023-yilda 68 foizga oshdi;

- maktab o'quvchilarining xalqaro PISA baholash dasturidagi o'rtacha natijalari 30 foizga yaxshilandi;

- oliy ta'lim muassasalari soni 2 baravar, talabalar soni esa 3 baravar oshdi, bu esa oliy ta'limga kirish imkoniyatlarini sezilarli kengaytirdi.

Sog'liqni saqlash sohasida:

- bola o'limi darajasi 1000 tirik tug'ilganda 34 tadan 12 tagacha kamaydi (2000–2023);

- 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'tkir o'pka yallig'lanishi bilan kasallanish holatlari 60 foiz qisqardi;

- bolalar immunizatsiyasi qamrovi 85 %dan 97 %ga oshdi, bu esa yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo'ldi.

Ijtimoiy himoya sohasida:

- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali 2,5 milliondan ortiq oila manzilli ijtimoiy yordam bilan qamrab olindi;

- nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus dasturlar soni 3 baravar ko'paydi;

- institutsional parvarish shakllari qisqartirilib, bolalar uylari o'rniga oilaviy bolalar uylari va homiylik tizimlari joriy etildi, bu esa bolalarning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy rivojlanishi uchun qulayroq muhit yaratdi.

Keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan siyosat izchil va kompleks xarakterga ega bo'lib, u bolalik davridan boshlab uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy samaralarni ta'minlashga yo'naltirilgan. Erta bolalik davriga investitsiya kiritish nafaqat ijtimoiy himoya chorasi, balki mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bolalar depozitlari tizimi va inson kapitali nazariyasi: O'zbekiston tajribasi.

O'zbekistonda joriy etilgan bolalar depozitlari tizimi mazmun-mohiyatiga ko'ra inson kapitali nazariyasining asosiy tamoyillariga to'liq mos keladi. Mazkur mexanizm davlat ijtimoiy siyosatida qisqa muddatli yordamdan uzoq muddatli strategik investitsiyaga o'tishning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

1. Uzoq muddatli investitsiya tamoyili.

Bolalar uchun ochiladigan depozit hisob raqamlaridagi mablag'lar 18 yil davomida jamg'ariladi. Bu esa an'anaviy ta'lim investitsiyalari (odatda 4-5 yil) bilan solishtirganda ancha uzoq muddatli davrni qamrab oladi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra, uzoq muddatli investitsiyalar qisqa muddatli investitsiyalarga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy va ijtimoiy daromad keltiradi. Ushbu yondashuv bolaning hayotga tayyorgarlik bosqichlarini to'liq qamrab olish imkonini beradi.

2. Kompleks yondashuv.

Depozit mablag'laridan foydalanish doirasi faqat ta'lim bilan cheklanmaydi. Mablag'lar turar joy sotib olish, kasb-hunar egallash, kichik biznes boshlash yoki boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega ehtiyojlarga yo'naltirilishi mumkin. Bu inson kapitalining turli komponentlari – bilim, salomatlik, kasbiy ko'nikmalar va moddiy barqarorlikni bir vaqtda rivojlantirish imkonini yaratadi.

3. Shaxsiylashtirilgan yondashuv.

Har bir bola uchun alohida depozit hisob-raqamining ochilishi mablag'larning shaxsiy ehtiyojlar asosida sarflanishini ta'minlaydi. Bu resurslardan foydalanishda manzillilik va samaradorlikni oshiradi, shuningdek, individual rivojlanish trayektoriyasini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

4. Davlat va jamiyatning qo'shma investitsiyasi.

Dastlabki mablag'lar davlat tomonidan ajratilishi bilan birga, keyinchalik oila a'zolari, qarindoshlar yoki xayriya tashkilotlari tomonidan hisobni to'ldirish imkoniyati mavjud. Bu davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik modelini aks ettiradi hamda ijtimoiy mas'uliyatni kengaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil.

O'zbekiston bolalar depozitlari dasturi xalqaro amaliyotda mavjud bo'lgan bir qator modellar bilan uyg'unlikka ega.

Singapur tajribasida 2005-yildan joriy etilgan *Edusave* hisoblari har bir o'quvchining ta'lim xarajatlarini qoplashga qaratilgan bo'lib, natijada oliy ma'lumotli yoshlar ulushi 40 foizdan 60 foizga oshgan.

Quvaytda 1976-yildan amal qilayotgan bolalar jamg'armasi orqali mablag'lar 21 yoshga to'lgach taqdim etiladi va bu mamlakatda uy egaligi darajasining sezilarli oshishiga olib kelgan.

Buyuk Britaniyada 2002–2011-yillarda amal qilgan *Child Trust Fund* dasturi ishtirokchilarining 65 % mablag'larni ta'lim yoki kasb o'rganishga sarflagani qayd etilgan.

O'zbekiston modeli ushbu tajribalarni hisobga olgan holda mahalliy iqtisodiy va ijtimoiy sharoitga moslashtirilgan. Asosiy farq shundaki, dastur faqat ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga qaratilgan bo'lib, resurslarning eng zaif guruhlariga yo'naltirilishini ta'minlaydi.

Uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik.

Bolalar depozitlari dasturining uzoq muddatli samaradorligini quyidagi omillar asosida baholash mumkin.

To'g'ridan to'g'ri iqtisodiy foyda:

- har bir bola uchun ajratilgan o'rtacha 10 million so'm 18 yil davomida jamg'arilib, inflyatsiya hisobga olinganda 25–30 million so'mga yetishi mumkin;

- ta'limga sarflangan mablag' bolaning kelajakda 2-3 baravar yuqori daromad olishiga imkon yaratadi;

- xalqaro hisob-kitoblarga ko'ra inson kapitaliga kiritilgan har bir dollar 18–25 yil ichida 4–7 dollar miqdorida qaytib keladi.

Bilvosita iqtisodiy foyda:

- ijtimoiy yordam, tibbiy va huquqni muhofaza qilish xarajatlarining kamayishi;

- mehnat unumdorligining oshishi;

- innovatsion va texnologik rivojlanishning tezlashishi;

- soliq tushumlarining ko'payishi.

Ijtimoiy foyda:

- ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar ta'minlanishi;

- kambag'allik darajasining qisqarishi;

- aholi turmush darajasining oshishi;

- ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik birdamligining mustahkamlanishi.

Bolalar uchun depozit tizimi O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi. Ushbu mexanizmga nafaqat qisqa muddatli yordam, balki uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida qaralishi lozim. Bolalik davrida inson kapitaliga yo'naltirilgan sarmoyalar kelajakda barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir.

Shu bois O'zbekistonda boshlangan manzilli yondashuvlarni izchil davom ettirish, ularning qamrovini kengaytirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda monitoring va baholash tizimlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur tashabbuslar nafaqat milliy miqyosda, balki xalqaro maydonda ham O'zbekistonning ijtimoiy siyosat sohasidagi ilg'or va samarali tajribasi sifatida e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
3. Becker G. Human Capital. Chicago, 1993.
4. World Bank. Investing in Early Childhood Development. – Washington, 2020.
5. Shults T. Investment in Human Capital. The American Economic Review, 1961.
6. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya agentligining ma'lumotlari va hisobotlari.
7. Jahon banki va BMTning ijtimoiy rivojlanish bo'yicha hisobotlari.
8. O'zbekiston statistika qo'mitasining demografik va ijtimoiy ko'rsatkichlari. 2020.

GLOBAL MENEJMENTDA INQIROZLI VAZIYATLARNI BOSHQARISH USULLARI

G'OFURJONOV

*Axadjon Xamidjon o'g'li,
"O'zavtosanoat" aksiyadorlik
jamiyati Ma'muriyat va hujjatlar
ijrosi nazorati boshqarmasi
bosh mutaxassisi, 2-darajali yurist,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik
oliy maktabi tinglovchisi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada global menejment kontekstida inqirozli vaziyatlarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, kompaniyalar misolidagi amaliy tajribalar, xavf tahlili metodlari, shuningdek, boshqaruv qarorlarining samaradorlik ko'rsatkichlari o'rganiladi. Mazkur maqolada sifat tahlili, adabiyotlar sharhi, korporativ hisobotlarni tahlil qilish va taqqoslash metodlaridan foydalanildi.

Kalit so'zlar: global menejment, inqiroz, inqiroz boshqaruvi, xavf tahlili, global kompaniyalar, barqarorlik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются современные подходы к управлению кризисными ситуациями в контексте глобального менеджмента, анализируется практический опыт компаний, применяемые методы оценки и анализа рисков, а также показатели эффективности управленческих решений. В исследовании использованы методы качественного анализа, обзора научной литературы, а также анализа и сопоставления корпоративной отчетности.

Ключевые слова: глобальный менеджмент, кризис, кризисное управление, анализ рисков, глобальные компании, устойчивость.

ANNOTATION

This article examines modern approaches to crisis management in the context of global management, practical experience using companies as examples, risk analysis methods, as well as performance indicators of management decisions. In this article, methods of qualitative analysis, literature review, analysis and comparison of corporate reports were used.

Key words: global management, crisis, crisis management, risk analysis, global companies, sustainability.

Kirish. Mavzuning dolzarbligi va asoslanishi. XXI asr global iqtisodiyotida inqirozli vaziyatlar – pandemiya(COVID-19), mintaqaviy qurolli to'qnashuvlar, global inflyatsiya, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, texnologik xavfsizlik tahdidlari, ekologik falokatlar – korporativ boshqaruvning asosiy muammolaridan biriga aylandi. Deloitte (*dunyodagi eng yirik professional xizmatlar ko'rsatuvchi, xususan, auditorlik, konsalting, soliq va yuridik xizmatlar, risklarni boshqarish, moliyaviy maslahatlar beruvchi kompaniya*) 2023-yilgi global menejment tahliliga ko'ra, yirik kompaniyalarning 74 foizi har yili o'rtacha ikki va undan ortiq inqiroz holatini boshdan kechiradi. Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) ma'lumotlariga ko'ra, inqirozlar kompaniyalarning o'rtacha yillik daromadi 18–35 % gacha kamayishiga sabab bo'ladi.

Shunday sharoitda inqirozli vaziyatlarni boshqarish (crisis management) global menejmentning strategik yo'nalishiga aylanib bormoqda. Inqirozlarni to'g'ri boshqarish kompaniyaning raqobatbardoshligi, barqarorligi va reputatsiyasini belgilovchi omilga aylandi.

Avstraliyalik mashhur olim, zamonaviy Boshqaruv (menejment) fanining asoschilaridan biri bo'lgan Piter Druker kompaniyalar uchun “Inqiroz–bu xavfemas, balki to'g'ri qarorlar uchun imkoniyatdir” deya ta'kidlagan. Shuningdek, yana bir olim Genri Minsberg “Menejning haqiqiy sinovi – bu inqiroz paytida tashkilotni barqaror boshqarish qobiliyatidir” deya urg'ulagan. Bundan tashqari, bugungi kundagi olimlar ham mazkur sohada izlanishlar olib borishgan, xususan, Amy C.Edmondson “Inqiroz vaqtida tashkilotning ustunligi – bu xatolardan qo'rqmay, ulardan o'rganish qobiliyatidir” deb ta'riflagan bo'lsa, Daniel Goleman “Inqirozlarni boshqarish – bu avvalo o'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan rahbarlar qo'lida” deb ta'riflagan. Ko'rinib turibdiki, inqiroz kompaniyaning cho'kishini emas, balki yuqoriga qarab o'sishi uchun zamin bo'lishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – global menejmentda inqirozlarni boshqarish usullarini tizimli o'rganish va yirik xalqaro kompaniyalar tajribasi asosida samarali mexanizmlarni taklif qilishdan iborat.

Ushbu maqola global menejmentda inqiroz boshqaruvi amaliyotlarini tizimli tahlil qiladi va boshqaruvchilarga amaliy, testdan o'tgan instrumentlar hamda strategiyalarni taklif etadi.

Inqiroz boshqaruviga oid adabiyotlarda odatda ikki asosiy an'anaviy yondashuv ajralib turadi: *reaktiv* (voqea sodir bo'lgach javob berish) va *proaktiv* (oldini olish va tayyorgarlik). Zamonaviy tadqiqotlar esa ushbu yondashuvlarni birlashtirib, “moslashuvchanlik” va “oqilona qat'iylik”ni ta'kidlaydi – ya'ni tashkilotlar bir tomondan qat'iy protseduralarga ega bo'lishi, boshqa tomondan esa o'zgaruvchan sharoitga tez moslasha olishi lozim.

Raqamli transformatsiya va “big data” inqirozlarni erta aniqlashda muhim rol o'ynamoqda: real-vaqt monitoringi, turli xil noaniqliklarni aniqlash va avtomatlashtirilgan ogohlantirish tizimlari samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, madaniyatlararo kommunikatsiya va liderlik yondashuvlari – inqiroz davrida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi ham mumkin.

Inqiroz turlari va ularning global menejmentga ta'siri.

Texnologik inqirozlar – texnika, axborot tizimlari yoki ishlab chiqarish texnologiyalarining to'satdan ishdan chiqishi tufayli yuzaga keladigan muammolar. Bunday holatlar global boshqaruvda ishlab chiqarish jarayonlari va raqamli xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy inqirozlar – iqtisodiy barqarorlik buzilib, bozorlar ishonchi pasayishi, valyuta va aktivlar qiymati tushib ketishi bilan bog'liq holatlar. Ular xalqaro savdo va investitsiyalarga kuchli salbiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiy inqirozlar – jamiyatdagi tengsizlik, ishsizlik, migratsiya yoki noroziliklar keskin kuchayishi natijasida vujudga keladigan beqaror vaziyatlar. Bunday inqirozlar davlat boshqaruvi va xalqaro korxonalar faoliyatiga ta'sir qiladi.

Ekologik inqirozlar – iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi, atrof-muhitning buzilishi kabi omillar tufayli sodir bo'ladigan global xavflar. Ular barqaror rivojlanish va ekologik boshqaruv choralarni talab qiladi.

Inqiroz turlari, tavsifi ta'siri va misollar yuzasidan jadval

Inqiroz turi	Tavsifi	Korporativ ta'sir	Misollar
Texnologik inqirozlar	AT tizimlaridagi nosozliklar, kiberhujumlar	Ma'lumotlar yo'qolishi, ishlab chiqarish to'xtashi	Meta (Facebook) – 2021-yil global nosozlik
Moliyaviy inqirozlar	Bozor inqirozi, to'lovga qobiliyatsizlik	Daromad tushishi, investorlar ishonchining pasayishi	2008-yil moliyaviy qulash
Ijtimoiy inqirozlar	Skandal, reputatsiya zarar ko'rishi	Brend qadriyatining pasayishi	Uber – 2017-yil inqirozi
Ekologik inqirozlar	Tabiiy ofatlar, yong'in, sel	Ishlab chiqarishning to'xtashi	BP (British Petroleum) – 2010-yil "Deepwater Horizon" avariyesi
Siyosiy va geosiyosiy inqirozlar	Urush, sanksiyalar, siyosiy qarorlar	Logistika uzilishi, bozor yo'qotilishi	Huawei – 2019-yildan boshlab global siyosiy cheklolar

Siyosiy va geosiyosiy inqirozlar – davlatlar yoki mintaqalar o'rtasidagi ziddiyatlar, siyosiy beqarorlik va qurolli mojarolar xavfi kuchayishi bilan bog'liq holatlar. Bu inqirozlar xalqaro iqtisodiyot va xavfsizlik tizimlariga bevosita ta'sir qiladi (1-jadval).

Har bir tur uchun risklar identifikatsiyasi, ular bo'yicha maxsus rejalar va javob choralarini ishlab chiqish lozim.

Xususan, quyida har bir inqiroz turini boshqarish usullariga misollarni keltirib o'tamiz:

Texnologik inqirozlarni boshqarish usullari:

– Zaxira tizimlar va qo'shimcha texnik resurslarni tayyor holda saqlash.

– Axborot xavfsizligini kuchaytirish (himoya dasturlari, ma'lumotlarni zaxiralash).

– Mutaxassislarni muntazam o'qitib borish.

– Texnik tizimlarni doimiy nazorat va modernizatsiya qilish.

Moliyaviy inqirozlarni boshqarish usullari:

– Xavf darajasini kamaytirish uchun diversifikatsiya (sarmoyani turli yo'nalishlarda joylashtirish).

– Zaxira kapital yaratish va xarajatlarni optimallashtirish.

– Bozor holatini doimiy monitoring qilish.

– Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik va maslahatlashuvlar.

Ijtimoiy inqirozlarni boshqarish usullari:

– Aholi bilan ochiq va to'g'ri kommunikatsiya o'rnatish.

– Ijtimoiy yordam dasturlarini kuchaytirish (ish o'rinlari, qo'llab-quvvatlash).

– Mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish bo'yicha muzokaralar.

– Aholi ehtiyojlarini tezkor o'rganish va ularga mos choralar ko'rish.

Ekologik inqirozlarni boshqarish usullari:

– Atrof-muhitni muhofaza qiluvchi "yashil" texnologiyalarni joriy etish.

– Resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish.

– Ekologik xavf zonalarini monitoring qilish.

– Xalqaro ekologik kelishuvlarga amal qilish va hamkorlikni kuchaytirish.

Siyosiy va geosiyosiy inqirozlarni boshqarish usullari:

– Diplomatiya va muzokaralar orqali ziddiyatlarni yumshatish.

– Xavfsizlik siyosatini mustahkamlash.

– Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.

– Barqaror siyosiy islohotlarni joriy etish.

Tadqiqotning nazariy asoslari. Tadqiqot Coombs (2019), Mitroff (2020), Harvard Business Review (2018–2023), shuningdek Toyota, Apple, Samsung va Lufthansa kompaniyalarining yillik hisobotlariga tayangan holda amalga oshirildi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Global kompaniyalarning inqirozga tayyorgarligi (tahlil natijalari asosida)

Kompaniya	Tayyorlik darajasi	Qo'llanilgan model	Kamchiliklar
Apple	Yuqori	Raqamli monitoring, diversifikatsiya	Xitoyga nisbatan yuqori bog'liqlik
Toyota	O'rtacha-yuqori	Lean production, multi-warehouse	Yirik tabiiy ofatlarga sezgirlik
Samsung	O'rtacha	RCA, xavfsizlik tizimi	Brendga zarar xavfi
Lufthansa	Past-o'rtacha	Scenario planning	Aviatsiya sektorida yuqori risklilik

– Adabiyotlar tahlili. 2015–2024-yillarda chop etilgan bir qancha ilmiy maqola, korporativ hisobot va ilmiy nashrlar tahlil qilindi.

– Taqqoslash metodi. Turli kompaniyalar o'rtasidagi inqiroz boshqaruvi strategiyalari solishtirildi.

– Case-study metodologiyasi. Apple (COVID-19 davrida), Toyota (2011-yil zilzila), Samsung (Note 7 portlashi), Lufthansa (aviatsiya inqirozi) misollarida amaliy tahlil qilindi.

– SWOT tahlili. Har bir kompaniyaning inqirozga qarshi strategiyasi SWOT modeli orqali baholandi.

– Statistik tahlil. Moliyaviy pasayish, ishlab chiqarishdagi kamayish, bozor ulushi o'zgarishi statistik jihatdan umumlashtirildi.

Natijalar. Quyidagi jadvalda yirik korporatsiyalarning inqirozga tayyorgarlik ko'rsatkichi umumlashtirilgan(2-jadval):

Kompaniyalar misolidagi tahlillar:

Apple kompaniyasi: COVID-19 inqirozi misolida.

Muammo: Xitoydagi zavodlar yopildi, global yetkazib berish tizimi izdan chiqdi.

Risk: ishlab chiqarish 40% gacha kamayishi ehtimoli mavjud edi.

Apple qo'llagan choralar:

– Real-time Supply Chain Monitoring (RT-SCM);

– Yetkazib beruvchilarni diversifikatsiya qilish;

– Hindiston va Vetnamda qo'shimcha ishlab chiqarish zonalari ochish;

– Raqamli logistika boshqaruvi.

Natija:

– Ishlab chiqarish pasayishi 15% bilan chegaralandi;

– Bozor ulushi saqlab qolindi;

– Brendga zarar yetmadi.

Toyota kompaniyasi: 2011-yilgi Yaponiyadagi zilzila.

Muammo: zavodlar vayron bo'ldi, ehtiyot qismlar tanqisligi 35% ga yetdi.

Toyota qo'llagan strategiyalar:

– Yetkazib berish zanjirini qayta qurish;

– Multi-location warehouse tizimi;

– Lean Production tizimini modernizatsiya qilish.

Natija: 2014-yilga kelib ishlab chiqarish to'liq tiklandi va kompaniya global bozorda yetakchiligini qayta oldi.

Samsung: Galaxy Note 7 batareyasi portlashi.

Muammo: o'n minglab telefonlar portlashi, brend xavfi.

Qo'llangan metod: RCA (Root Cause Analysis)

Choralar:

– 8 bosqichli batareya xavfsizlik tizimini joriy etish;

– Yetkazib beruvchilarni qayta sertifikatlash;

Natija: Samsung 2017-yildan boshlab xavfsizlik bo'yicha dunyodagi eng qat'iy standartlarni yaratgan kompaniyaga aylandi.

Lufthansa: global aviatsiya inqirozi.

COVID-19 davrida aviatsiya sanoati 60 % gacha qisqardi.

Lufthansa strategiyasi:

- Yirik xarajatlarni qisqartirish;
- Raqamli bron tizimini optimallashtirish;
- Scenario Planning yordamida 3 ta tiklanish modelini ishlab chiqish.

Natija: 2022-yildan boshlab kompaniya qayta o'sish bosqichiga o'tdi.

Muhokama. Adabiyotlar tahlili (Coombs, Mitroff, HBR va boshqalar) hamda kompaniyalar misollariga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Inqiroz boshqaruvining eng samarali omillari:

- Proaktiv yondashuv – xavflarni erta aniqlash.
- Raqamli texnologiyalar – tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.
- Yetkazib berish zanjiri diversifikatsiyasi – korporativ barqarorlikni oshiradi.
- Kuchli kommunikatsiya – brendni himoya qiladi.

– Moslashuvchan strategiyalar – o'sish sur'atini tiklaydi.

SWOT tahlili (umumiy)

Kuchli tomonlar: raqamli texnologiyalar, tezkor axborot almashinuvi; *Zaif tomonlar:* bir mamlakatga yuqori bog'liqlik, kadrlar bo'yicha nomutanosiblik; *Imkoniyatlar:* yangi bozorlarga chiqish, yetkazib berish tarmoqlarini kengaytirish; *Tahdidlar:* geosiyosiy ziddiyatlar, pandemiya va tabiiy ofatlar.

Xulosa. Tahlillarshuni ko'rsatdiki, inqirozlarni samarali boshqarish global kompaniyalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardandir. Apple, Toyota, Samsung va Lufthansa misollari shuni ko'rsatadiki:

- Raqamli monitoring inqiroz ta'sirini 2 barobargacha kamaytiradi.
 - Diversifikatsiya yetkazib berish zanjiri xavfini 40% gacha qisqartiradi.
 - Proaktiv boshqaruv kompaniyani reputatsion inqirozdan saqlaydi.
- Global sharoitda inqiroz boshqaruvi faqat reaktiv choralar emas, balki korporativ strategiyaning ajralmas qismiga aylangan.

ADABIYOTLAR

1. Coombs, W. (2019). *Global Crisis Communication Strategies*.
2. Mitroff, I. (2020). *Managing Crises Before They Happen*.
3. Drucker, P. F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper & Row, 1973.
4. Mintzberg, H. The Nature of Managerial Work. Harper & Row, 1973.
5. Edmondson, A. (2023). Right Kind of Wrong: The Science of Failing Well. Atria Books.
6. Goleman, D. (2021). Leadership: The Power of Emotional Intelligence (Updated Edition). More Than Sound
7. Pearson, C., Clair, J. A. (1998). Reframing Crisis Management. Academy of Management Review.
8. Mitroff, I. I. (2004). Crisis Leadership: Planning for the Unthinkable.
9. Boin, A., Hart, P. (2003). Public leadership in times of crisis: mission impossible? Public Administration Review.
10. Taleb, N. N. (2007). The Black Swan: The Impact of the Highly Improbable.
11. Heifetz, R., Linsky, M. (2002). Leadership on the Line: Staying Alive through the Dangers of Leading.

KRIPTOGRAFIK AXBOROT HIMOYASI TAMOYILLARI

YOQUBOV

*Murodjon G'opirjonovich,
X.Sulaymonova nomidagi Respublika
sud ekspertiza markazi Axborot
texnologiyalari va innovatsiyalarni
joriy qilish bo'limi boshlig'i*

XALILOV

*Alisher Bahriddin o'g'li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
To'rtko'l fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari
yo'nalishi talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kriptografik axborot himoyasi tamoyillari, ularning axborot xavfsizligi tizimidagi o'rni hamda amaliy qo'llanilishi mexanizmlari, zamonaviy raqamli tizimlarda ma'lumotlar maxfiyligi, yaxlitligi va autentifikatsiyasini ta'minlashda qo'llaniladigan kriptografik yechimlar, simmetrik va asimmetrik shifrlash, raqamli imzo va kalitlarni boshqarish tizimlari asosiy tamoyillar sifatida yoritiladi.

Kalit so'zlar: kriptografiya, axborot xavfsizligi, raqamli imzo, AES, RSA, ECC, simmetrik, asimmetrik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются принципы криптографической защиты информации, их роль в системе информационной безопасности, а также механизмы практического применения. Анализируются криптографические решения, используемые для обеспечения конфиденциальности, целостности и аутентификации данных в современных цифровых системах. Особое внимание уделяется симметричному и асимметричному шифрованию, цифровым подписям и системам управления ключами как основным элементам криптографической защиты.

Ключевые слова: криптография, информационная безопасность, цифровая подпись, AES, RSA, ECC, симметричное шифрование, асимметричное шифрование.

ANNOTATION

This article covers the principles of cryptographic information protection, their role in the information security system and mechanisms of practical application, cryptographic solutions used to ensure data confidentiality, integrity and authentication in modern digital systems, symmetric and asymmetric encryption, digital signatures and key management systems as the basic principles.

Key words: Cryptography, information security, digital signature, AES, RSA, ECC, symmetric, asymmetric.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron hukumat, onlayn to'lovlar, mobil bank xizmatlari kengayishi bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb tus oldi. Ma'lumotlarning ruxsatsiz o'qilishi, buzilishi yoki soxtalashtirilishi turli iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kriptografik himoya zamonaviy axborot xavfsizligi tizimining ajralmas elementi hisoblanadi.

Kriptografiya – bu axborotni ruxsatsiz kirishdan himoyalash, uni maxfiy ko'rinishga keltirish va uning yaxlitligi hamda autentifikatsiyasini ta'minlashga qaratilgan matematik asoslangan yo'nalishdir. Kriptografik axborot himoyasi bir qator fundamental tamoyillarga asoslangan bo'lib, ushbu tamoyillar axborot xavfsizligi tizimining konseptual poydevorini tashkil etadi. Asosiy tamoyillar sifatida maxfiylik(confidentiality), yaxlitlik(integrity), autentifikatsiya(authentication) va inkor etib bo'lmazlik(non-repudiation) ko'rsatiladi. Ushbu tamoyillar har biri alohida kriptografik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi va o'zaro uzviy bog'liq holda ishlaydi.

Kriptografiya muayyan ma'lumotlarni raqiblar uchun befoyda qilishga qaratilgan o'zgartirish usullarining majmuyidan iborat [1]. Uning asosiy maqsadi – ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash, ruxsatsiz kirishlarning oldini olish va uzatish jarayonida ularning butunligini saqlashdir. Buning uchun kriptografiya murakkab matematik modellar, ehtimollar nazariyasi va algebraik strukturalarga asoslangan algoritmlardan foydalanadi. Kriptografik algoritmlar – AES, RSA va ECC – zamonaviy xavfsizlik tizimlarining asosini tashkil etadi [2]. AES(Advanced Encryption Standard) – NIST tomonidan tasdiqlangan simmetrik blokli shifrlash algoritmi bo'lib, 128 bitli bloklar va 128–256 bitli kalitlar bilan ishlaydi hamda chiziqli bo'lmagan almashtirishlar, aralashtirish

bosqichlari va Galois maydonlari ustidagi amallarga asoslanadi. U yuqori tezlik va samaradorligi sababli katta hajmdagi ma'lumotlarni shifrlashda eng ishonchli yechimlardan biri hisoblanadi.

Axborot yaxlitligini ta'minlashda kriptografik xesh-funksiyalar muhim rol o'ynaydi. Xesh-funksiya kiruvchi ma'lumotni qat'iy uzunlikdagi xesh-qiymatga o'zgartiradi va ushbu qiymat orqali ma'lumotning o'zgarmaganligi tekshiriladi. SHA-256, SHA-3 kabi zamonaviy xesh-algoritmalar ma'lumot uzatish, fayl yaxlitligini nazorat qilish va raqamli imzo tizimlarida keng qo'llaniladi. Xesh-funksiyalarning asosiy xususiyatlari sifatida qayta tiklab bo'lmazlik, kolliziya chidamlilik va tezkorlik ko'rsatiladi.

RSA (Rivest – Shamir – Adleman) algoritmi asimmetrik kriptografiyaning eng klassik va keng qo'llaniladigan vakillaridan biri hisoblanadi. Ushbu algoritim xavfsizlikni katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratishning matematik jihatidan murakkab bo'lishiga tayangan holda ta'minlaydi. RSAda axborot shifrlash va shifrlash jarayonlari ochiq(public) va maxfiy (private) kalitlar juftligi orqali amalga oshiriladi. Shu sabab, u faqat shifrlash emas, balki raqamli imzo yaratish, foydalanuvchi autentifikatsiyasi va xavfsiz kalit almashinuvi kabi kriptografik operatsiyalarda ham keng qo'llaniladi. ECC (Elliptic Curve Cryptography) esa elliptik egri chiziqlar nazariyasiga asoslangan asimmetrik algoritmlar sinfi bo'lib, qisqa kalitlardan yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlay olishi bilan ajralib turadi. ECC algoritmlarining xavfsizligi elliptik egri chiziqlar ustidagi diskret logarifm masalasining hisoblash murakkabligiga bog'liq bo'lib, mobil qurilmalar, Iot tizimlari va resurslar cheklangan muhitlar uchun optimal yechim sifatida qaraladi.

RSA va ECC algoritmlari o'rtasidagi asosiy farqlar shundaki, RSA katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish muammosiga asoslangan bo'lsa, ECC elliptik egri chiziqlar ustidagi diskret logarifm masalasiga tayangan. Bu farq ECCga bir xil xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun ancha qisqa kalitlar (masalan, 256 bit)dan foydalanish imkonini beradi, RSAda esa shunga o'xshash xavfsizlik uchun 2048 bit yoki undan uzunroq kalitlar talab qilinadi. Natijada, ECC hisoblash resurslari va energiya sarfini kamaytiradi, bu esa smartfonlar, aqlli soatlar va IOT qurilmalarida afzallik beradi. Masalan, bitkoin va boshqa krip-

tovalyutalar tarmoqlarida ECC (xususan, secp 256k1 egri chizig'i) keng qo'llaniladi, chunki u tezroq operatsiyalarini ta'minlaydi va kamroq joy egallaydi.

Biroq RSAning afzalliklari ham mavjud: u ko'proq vaqt davomida sinovdan o'tgan va ko'plab standartlar(masalan, PKS#1, TLS protokollari)da qo'llab-quvvatlanadi. ECC esa nisbatan yangiroq(1985-yili taklif qilingan) bo'lib, ba'zi hollarda patent masalalari yoki implementatsiya murakkabligi tufayli sekinroq qabul qilingan. Hozirda(2025-yil holatiga ko'ra) ikkala algoritm ham post-kvant hisoblash tahdidlariga qarshi zaiflik ko'rsatishi mumkin, chunki kvant kompyuterlari(masalan Shor's algoritmi orqali) RSA va ECC xavfsizligini buzishi mumkin. Shu sababli, tadqiqotlar kvantga chidamli algoritmlarga(post-quantum cryptography) yo'naltirilmoqda, masalan, lattice-based yoki hash-based tizimlar.

Elliptik egri chiziqlarda DLP ta'rifi:

Berilgan elliptik egri chiziq E ustida aniqlangan va p – egri chiziqdagi generator nuqta bo'lsin. Agar $Q \in (P)$ bo'lsa, ya'ni $Q = Kp$, bu yerda k – no-ma'lum butun son. DLP quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = Kp$$

Bu muammo "qiyin" deb hisoblanadi va ECC asosidagi kriptotizimlarning asosidir [4].

Kriptografik tizimlarning ishonchligi bevosita kalitlarni boshqarish mexanizmlariga bog'liq. Kalitlarni yaratish, saqlash, yangilash va bekor qilish jarayonlari aniq reglament asosida amalga oshirilishi zarur. Ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish uchun ochiq kalitlar infratuzilmasi (PKI – Public Key Infrastructure) qo'llaniladi. PKI sertifikat markazlari orqali ochiq kalitlarni

ing haqiqiyligini tasdiqlaydi va ishonch zanjirini shakllantiradi.

Xulosa qilib ayganda, kriptografik axborot himoyasi zamonaviy axborot tizimlarida ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashning eng muhim vositasidir va u bir nechta asosiy tamoyillar – maxfiylik, yaxlitlik, autentifikatsiya va raqamli imzoga tayangan. Maxfiylik tamoyili ma'lumotlarni faqat vakolatli shaxslar o'qiy olishini kafolatlaydi, yaxlitlik esa ularning uzatish yoki saqlash jarayonida o'zgarmasligini ta'minlaydi, autentifikatsiya va avtorizatsiya foydalanuvchi yoki tizimlarning haqiqiyligini aniqlash imkonini beradi, raqamli imzo esa ma'lumot yuboruvchisi keyinchalik o'z harakatini inkor eta olmasligini kafolatlaydi. Turli kriptografik algoritmlar ushbu tamoyillarni turlicha samarali qo'llab himoya qiladi, masalan, RSA(Rivest – Shamir – Adleman) algoritmi asimmetrik kriptografiyaning klassik vakili bo'lib, ochiq va yopiq kalitlar juftligi orqali ma'lumotlarni shifrlash, raqamli imzo yaratish va xavfsiz kalit almashinuvi imkonini beradi; shu bilan birga, xavfsizlikni katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratishning matematik murakkabligiga tayangan holda ta'minlaydi. RSA algoritmi maxfiylik, autentifikatsiya va raqamli imzo tamoyillarini samarali ta'minlashiga qaramay, hisoblash resurslarini talab qiladi va katta kalit uzunliklari bilan chegaralangan bo'lib, bu uning ba'zi qo'llanilishini cheklaydi. Shu bilan birga, AES(Advanced Encryption Standard) simmetrik blok shifrlash algoritmi yuqori tezlik va samaradorlik bilan katta hajmdagi ma'lumotlarni shifrlash orqali maxfiylik va yaxlitlikni ta'minlaydi hamda hisoblash resurslarini sezilarli darajada tejaydi, ECC (Elliptic Curve Cryptography) esa

1-jadval.

Simmetrik va asimmetrik shifrlash algoritmlarining asosiy farqlari[3]

Kriteriy	Simmetrik shifrlash (SE)	Asimmetrik shifrlash(AE)
Kalitlar soni	1 ta maxfiy kalit	1 ta ochiq kalit va 1 ta maxfiy kalit
Qayta ishlash tezligi	Juda yuqori	Past (hatto 1000 baravargacha sekin bo'lishi mumkin)
Kalit boshqaruvi	Maxfiy kalitni xavfsiz almashish qiyin	Kalitlar ochiq kalit orqali xavfsiz almashiladi
Xavfsizlik darajasi	Kalit uzatilishi vaqtida zaiflik mavjud	Faqat qabul qiluvchi maxfiy kalitni biladi
Hisoblash resurslari	Minimal hisoblash resurslari talab etiladi	Katta hisoblash quvvatini talab etadi
Qo'llanilish sohasi	Real vaqt tizimlari, Iot qurilmalar	Xavfsiz kalit almashinuvi, raqamli imzolar

elliptik egri chiziqlar matematikasiga asoslangan asimmetrik algoritm bo'lib, RSAGA nisbatan kichik kalitlar bilan yuqori xavfsizlikni ta'minlaydi va ayniqsa resursi cheklangan qurilmalarda autentifikatsiya, kalit almashinuvi va raqamli imzo yaratishda samarali hisoblanadi(1-jadval).

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron hukumat, onlayn to'lovlar, mobil bank xizmatlari kengayishi bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb tus oldi. Ma'lumotlarning ruxsatsiz o'qilishi, buzilishi yoki soxtalashtirilishi turli iqtisodiy va ijtimoiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, kriptografik himoya zamonaviy axborot xavfsizligi tizimining ajralmas elementi hisoblanadi.

Kriptografiya – bu axborotni ruxsatsiz kirishdan himoyalash, uni maxfiy ko'rinishga keltirish va uning yaxlitligi hamda autentifikatsiyasini ta'minlashga qaratilgan matematik asoslangan yo'nalishdir. Kriptografik axborot himoyasi bir qator fundamental tamoyillarga asoslangan bo'lib, ushbu tamoyillar axborot xavfsizligi tizimining konseptual poydevorini

tashkil etadi. Asosiy tamoyillar sifatida maxfiylik(confidentiality), yaxlitlik(integrity), autentifikatsiya(authentication) va inkor etib bo'lmaslik(non-repudiation) ko'rsatiladi. Ushbu tamoyillar har biri alohida kriptografik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi va o'zaro uzviy bog'liq holda ishlaydi.

Kriptografiya muayyan ma'lumotlarni raqiblar uchun befoyda qilishga qaratilgan o'zgartirish usullarining majmuyidan iborat [1]. Uning asosiy maqsadi – ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash, ruxsatsiz kirishlarning oldini olish va uzatish jarayonida ularning butunligini saqlashdir. Buning uchun kriptografiya murakkab matematik modellar, ehtimollar nazariyasi va algebraik strukturalarga asoslangan algoritmlardan foydalanadi. Kriptografik algoritmlar – AES, RSA va ECC – zamonaviy xavfsizlik tizimlarining asosini tashkil etadi [2]. AES(Advanced Encryption Standard) – NIST tomonidan tasdiqlangan simmetrik blokli shifrlash algoritmi bo'lib, 128 bitli bloklar va 128–256 bitli kalitlar bilan ishlaydi hamda chiziqli bo'lmagan almashtirishlar, aralashtirish bosqichlari va Galois maydonlari ustidagi amal-



larga asoslanadi. U yuqori tezlik va samaradorligi sababli katta hajmdagi ma'lumotlarni shifrlashda eng ishonchli yechimlardan biri hisoblanadi.

Axborot yaxlitligini ta'minlashda kriptografik xesh-funksiyalar muhim rol o'ynaydi. Xesh-funksiya kiruvchi ma'lumotni qat'iy uzunlikdagi xesh-qiymatga o'zgartiradi va ushbu qiymat orqali ma'lumotning o'zgarmaganligi tekshiriladi. SHA-256, SHA-3 kabi zamonaviy xesh-algoritmalar ma'lumotni uzatish, fayl yaxlitligini nazorat qilish va raqamli imzo tizimlarida keng qo'llaniladi. Xesh-funksiyalarning asosiy xususiyatlari sifatida qayta tiklab bo'lmazlik, kolliziyaga chidamlilik va tezkorlik ko'rsatiladi.

RSA (Rivest – Shamir – Adleman) algoritmi asimmetrik kriptografiyaning eng klassik va keng qo'llaniladigan vakillaridan biri hisoblanadi. Ushbu algoritim xavfsizlikni katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratishning matematik jihatidan murakkab bo'lishiga tayangan holda ta'minlaydi. RSAda axborot shifrlash va shifrlash jarayonlari ochiq(public) va maxfiy (private) kalitlar juftligi orqali amalga oshiriladi. Shu sabab, u faqat shifrlash emas, balki raqamli imzo yaratish, foydalanuvchi autentifikatsiyasi va xavfsiz kalit almashinuvi kabi kriptografik operatsiyalarda ham keng qo'llaniladi. ECC (Elliptic Curve Cryptography) esa elliptik egri chiziqlar nazariyasiga asoslangan asimmetrik algoritmlar sinfi bo'lib, qisqa kalitlardan yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlay olishi bilan ajralib turadi. ECC algoritmlarining xavfsizligi elliptik egri chiziqlar ustidagi diskret logarifm masalasining hisoblash murakkabligiga bog'liq bo'lib, mobil qurilmalar, Iot tizimlari va resurslar cheklangan muhitlar uchun optimal yechim sifatida qaraladi.

RSA va ECC algoritmlari o'rtasidagi asosiy farqlar shundaki, RSA katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratish muammosiga asoslangan bo'lsa, ECC elliptik egri chiziqlar ustidagi diskret logarifm masalasiga tayangan. Bu farq ECCga bir xil xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun ancha qisqa kalitlar (masalan, 256 bit)dan foydalanish imkonini beradi, RSAda esa shunga o'xshash xavfsizlik uchun 2048 bit yoki undan uzunroq kalitlar talab qilinadi. Natijada, ECC hisoblash resurslari va energiya sarfini kamaytiradi, bu esa smartfonlar, aqlli soatlar va IOT qurilmalarida afzallik beradi. Masalan, bitkoin va boshqa kriptovalyutalar tarmoqlarida ECC (xususan, secp

256k1 egri chizig'i) keng qo'llaniladi, chunki u tezroq operatsiyalarini ta'minlaydi va kamroq joy egallaydi.

Biroq RSAning afzalliklari ham mavjud: u ko'proq vaqt davomida sinovdan o'tgan va ko'plab standartlar(masalan, PKS#1, TLS protokollari)da qo'llab-quvvatlanadi. ECC esa nisbatan yangiroq(1985-yili taklif qilingan) bo'lib, ba'zi hollarda patent masalalari yoki implementatsiya murakkabligi tufayli sekinroq qabul qilingan. Hozirda(2025-yil holatiga ko'ra) ikkala algoritim ham post-kvant hisoblash tahdidlariga qarshi zaiflik ko'rsatishi mumkin, chunki kvant kompyuterlari(masalan Shor's algoritmi orqali) RSA va ECC xavfsizligini buzishi mumkin. Shu sababli, tadqiqotlar kvantga chidamli algoritmlarga(post-quantum cryptography) yo'naltirilmoqda, masalan, lattice-based yoki hash-based tizimlar.

Elliptik egri chiziqlarda DLP ta'rifi:

Berilgan elliptik egri chiziq E ustida aniqlangan va p – egri chiziqdagi generator nuqta bo'lsin. Agar $Q \in \langle P \rangle$ bo'lsa, ya'ni $Q = Kp$, bu yerda k – norma'lum butun son. DLP quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = Kp$$

Bu muammo "qiyin" deb hisoblanadi va ECC asosidagi kriptotizimlarning asosidir [4].

Kriptografik tizimlarning ishonchliligi bevosita kalitlarni boshqarish mexanizmlariga bog'liq. Kalitlarni yaratish, saqlash, yangilash va bekor qilish jarayonlari aniq reglament asosida amalga oshirilishi zarur. Ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish uchun ochiq kalitlar infratuzilmasi (PKI – Public Key Infrastructure) qo'llaniladi. PKI sertifikat markazlari orqali ochiq kalitlarning haqiqiylikni tasdiqlaydi va ishonch zanjirini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kriptografik axborot himoyasi zamonaviy axborot tizimlarida ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashning eng muhim vositasidir va u bir nechta asosiy tamoyillar – maxfiylik, yaxlitlik, autentifikatsiya va raqamli imzoga tayangan. Maxfiylik tamoyili ma'lumotlarni faqat vakolatli shaxslar o'qiy olishini kafolatlaydi, yaxlitlik esa ularning uzatish yoki saqlash jarayonida o'zgarmasligini ta'minlaydi, autentifikatsiya va avtorizatsiya foydalanuvchi yoki tizimlarning haqiqiylikni aniqlash imkonini beradi, raqamli imzo esa ma'lumot yuboruvchisi keyinchalik o'z harakatini inkor

eta olmasligini kafolatlaydi. Turli kriptografik algoritmlar ushbu tamoyillarni turlicha samarali qo'llab himoya qiladi, masalan, RSA(Rivest – Shamir – Adleman) algoritmi asimmetrik kriptografiyaning klassik vakili bo'lib, ochiq va yopiq kalitlar juftligi orqali ma'lumotlarni shifrlash, raqamli imzo yaratish va xavfsiz kalit almashinuvi imkonini beradi; shu bilan birga, xavfsizlikni katta sonlarni tub ko'paytuvchilarga ajratishning matematik murakkabligiga tayangan holda ta'minlaydi. RSA algoritmi maxfiylik, autentifikatsiya va raqamli imzo tamoyillarini samarali ta'minlashiga qaramay, hisoblash resurslarini talab qiladi va katta kalit uzunliklari bilan che-

garalangan bo'lib, bu uning ba'zi qo'llanilishini cheklaydi. Shu bilan birga, AES(Advanced Encryption Standard) simmetrik blok shifrlash algoritmi yuqori tezlik va samaradorlik bilan katta hajmdagi ma'lumotlarni shifrlash orqali maxfiylik va yaxlitlikni ta'minlaydi hamda hisoblash resurslarini sezilarli darajada tejaydi, ECC (Elliptic Curve Cryptography) esa elliptik egri chiziqlar matematikasiga asoslangan asimmetrik algoritmi bo'lib, RSAg nisbatan kichik kalitlar bilan yuqori xavfsizlikni ta'minlaydi va ayniqsa resursi cheklangan qurilmalarda autentifikatsiya, kalit almashinuvi va raqamli imzo yaratishda samarali hisoblanadi.



ADABIYOTLAR

1. Dadabayev R.A., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Nasriddinova Sh.T., Ermatov Sh.T. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlari. – Toshkent: Sano-standart, 2017. -518 b.
2. Suyunov K.N., Rahmatov K.I., Boboqulov N.B., Imamaliyev A.T. Cryptographic Algorithms Comparison: AES, RSA and ECC // *Journal of New Century Innovations*. – 2025.
3. Tojiyev M.R., Tirkashev J.O., Shirinboyev R.Sh. SECURITY RESILIENCE COMPARSION OF SYMMETRIC AND ASYMMETRIC CRYPTOGRAPHIC ALGORITHMS// *InLibrary*. - 2025. 58 – 66 b.
4. Toshboyeva F.T. Elliptik egri chiziqlar kriptografiyasida diskret logarifm muammosi va uni tadqiq qilish / F.T. Toshboyeva. — 2025. — Mavjud: <https://scientific-jl.com>

O'ZBEKISTONDA KASBIY TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR STRATEGIYASI

ABRAROV

*Islomiddin Jamolovich,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada kasbiy ta'limni modernizatsiya qilish, mehnat bozori talablariga moslashtirish, ta'lim sifatini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish masalalari hamda islohotlarni amalga oshirishda uchrayotgan muammolar va ularni hal etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, kasb, ta'lim, islohot, strategiya, modernizatsiya, mehnat bozori, kadr, sifat.

АННОТАЦИЯ

В статье с научно-теоретических позиций проанализированы основные направления стратегии реформ, реализуемых в системе профессионального образования Республики Узбекистан. Рассматриваются вопросы модернизации профессионального образования, его адаптации к современным требованиям рынка труда, повышения качества подготовки кадров и совершенствования механизмов управления образовательной системой. Выявлены ключевые проблемы, возникающие в процессе реализации реформ, и предложены научно обоснованные рекомендации по их решению.

Ключевые слова: управление, профессиональное образование, реформа, стратегия, модернизация, рынок труда, кадры, качество образования.

ANNOTATION

This article analyzes the main directions of the reform strategy being implemented in the vocational education system in Uzbekistan from a scientific and theoretical perspective. The article also examines the issues of modernizing vocational education, adapting it to the demands of the labor market, improving the quality of education, and improving management mechanisms, as well as the problems arising during the implementation of reforms, and develops scientific proposals for their solution.

Key words. Management, profession, education, reform, strategy, modernization, labor market, personnel, quality.

Kirish(Introduction). Bugungi globallashuv va tobora avj olayotgan keskin raqobat sharoitida mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun yuqori malakali, zamonaviy kasb va kompetensiyalarga ega kadrlar tayyorlashga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi zamon talabi kasbiy ta'lim tizimida jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Shu o'rinda, Yangi O'zbekistonda aholi bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish uchun keng ko'lamli tub islohotlar jarayoni "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlarida o'z aksini topgan bo'lib, har bir fuqaroning davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish hamda nodavlat ta'lim

muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish, kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalarini to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazish[1], umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi bir qator vazifalar belgilangan. Bu borada, mamlakatimizda zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim tizimi hamda ilm-fan sohasi o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlikni o'rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikada ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan tub islohotlar uzviyligini muntazam davom ettirish orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va uning mazmun-mohiyatini jamiyat hayotiga chuqur singdirish borasidagi targ'ibot ishlarini amalga oshirish strategik vazifa sifatida belgilangan. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim





va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"[2]. Ayniqsa, O'zbekistonda bu borada keyingi yillarda kasbiy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning mazmuni va tuzilmasini yangilashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda, kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish strategiyasi zamiriga e'tibor qaratsa, u inson kapitali nazariyasi, uzluksiz ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar quyidagi asosiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Xususan: ta'lim mazmunining mehnat bozori talablariga mosligi, amaliy ko'nikmalarga yo'naltirilgan o'qitish, ta'lim va ishlab chiqarish

integratsiyasi, ta'lim sifatini ta'minlash va baholash hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish. O'z navbatida, mazkur tamoyillar kasbiy ta'lim islohotlarining strategik yo'nalishlarini belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari sifatida kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bunda kasbiy ta'lim muassasalarining tarmoqlar bo'yicha qayta tashkil etilishi, o'quv reja va dasturlarini yangilash, zamonaviy kasblar va mutaxassisliklarni joriy etish islohotlarning muhim yo'nalishini tashkil etadi. Bu jarayonda xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar ham inobatga olinmoqda. Shu bilan

birga, mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashda ish beruvchilar ishtirokida o'quv dasturlarini ishlab chiqish, dual ta'lim tizimini joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim ulushini oshirish, kasbiy ta'lim samaradorligini kuchaytirish orqali bitiruvchilarning bandligi oshishiga zamin yaratilmoqda. Shu o'rinda, ta'lim sifatini oshirish va baholash mexanizmlarini takomillashtirishda kasbiy ta'limda ta'lim natijalarini baholashning zamonaviy tizimlarini joriy etish, kasbiy standartlar asosida malaka talablarini belgilash islohotlarning muhim qismi hisoblanadi va bu orqali ta'lim sifati ustidan tizimli nazorat o'rnatiladi. Mazkur sohada kadrlar salohiyatini rivojlantirishda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ishlab chiqarish mutaxassislarini ta'lim jarayoniga jalb etish kasbiy ta'lim tizimida inson resurslarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kasbiy ta'limda raqamlashtirish va innovatsiyalarni ta'lim jarayoni va boshqaruv tizimiga joriy etish, elektron platformalardan foydalanish ta'limning shaffofligi va samaradorligini oshirmoqda. Shu o'rinda, kasbiy ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatilayotganligini qayd etish lozim. Ya'ni, mamlakatimizning ayrim hududlarida moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyoji, mehnat bozori ehtiyojlarini prognoz qilish mexanizmlarining sustligi hamda ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida hamkorlik darajasining uzviylikda emasligi mazkur sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-son qarori[3] qabul qilingan edi. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-190-son Farmoni ijrosini ta'minlash, kasbiy ta'limda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda jamiyatda

kasbiy ta'limning nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlarni izchil amalga oshirish maqsadida qabul qilingan. Ushbu qarorda quyidagilar kasbiy ta'lim tizimini 2030-yilga qadar isloh qilishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib belgilangan. Xususan: xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan texnikumlar sonini kamida 250 taga, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga, kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini amaldagi 9 foizdan 40 foizga, kasbiy sertifikatga ega ishlab chiqarish ta'limi ustalari ulushini 30 foizga, xorijda malaka oshirish va stajirovka o'tash dasturlarida ishtirok etgan pedagoglar sonini 100 nafardan 2 500 nafarga yetkazish[4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Shuningdek, mazkur qarorning II. Kasbiy ta'limni ommalashtirish maqsadida 2026-2027-o'quv yilidan boshlab yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning quyidagi tartibi joriy etilishi belgilangan. Ya'ni: "Atrofimizdagi kasblar" dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5 yoshdan boshlab bolalarda o'yinlar orqali turli kasblar haqida ilk tasavvurlar shakllantiriladi, "Kasblar alifbosi" dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 1-4-sinf o'quvchilariga turli kasblar ahamiyati haqida tushunchalar beriladi va ularning dastlabki kasbiy qiziqishlari rivojlantiriladi, "Kasblar olami" dasturi asosida 5-6-sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyat va mehnat sohalariga qiziqishlari rivojlantiriladi va kelajakdagi kasbiy tanlovga tayyorgarlikning asosi yaratiladi. Shu bilan birga, "Mening kelajakdagi kasbim" dasturi asosida maktab maslahatchilari tomonidan 7-9-sinf o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlari va iqtidorlari aniqlanib, ularni akademik ta'lim yoki kasb-hunarga yo'naltirish ishlari tashkil etilishi belgilangan[5]. Bunda esa, o'quvchilarga videoroliklar namoyishi, korxonalarga ekskursiyaga olib borish va kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali kasblar haqida to'liqroq ma'lumotlar beriladi, maktab psixologlari bilan birgalikda 7-sinfdan boshlab o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va temperamenti asosida kasbga qiziqishi aniqlanadi, o'quvchilarning kasbga qiziqishiga oid ma'lumotlar asosida har bir o'quvchi uchun shaxsiy kasbga yo'naltirish

tavsiyasi ishlab chiqiladi hamda bu masala o'quvchilarning ota-onasi bilan muhokama qilinadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). 2028-yildan boshlab texnikumga yo'naltirish 9-sinf yakuni bo'yicha o'tkaziladigan imtihon natijasiga ko'ra amalga oshiriladi hamda maktabning 10-sinf o'quvchilariga o'qishini texnikumlarga ko'chirishga ruxsat berilishi belgilangan. 2026-yildan e'tiboran 5-may kunini "Kasb va mehnat kuni" sifatida har yili keng nishonlash hamda uning doirasida jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar orasida kasblar jozibadorligini oshirish va kasbiy ta'limni ommalashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimli ravishda[6] amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston global raqobat, texnologik inqiloblar va murakkab geosiyosiy jarayonlar davrida xalqaro maydonda o'zining nufuzini yanada mustahkamlash maqsadida mamlakat kelajagi hisoblanmish yosh avlodning intellektual salohiyatini har tomonlama yuksaltirish maqsadida yoshlarni ma'naviy yetuk, ruhan tetik, jismonan sog'lom etib tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, bu masalada ta'lim tizimiga e'tibor qaratish mamlakat taraqqiyotini belgilashda, strategik vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Resommendations). Shu o'rinda, kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sirchan samaradorligini oshirishda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Mehnat bozori tahliliga asoslangan kasblar klassifikatorini muntazam yangilab borish, kasbiy ta'lim muassasalarini moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash, pedagog kadrlar uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish, ta'lim natijalarini baholashning yagona milliy tizimini hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasida, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini malakali kadrlar bilan ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Zero, islohotlarni tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish, ularning natijadorligini ilmiy asosda baholab borish kasbiy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga va o'z navbatida Yangi O'zbekistonni barpo etishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti IIIavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-son qarori <https://lex.uz/docs/7793420>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-son qarori <https://lex.uz/docs/7793420>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-son qarori <https://lex.uz/docs/7793420>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-316-son qarori <https://lex.uz/docs/7793420>

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARDA MANTIQUIY FIKRLASHNI BAHOLASH MEZONLARI

SUVANKULOVA

Malika Baxtiyor qizi,

Oliy ta'limni rivojlantirish

tadqiqotlari markazi mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga qaratilgan mezonlar va ularga mos metodik indikatorlar tizimi ilmiy jihatdan asoslangan. Test topshiriqlari, keys-tahlil, mantiqiy zanjirlar, interaktiv mashqlar hamda yozma va og'zaki dalillash orqali diagnostika qilish imkoniyatlari ochib berilgan. Taklif etilgan yondashuv ta'lim natijalarini xolis va kompleks baholashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, kompetensiya, diagnostika, mezon, metodik indikator, ingliz tili o'qituvchisi.

АННОТАЦИЯ

В статье раскрываются теоретико-методические основы диагностики логического мышления у будущих учителей английского языка. Обоснована система критериев и соответствующих методических индикаторов оценки уровня сформированности логического мышления. Показаны возможности диагностики с использованием тестовых заданий, кейс-анализа, логических цепочек, интерактивных упражнений, а также письменного и устного аргументирования. Предложенный подход обеспечивает объективную и комплексную оценку результатов обучения.

Ключевые слова: логическое мышление, компетенция, диагностика, критерии, методические индикаторы, учитель английского языка.

ANNOTATION

The article examines the theoretical and methodological foundations for diagnosing logical thinking competence in future English language teachers. A system of assessment criteria and corresponding methodological indicators is substantiated. The study highlights diagnostic tools such as tests, case analysis, logical chains, interactive tasks, and written and oral argumentation. The proposed approach ensures objective and comprehensive assessment of learning outcomes.

Keywords: logical thinking, competence, diagnostics, criteria, methodological indicators, English language teacher.

Jahon ta'lim makonida kechayotgan global o'zgarishlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim modellarining joriy etilishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorligiga qo'yiladigan talablarni tubdan yangilab bormoqda. Ayniqsa, chet tillari ta'limi sohasida faoliyat yurituvchi o'qituvchilardan nafaqat til bilimi, balki tahliliy yondashuv, mantiqiy fikrlash, dalillash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari talab etilmoqda. Bu esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va uni ilmiy asosda baholash masalasini dolzarb pedagogik muammoga aylantirmoqda.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi o'qituvchining kasbiy faoliyatida o'quv materialini tahlil qilish, ta'lim mazmunini tizimlashtirish, o'quvchilar fikrlashini yo'naltirish hamda ta'lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolarni samarali hal etishda muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, mazkur kompetensiyani shakllantirish bilan bir qatorda uning rivojlanish darajasini aniqlash, ya'ni diagnostika qilish masalasi ham ilmiy-metodik jihatdan puxta ishlab chiqilishi lozim.

Amaldagi ta'lim jarayoni tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholash ko'p hollarda fragmentar, subyektiv yoki umumiy ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Aniq mezonlar va ularga mos indikatorlar tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmagani diagnostika jarayonining xolisligi va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ta'lim natijalarini baholash, o'quv jarayonini takomillashtirish va individual pedagogik yondashuvni belgilash imkoniyatlari cheklanib qolmoqda.

Shu bois, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish uchun ilmiy asoslangan mezonlar va meto-

dik indikatorlar tizimini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday tizim mantiqiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy qismlarini kompleks baholash, ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash hamda maqsadli pedagogik ta'sir choralari belgilash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilishga qaratilgan mezonlar va ularga mos indikatorlar tizimini ilmiy-metodik jihatdan asoslashdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda mantiqiy fikrlash kompetensiyasining mazmuni aniqlanadi, uni baholash mezonlari tizimlashtiriladi hamda har bir mezonni ifodalovchi aniq metodik indikatorlar taklif etiladi.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida yuz berayotgan islohotlar, xususan, yangi ta'lim standartlarining joriy etilishi o'quv natijalarini bilim miqdori bilan emas, balki o'quvchining shakllangan kompetensiyalari orqali baholashni taqozo etmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmunini amalda qo'llay olish, tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarni ustuvor deb belgilaydi. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va uni aniq mezonlar asosida baholash masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Qator tadqiqotchilar kompetensiyaviy yondashuvni shaxsning bilim, ko'nikma, malaka va tafakkur faoliyatining integrativ natijasi sifatida talqin qilgan holda, uni ta'lim samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida baholaydilar. Masalan, J.Raven(1936-y. *tug'ilgan, britaniyalik psixolog va pedagog, kompetensiya va qobiliyatlarni diagnostikasi bo'yicha yetakchi mutaxassis*) kompetensiyani shaxsning murakkab vaziyatlarda bilim va fikrlash usullarini integratsiya qilib qo'llay olish qobiliyati sifatida izohlab, kompetensiyaviy ta'lim modellarida tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari yetakchi o'rin egallashini ta'kidlaydi. Shuningdek, I.A.Zimnyaya(1937–2021-yy., *pedagogika va ta'lim psixologiyasi sohasidagi taniqli olim*) kompetensiyaviy yondashuvda fikrlash faoliyati va intellektual mustaqillik ta'lim natijasining asosiy ko'rsatkichi

ekanini qayd etadi¹. Mazkur qarashlar mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish masalasini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zarurligini tasdiqlaydi.

Chet tili o'qituvchisining kasbiy faoliyatida mantiqiy fikrlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida o'qituvchi grammatik qoidalarni tizimlashtirish, matnlarni tahlil qilish, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish hamda o'quvchilarning fikrlash strategiyalarini shakllantirish kabi murakkab intellektual vazifalarni bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, D.Nunan(1946-y. tug'ilgan, Avstraliyalik tilshunos va metodist, ikkinchi tilni o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis) chet tili ta'limida tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarning til kompetensiyasini chuqurlashtirishga xizmat qilishini asoslab beradi². Biroq mazkur tadqiqotlarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini aniq baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Muallifning pozitsiyasiga ko'ra, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda uni ilmiy asosda diagnostika qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki diagnostikasiz shakllantirish jarayoni maqsadli va tizimli xarakter kasb etmaydi. Shu bilan birga, amalda qo'llanilayotgan baholash usullari ko'p hollarda umumiy tavsifga ega bo'lib, kompetensiyaning tarkibiy qismlarini to'liq qamrab olmaydi. I.A.Zimnyaya hamda V.V.Serikov(1947-y. tug'ilgan, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi muallifi) o'z tadqiqotlarida kompetensiyalarni baholashda aniq mezonlar mavjud bo'lmagan taqdirda ta'lim natijalarini baholashda subyektivlik saqlanib qolishini ta'kidlaydilar³.

Shu bois, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilishning aniq mezonlari va ularga mos metodik

indikatorlar tizimini ishlab chiqish zamonaviy pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv kompetensiyaviy ta'lim talablariga mos holda o'quv natijalarini xolis baholash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va kelgusida tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish uchun ilmiy-metodik asos yaratadi.

Mantiqiy fikrlash va kompetensiyaviy yondashuv masalalari xorijiy va milliy pedagogik tadqiqotlarda muayyan darajada o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyatlar, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari shaxsning kasbiy kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, kompetensiyaviy ta'lim modellarida fikrlash faoliyatining kognitiv va refleksiv jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda mantiqiy fikrlash ko'pincha ta'lim natijasi sifatida qaralib, uning rivojlanish darajasi o'quv jarayoni samaradorligini belgilaydigan ko'rsatkich sifatida baholanadi.

Chet tili ta'limi sohasidagi tadqiqotlarda esa mantiqiy fikrlash asosan til ko'nikmalarini rivojlantirish, matn tahlili, kommunikativ kompetensiya va interaktiv metodlar bilan bog'liq holda yoritilgan. Ushbu ishlarida olimlar til o'rganish jarayonida tahliliy fikrlash, dalillash va xulosa chiqarish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadilar. Biroq aksariyat tadqiqotlarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasi mustaqil pedagogik obyekti sifatida emas, balki yordamchi yoki ikkinchi darajali komponent sifatida qaralgan.

Milliy pedagogik tadqiqotlarda ham mantiqiy fikrlashni shakllantirish, o'quvchilarning intellektual faolligini oshirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, bu tadqiqotlarda asosiy e'tibor ko'proq shakllantirish usullariga qaratilib, diagnostika masalasi umumiy tavsiyalar yoki an'anaviy baholash shakllari doirasida qolib ketganini kuzatish mumkin.

Muammoning tahlili shuni ko'rsatadiki, mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish bo'yicha mavjud yondashuvlar ko'p hollarda tizimsiz, fragmentar va subyektiv xarakterga ega. Aniq belgilab berilgan mezonlar va ularga mos indikatorlar tizimining yo'qligi mantiqiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy qismlarini to'liq va xolis baholash imkonini cheklaydi. Shuningdek,

¹ Равен Ж. Компетентность в современном обществе. . – М.: Когито-Центр, 2002. – 396 с. – Б. 43–47.

² Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с. – Б. 14-18.

³ Nunan D. Second Language Teaching and Learning. – Boston: Heinle & Heinle, 1999. – 330 p. – P. 88-92.

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan diagnostika modellarining yetarli emasligi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu nuqtayi nazardan, mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilishning ilmiy asoslangan mezonlari va indikatorlar tizimini ishlab chiqish, ayniqsa bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga moslashtirish zarurati mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan muhim tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish uchun ilmiy asoslangan mezonlar va ularga mos metodik indikatorlar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

- mantiqiy fikrlash kompetensiyasining pedagogik mazmuni va tarkibiy tuzilmasini aniqlash;
- bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligi xususiyatlarini inobatga olgan holda diagnostika mezonlarini belgilash;
- har bir mezonga mos keluvchi aniq metodik indikatorlarni asoslash va tizimlashtirish.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim nazariyasida shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ustuvor konsepsiyasi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv doirasida ta'lim natijasi faqat bilimlarni o'zlashtirish bilan emas, balki o'quvchining bilim, ko'nikma va tafakkur usullarini integratsiya qilgan holda amaliyotda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. A.V.Xutorskoy(1959-y. *tug'ilgan, pedagogika fanlari doktori, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi bo'yicha mutaxassis*) kompetensiyani shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin qilib, kompetensiyaviy ta'limda fikrlash faoliyati markaziy o'rin tutishini ta'kidlaydi⁴. Bu yondashuv mantiqiy fikrlashni kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarashga ilmiy asos yaratadi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi shaxsning

tahliliy fikr yuritish, dalillash, xulosa chiqarish hamda muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatlarini qamrab oluvchi integrativ ta'lim natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kompetensiya kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikrlash operatsiyalari – tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va klassifikatsiya orqali ro'yobga chiqadi. V.D.Shadrikov(1939-y. *tug'ilgan, psixolog, faoliyat psixologiyasi va qobiliyatlar nazariyasi bo'yicha yetakchi olim*) inson faoliyati psixologiyasi doirasida fikrlash qobiliyatlarini shaxsning kasbiy samaradorligini belgilaydigan asosiy omillardan biri sifatida baholaydi⁵.

Pedagogik nuqtayi nazardan mantiqiy fikrlash kompetensiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni ongli o'zlashtirish, o'quv materialini tizimlashtirish va uni yangi vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Muallifning pozitsiyasiga ko'ra, mantiqiy fikrlash kompetensiyasi tuzilmasi kognitiv(bilim va tushunchalar), analitik-mantiqiy(fikrlash operatsiyalari), refleksiv(o'z fikrlashini baholash) va amaliy-qo'llanmaviy(vaziyatli topshiriqlarda qo'llash) komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida qaralishi lozim.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari kasbiy faoliyatida mantiqiy fikrlash kompetensiyasi ta'lim mazmunini tanlash va tizimlashtirish, til qoidalarini izchil tushuntirish, matn va nutqni tahlil qilish, shuningdek, o'quvchilarning fikrlash strategiyalarini shakllantirish jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur kompetensiyani aniqlash va baholash o'qituvchi tayyorlash tizimida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostika ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanish darajasi, ta'lim natijalari va kompetensiyalarning shakllanganlik holatini aniqlashga qaratilgan ilmiy-metodik faoliyat sifatida qaraladi. Diagnostika ta'limni boshqarish vositasi bo'lib, u orqali ta'lim mazmuni, shakl va usullarining samaradorligi baholanadi. V.P.Bespalko(1930 *pedagogika fanlari doktori, pedagogik texnologiya va ta'lim diagnostikasi nazariyasi asoschilaridan biri*) ta'lim natijalarini xolis baholash uchun diagnostika mezonlari aniq va o'lchovli bo'lishi lozimligini ta'kidlab, pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida diagnostikaga alohida e'tibor qaratadi⁶.

⁵ Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.

⁶ Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. – М.: Логос, 1996. – 320 с. – С. 112–118.

⁴ Зимняя И.А., Сериков В.В. Личностно-ориентированное образование и компетентностный подход. – М.: Логос, 2010. – 256 с. – Б. 121–125.

Diagnostika jarayonining samaradorligi uning xolisligi va ishonchliligi bilan belgilanadi. Xolislik baholash natijalarining subyektiv omillardan xoli bo'lishini, ishonchlilik esa natijalarning barqaror va takrorlanuvchan bo'lishini anglatadi. N.F.Talizina(1923–2018-yy., *psixolog-pedagog, ta'lim jarayonini boshqarish va pedagogik diagnostika sohasida taniqli olim*) ta'lim jarayonini boshqarish nazariyasida diagnostika natijalarining ishonchliligi aniq mezonlar va indikatorlar mavjudligiga bog'liq ekanini asoslaydi⁷. Bu qarash mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashda ham muhim ahamiyatga ega.

Chet tili ta'limida diagnostika o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki fikrlash strategiyalari, tahliliy qobiliyatlar va kommunikativ faoliyatni ham qamrab olishi lozim. Ingliz tilini o'qitish jarayonida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish o'quvchilarning til materialini anglash, uni mantiqiy tahlil qilish va kommunikativ vaziyatlarda asosli qo'llash darajasini baholash imkonini beradi. Biroq amalda qo'llanilayotgan diagnostika usullari ko'p hollarda umumiy xarakterga ega bo'lib, mantiqiy fikrlash kompetensiyasining barcha tarkibiy komponentlarini to'liq qamrab olmaydi.

Muallifning fikricha, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini samarali diagnostika qilish uchun maxsus ishlab chiqilgan mezonlar va ularga mos metodik indikatorlar tizimi talab etiladi. Bunday tizim diagnostika jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlash bilan bir qatorda ta'lim natijalarini kompleks baholash imkonini beradi hamda keyingi boblarda bayon etiladigan tajriba-sinov ishlari uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini samarali diagnostika qilish, avvalo, uni baholashda qo'llaniladigan mezonlarni ilmiy asoslangan tamoyillar asosida belgilashni taqozo etadi. Diagnostika mezonlari kompetensiyaning mazmuni va tuzilmasini to'liq aks ettirishi, shuningdek, baholash jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlashi lozim. Muallifning pozitsiyasiga ko'ra, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qil-

ishda quyidagi asosiy tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tizimlilik tamoyili mantiqiy fikrlash kompetensiyasini uning alohida elementlari emas, balki o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat yaxlit tizim sifatida baholashni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga muvofiq, diagnostika jarayonida kognitiv bilimlar, tahliliy fikrlash operatsiyalari, refleksiv qobiliyatlar va amaliy qo'llash ko'nikmalari o'zaro uzviy bog'liq holda qaraladi. Bu yondashuv mantiqiy fikrlash kompetensiyasining real shakllanganlik darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

Bosqichlilik tamoyili mantiqiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishi izchil va bosqichma-bosqich xarakterga ega ekanini hisobga oladi. Diagnostika mezonlari talabalarning mantiqiy fikrlashdagi oddiydan murakkabga tomon harakatni, ya'ni bilimni o'zlashtirishdan uni tahlil qilish va qo'llashgacha bo'lgan jarayonni aks ettirishi lozim. Bosqichli yondashuv diagnostika natijalarini dinamikada kuzatish va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini yaratadi.

Integrativlik tamoyili mantiqiy fikrlash kompetensiyasini alohida fan yoki ko'nikma doirasida emas, balki kasbiy tayyorgarlikning boshqa komponentlari bilan bog'liq holda baholashni nazarda tutadi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash til kompetensiyasi, kommunikativ qobiliyatlar va metodik tayyorgarlik bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli diagnostika mezonlari ushbu o'zaro ta'sirni inobatga olishi zarur.

Kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili esa diagnostika mezonlarini bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining real kasbiy faoliyatiga yaqinlashtirishni talab qiladi. Mantiqiy fikrlash kompetensiyasi aynan kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida namoyon bo'lishi inobatga olingan holda, mezonlar o'quv materialini tushuntirish, matnlarni tahlil qilish, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish kabi faoliyat turlari bilan bog'liq holda belgilab olinadi.

Yuqorida bayon etilgan tamoyillarga tayanish holda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish uchun to'rtta asosiy mezon ajratib ko'rsatildi. Ushbu mezonlar mantiqiy fikrlash kompetensiyasining mazmuniy va funksional jihatlarini kompleks qamrab oladi.

⁷ Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с. – С. 67–72.

Kognitiv mezon mantiqiy fikrlash kompetensiyasining bilimga asoslangan jihatini ifodalaydi. U talabalarining mantiqiy bilimlar, tushunchalar va qoidalarini o'zlashtirish darajasini aks ettiradi. Kognitiv mezon doirasida bo'lajak o'qituvchining mantiqiy tushunchalarni anglashi, fikrlash qonun-qoidalarini bilishi hamda ularni ta'lim jarayonida ongli ravishda qo'llay olishga tayyorligi baholanadi. Bu mezon mantiqiy fikrlashning poydevori hisoblanib, keyingi tahliliy va amaliy faoliyat uchun asos vazifasini bajaradi.

Tahliliy-mantiqiy mezon talabalarining tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish qobiliyatlarini ifodalaydi. Ushbu mezon faol mantiqiy fikrlash jarayonini aks ettirib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'quv materialini qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va asoslangan xulosalar chiqara olish darajasini ko'rsatadi. Analitik-mantiqiy mezon o'qituvchining dars jarayonidagi izchilligi, fikr bayonining mantiqiyliigi va ta'lim mazmunini tizimli taqdim etish qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Refleksiv mezon mantiqiy fikrlash kompetensiyasining shaxsiy-ongli jihatini ifodalaydi. U talabalarining o'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, xatolarini anglash va ularni tuzatishga tayyorlik darajasini aks ettiradi. Refleksiv mezon bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'z kasbiy faoliyatiga tanqidiy yondashuvi, qabul qilingan qarorlarni baholash va fikrlash strategiyalarini takomillashtirish qobiliyatini belgilaydi. Bu mezon mantiqiy fikrlashning barqaror va rivojlanuvchi xarakter kasb etishini ta'minlaydi.

Amaliy-qo'llanmaviy mezon mantiqiy fikrlash kompetensiyasining amaliy jihatini ifodalaydi. Ushbu mezon bo'lajak o'qituvchining mantiqiy bilim va ko'nikmalarni aniq pedagogik vaziyatlarda, jumladan, keyslar, muammoli topshiriqlar va kommunikativ mashqlarda qo'llay olish darajasini baholashga xizmat qiladi. Amaliy-qo'llanmaviy mezon mantiqiy fikrlashning faqat nazariy emas, balki kasbiy faoliyatda real natija beruvchi kompetensiya ekanini namoyon etadi.

Shunday qilib, taklif etilayotgan mezonlar tizimi bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini har tomonlama va xolis baholash imkonini beradi. Mazkur mezonlar keyingi bo'limlarda ishlab chiqiladigan

metodik indikatorlar tizimi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi hamda diagnostika modelining markaziy bo'g'inini tashkil etadi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini samarali diagnostika qilish mezonlar bilan bir qatorda ularni amaliy jihatdan aniqlash imkonini beruvchi metodik indikatorlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Agar mezon mantiqiy fikrlash kompetensiyasining mazmuniy yo'nalishini belgilasa, indikator ushbu mezonning amalda qanday namoyon bo'layotganini ko'rsatuvchi aniq, kuzatiladigan va o'lchanadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Shu ma'noda, mezon va indikator o'rtasidagi farqni aniq belgilash diagnostika jarayonining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Metodik indikatorlar mezonlarga nisbatan yanada aniq va funksional xarakterga ega bo'lib, ular orqali talabalarining mantiqiy fikrlash kompetensiyasi darajasi baholanadi. Indikatorlar test, keys, amaliy topshiriq, interaktiv mashq va dalillashga qaratilgan vazifalar shaklida ifodalanishi mumkin. Muallifning pozitsiyasiga ko'ra, indikatorlar ta'lim jarayonida real qo'llanilishi, baholash natijalarining xolisligi va ishonchligini ta'minlashi lozim.

Metodik indikatorlarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilinishi maqsadga muvofiq:

aniqlik, ya'ni indikator mezon mazmunini ravshan aks ettirishi;

o'lchanuvchanlik, indikator natijalarini sifat va miqdor jihatdan baholash imkonini;

kasbiy yo'naltirilganlik, indikatorlarning bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining real faoliyati bilan bog'liqligi;

tizimlilik, indikatorlarning o'zaro bog'liq va bosqichli xarakterga ega bo'lishi.

Shu asosda ishlab chiqilgan metodik indikatorlar tizimi mantiqiy fikrlash kompetensiyasini kompleks diagnostika qilishga imkon beradi.

Mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilishda mezonlar bo'yicha indikatorlar tizimini ishlab chiqish ushbu kompetensiyaning tarkibiy jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot doirasida quyidagi indikator turlari taklif etildi: test topshiriqlari, keys-tahlil, mantiqiy zanjirlar, interaktiv mashqlar hamda yozma va og'zaki dalillashga qaratilgan vazifalar. Mazkur indikatorlar har bir mezon mazmuniga mos holda tanlandi.

Test topshiriqlari asosan kognitiv mezon doirasida qo'llanilib, talabalarning mantiqiy bilimlar, tushunchalar va qoidalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Keys-tahlil va mantiqiy zanjirlar analitik-mantiqiy mezonni baholashga qaratilgan bo'lib, talabalarning tahlil qilish,

taqqoslash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini namoyon etadi. Interaktiv mashqlar va muammoli vazifalar reflektiv hamda amaliy-qo'llanmaviy mezonlar doirasida talabalarning o'z fikrlash jarayonini baholash va uni amaliy vaziyatlarda qo'llash darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mezonlar va metodik indikatorlar muvofiqligi (jadval)

№	Diagnostika mezonlari	Diagnostika mezonlari	Diagnostika mezonlari
1.	Kognitiv mezon	Test topshiriqlari, qisqa mantiqiy savollar	Mantiqiy bilimlar, tushunchalar va qoidalarni bilish darajasi
2.	Tahliliy-mantiqiy mezon	Keys-tahlil, mantiqiy zanjirlar	Tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish qobiliyati
3.	Refleksiv mezon	Interaktiv mashqlar, o'z-o'zini baholash vazifalari	O'z fikrlash jarayonini tahlil qilish, xatolarni anglash
4.	Amaliy-qo'llanmaviy mezon	Muammoli vaziyatlar, yozma va og'zaki dalillash	Mantiqiy bilimlarni kasbiy vaziyatlarda qo'llash darajasi

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish masalasi zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqilishi talab etiladi. Mazkur maqolada mantiqiy fikrlash kompetensiyasini baholashga qaratilgan mezonlar va ularga mos metodik indikatorlar tizimini ishlab chiqish orqali ushbu muammoning ilmiy-metodik yechimi taklif etildi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan diagnostika mezonlari kognitiv, analitik-mantiqiy, reflektiv va amaliy-qo'llanmaviy mezonlar mantiqiy fikrlash kompetensiyasining mazmuniy va funksional jihatlarini kompleks qamrab olishi bilan ajralib turadi. Ushbu mezonlar mantiqiy fikrlashni faqat nazariy bilimlar majmuasi sifatida emas, balki kasbiy faoliyatda namoyon bo'luvchi integrativ kompetensiya sifatida baholash imkonini beradi. Bu esa diagnostika jarayonida xolislik va ishonchlilikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Metodik indikatorlar tizimi esa diagnostika mezonlarini amaliy jihatdan aniqlash imkonini beruvchi muhim vosita sifatida ishlab chiqildi. Test topshiriqlari, keys-tahlil, mantiqiy zanjirlar, interaktiv mashqlar hamda yozma va og'zaki dalillashga qaratilgan vazifalar orqali talabalarning mantiqiy fikrlash kompetensiyasi turli faoliyat turlarida namoyon bo'lishi ta'minlandi. Mezonlar va indikatorlar o'rtasidagi aniq muvofiqlik diagnostika jarayonini tizimli va o'lchanadigan shaklga keltirish imkonini yaratdi.

Ishlab chiqilgan mezonlar va indikatorlar tizimining muhim afzalliklaridan biri shundaki, u bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatiga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilgan. Diagnostika jarayoni o'quv materialini tahlil qilish, kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, dalillash va xulosa chiqarish kabi real pedagogik vazifalar bilan bog'liq holda tashkil etilishi mantiqiy fikrlash kompetensiyasining haqiqiy shakllanganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari mantiqiy fikrlash kompetensiyasini diagnostika qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilib, ta'lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish va ta'lim natijalarini prognoz qilish uchun ilmiy-metodik asos yaratadi. Shu bilan birga, ishlab chiqilgan mezonlar va indikatorlar tizimi kelgusida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, diagnostika modelini amaliyotda sinovdan o'tkazish va uni takomillashtirish uchun mustahkam metodik poydevor vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR**Xorijiy manbalar**

1. **Bloom B.S.** Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I. Cognitive Domain. – New York: Longman, 1956. – 207 p.
2. **Anderson L.W., Krathwohl D.R.** A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
3. **Facione P.A.** Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – California: Insight Assessment, 2015. – 28 p.
4. **Ennis R.H.** Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 2011. – 336 p.
5. **Nunan D.** Second Language Teaching and Learning. – Boston: Heinle & Heinle, 1999. – 330 p.

Milliy va mintaqaviy manbalar

6. **Хуторской А.В.** Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
7. **Шадриков В.Д.** Психология деятельности и способности человека. – М.: Логос, 1996. – 320 с.
8. **Беспалько В.П.** Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
9. **Талызина Н.Ф.** Управление процессом усвоения знаний. – М.: Изд-во МГУ, 1984. – 345 с.
10. **Сериков В.В.** Личностно-ориентированное образование. – М.: Логос, 2010. – 256 с.

So'nggi yillar tadqiqotlari

11. **Facione P.A., Gittens C.A.** Think Critically. – Pearson, 2019. – 310 p.
12. **OECD.** Education 2030: Learning Framework. – Paris, 2020. – 164 p.
13. **Moon J.** Critical Thinking: An Exploration of Theory and Practice. – London: Routledge, 2020. – 288 p.
14. **Paul R., Elder L.** Critical Thinking Tools for Taking Charge of Your Learning. – Foundation for Critical Thinking, 2021. – 72 p.
15. **Brookhart S.M.** How to Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. – ASCD, 2022. – 182 p.

Qo'shimcha manbalar

16. **Зимняя И.А.** Педагогическая психология. – М.: Логос, 2009. – 384 с.
17. **Равен Ж.** Компетентность в современном обществе. – М.: Когито-Центр, 2002. – 396 с.
18. **Byram M.** Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
19. **Richards J.C., Rodgers T.S.** Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2014. – 410 p.
20. **Harmer J.** How to Teach English. – London: Longman, 2015. – 288 p.

YOSHLAR TARBIYASIDA SUN'IY INTELLEKT: SIYOSIY-AXLOQIY TAHLIL

SHERMATOV

*Avazbek G'ofur o'g'li,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi*

ANNOTATSIYA:

Maqolada Yangi O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash jarayonida sun'iy intellekt (SI)ning o'ri, imkoniyatlari va xavflari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot integrativ adabiyotlar sharhi va tematik sintez yondashuvi orqali olib borilib, SIning ta'limni shaxsiylashtirish kabi ijobiy jihatlari bilan birga, akademik halollik, dezinformatsiya va manipulyatsiya kabi salbiy xatarlarni ham kuchaytirishi ko'rsatiladi. Muallif "qadriyatlarga yo'naltirilgan SI tarbiya modeli"ni taklif qilib, unda o'qituvchining yetakchi roli, mediasavodxonlik, akademik halollik chegaralari va maxfiylik masalalarini markazga qo'yadi hamda amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, yoshlar, tarbiya, qadriyatlar, mediasavodxonlik, halollik, dezinformatsiya.

АННОТАЦИЯ:

В статье рассматривается роль искусственного интеллекта (ИИ) в духовно-нравственном воспитании молодежи в условиях «Нового Узбекистана», с акцентом на возможностях и рисках. На основе интегративного обзора литературы и тематического синтеза показано, что ИИ способен усиливать персонализацию обучения, но одновременно повышает угрозы академической недобросовестности, дезинформации, манипуляции и нарушений приватности. Предлагается «ценностно-ориентированная модель воспитания с ИИ», где ключевыми являются ведущая роль педагога, медиаграмотность, границы допустимой помощи ИИ и ответственное управление данными; также даются практические рекомендации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, молодежь, воспитание, ценности, медиаграмотность, честность, дезинформация.

ANNOTATION:

This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) in youth moral and civic education in "New Uzbekistan," focusing on both opportunities and risks. Using an integrative literature review and thematic synthesis, it highlights AI-driven personalization in education alongside threats


such as academic misconduct, misinformation, manipulation, and privacy vulnerabilities. The paper proposes a “values-oriented AI upbringing model” that prioritizes teacher leadership, media literacy, clear academic integrity boundaries, and responsible data governance, and it offers practical recommendations for educational institutions and policy implementation.

Key words: AI, youth, education, values, media-literacy, integrity, misinformation.

Kirish

Raqamli transformatsiyaning kuchayishi sharoitida sun'iy intellekt yoshlarning dunyoqarashi, axborot makonida o'zini tutishi, ta'lim va tarbiyasiga, qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir qiluvchi muhim omilga aylandi. Uning ommalashuvi axborot makoni va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda turli institutsional o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'lmoqda. Shu ma'noda, keng ko'lamli raqamli evrilishlar davrida yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash endilikda faqat ta'lim sohasining tor doiradagi muammosi emas, balki davlatning axborot xavfsizligi, salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy boshqaruv vazifasi sifatida ko'rilishi lozim. Sun'iy intellekt vositalari tarbiyaviy kontentni shaxsiylashtirish va kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ijobiy natija berishi mumkin, biroq ayni paytda dezinformatsiya, manipulyatsiya va akademik halollik inqirozi orqali muhim qadriyatlar tizimini, yoshlarning aqliy salohiyatini zaiflashtirishi ehtimoli ham mavjud.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim, boshqaruv va ommaviy kommunikatsiyalar kabi sohalarga tezkorlik bilan kirib bormoqda. O'zbekiston sharoitida ham SIni rivojlantirish va qo'llash bo'yicha institutsional chora-tadbirlar davlatning ilg'or raqamli siyosati bilan uyg'unlashmoqda: xususan, “Raqamli O'zbekiston – 2030” [1], “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish” [2] kabi strategiyalar sohaning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. SIga asoslangan texnologiyalar yoshlar bilan ishlashda, ayniqsa ma'naviy-ma'rifiy tarbiya tizimida yangi imkoniyatlarni taqdim etadi: individual ta'lim imkoniyatlari, ijtimoiy-madaniy kontentlarga muammosiz kirish, maslahat-murabbiylik xizmatlaridan beminnat foydalanish va boshqalar.



Shunga qaramay, SIning tarbiyaviy jarayonlarga jalb etilishi faqat ijobiy natijalar bilan cheklanmaydi. Uning aks ta'siri generativ sun'iy intellekt dasturlarida ko'rinadi. SI ta'lim va akademik faoliyatda topshiriqlarni sun'iy idrok zimmasiga yuklashni osonlashtirib, insonning aqliy va ijodiy salohiyati yo'qolishiga sabab bo'ladi va akademik halollik mezonlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi [10: 125-126].

Akademik hamjamiyat SI va raqamli ochiqlik sharoitida plagiat, neyrotarmoqlar orqali matn yaratish holatlarini axloqiy muammo sifatida ko'rsatadi [15]. Bundan tashqari, raqamli platformalar va sun'iy intellekt yoshlar ongiga siyosiy-axborot ta'sirini kuchaytirishi, dezinformatsiya, propaganda va boshqa zararli harakatlar ta'siriga tushishiga olib kelishi mumkin [13]. Shu boisdan, Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda sun'iy intellektni xavfsiz qo'llash masalasini **“imkoniyatlar + xatarlar + axloqiy boshqaruv”** uchligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ushbu tadqiqot ishi integrativ adabiyotlar sharhi va tematik sintez yondashuvi orqali bajarildi. Maqsad – sun'iy intellektning yoshlar

ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sirini “imkoniyat-xatar-boshqaruv” uchligi asosida tizimlashtirish va O'zbekiston sharoitiga mos konseptual tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ishi 2021–2025-yillar davomida chop etilgan, “sun'iy intellekt”, “yoshlar” kalit so'zlari asosida tanlab olingan, ko'p havola beriladigan mavzuga tegishli ilmiy maqolalarning tahliliy sintezi asosida shakllantirildi. Tadqiqot empirik so'rov, eksperiment emas, adabiyotlar tahliliga asoslangan. Keyingi bosqichda O'zbekiston yoshlari orasida SI dan foydalanish amaliyoti va tarbiyaviy natijalarga ta'sirini o'lchash uchun so'rov, intervyu hamda indikatorlar tizimini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

SI ning ta'lim jarayonlariga kirib borishi ilmiy manbalarda o'quv jarayonini shaxsiylashtirish va tarbiyaviy mexanizmlarni kuchaytirish imkoniyati sifatida talqin qilinadi. Novoselov va Kukin SI yordamida masofaviy ta'limni optimallashtirish, ta'lim jarayonini samarali diagnostika qilish, individual rejalashtirish hamda yoshlarning “o'z taqdirini belgilashi” imkoniyatlarini (*self-determination*) qo'llab-quvvatlash mumkinligini ko'rsatib beradi [12: 172]. Ularning yondashuvida SI an'anaviy o'qituvchi o'rnini egallamaydi, balki uning tarbiyaviy-metodik vazifalari uchun vaqt va e'tiborini samarali boshqarishga

yordam beruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi[12: 176-177].

Generativ sun'iy intellektning keng tarqalishi fonida talabalarda intellektual va ijodiy vazifalarni sun'iy ong yordamchilariga "delegatsiya" qilish(vazifani topshirish)tendensiyasi kuchayishi mumkin: Ivanko talabalarining SIga akademik va ijodiy topshiriqlarni bajartirishga urinishi kuchayayotgani haqida yozadi[10: 125]. Muallifga ko'ra, bu holat insonga xos bo'lgan tanqidiy fikrlash, ijodiy masalalarni hal qilish kabi qobiliyatlarning yo'qolishi orqali "intellektual degradatsiya" xavfini kuchaytiradi[10: 135]. Akademik halollik nuqtayi nazaridan Jadunova raqamli erkinlik sharoitida plagiat va "tayyor matn" amaliyotlari keskin muhokamalarga sabab bo'layotganini, neyrotarmoqlarning matn yaratishi "mualliflik" va "plagiat" chegaralarini murakablashtirgani sababli ular yaratgan kontentdan foydalanish bo'yicha qoidalar hamda aniqlovchi deteksiya vositalarini takomillashtirish zarurligiga urg'u beradi[15: 8]. Ivanko mas'uliyatli foydalanish tamoyillarini (halollik, shaffoflik, maxfiylik va boshqalar) SI ni boshqarishning zarur etik mezonlari sifatida qayd etadi[10: 125-138].

SI davrida mediasavodxonlik masalasi yoshlar tarbiyasining bazaviy kompetensiyasiga aylanishini qayd etish kerak. Bikov va hammualliflar generativ SI ommalashuvi mediasavodxonlikni postindustrial jamiyatda zarur kompetensiya si-

fatida yanada dolzarb qilganini ko'rsatadi[8: 5]. Shuningdek, mediasavodxonlik asta-sekin insoniyat uchun zarur hislatga aylanib borishi, chunki u sun'iy intellektni to'g'ri qo'llash va raqamli kommunikatsiyalar bilan bog'liq ehtimoliy xatarlarni minimallashtirishga imkon berishini ta'kidlaydi[8: 12]. Soxta(feyk) kontentlarni yaratish imkoniyati va kommunikativ-psixologik xatarlarning ortib borishi fonida faktcheking, manipulyativ usullarni aniqlash va mas'uliyatli kontent iste'moli "axborot immunitet"ining amaliy ko'rinishiga aylanadi.

Sun'iy intellekt ommalashuvi sharoitida siyosiy-axborot maydonida Pobedin dezinformatsiya va targ'ibotning kuchayishi, namoyishlar uyushtirish hamda ekstremistik tuzilmalarga yollash kabi xavflarni qayd etadi[13] va yosh avlodning sun'iy intellekt vositasida manipulyatsiya qilinishi, ularning "axborot quduqlari"ga tushib qolishi mumkinligidan ogohlantiradi[13: 73]. Shu bilan birga, SI davrida maxfiylik masalasi ham muhim ahamiyatga ega: Muhammadiyeva o'smirlar kontekstida shaxsiy ma'lumotlarning yig'ilishi va maxfiylik buzilishi ehtimolini xavf sifatida ko'rsatadi[11: 28]. O'zbekiston sharoitida esa SI ni joriy etish davlatning raqamli transformatsiya siyosati bilan uyg'un ravishda olib borilmoqda[9]. Sattorov yoshlarning sun'iy intellekt sohasidagi bilimlari yetarli bo'lmashligi ular uchun katta to'siqqa aylanishi, bu borada bir xil imkoni-



yatlarga ega bo'lmashlik yoshlar orasida imkoniyatlar tengsizligi va ijtimoiy adolatsizlik yuzaga kelishiga olib kelishini ta'kidlaydi[14: 892].

Natijalar

SI ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual yondashuv asosida bilim olishini kuchaytirishi, masofaviy o'qish imkoniyatlarini kengaytirishi va kelajakda o'z yo'lini topishiga ko'maklashishga imkon beradi. Xususan, masofaviy ta'limni optimallashtirish va kasbiy yo'naltirish instrumentlarini integratsiya qilish yoshlarning "o'z yo'lini topishi" (self-determination) bilan bog'lanadi[12:172, 176–177]. Bu yondashuv ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada muhim ahamiyatga ega: masalan, sun'iy intellekt o'quvchiga individual qiziqishlar asosida milliy-madaniy meros, kitobxonlik, ijtimoiy qadriyatlar bo'yicha mos kontentni tavsiya etishi mumkin.

Generativ chat-botlar ta'lim jarayonidagi topshiriqlarni bajarishda "delegatsiya" qilish(vazifani yuklash) istagini kuchaytiradi: talabalar SI yordamida nafaqat informatsion, balki ijodiy topshiriqlarni ham bajarishga urinishi qayd etiladi[10: 125–126]. Akademik axloq me'yorlari doirasida esa plagiat, neyrotarmoqlar orqali matn generatsiyasi va onlayn baholashda ko'chirish kabi amaliyotlar yangi salbiy tendensiyalar sifatida muhokama qilinadi[15: 11]. Bunday vaziyatda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning muhim komponentlari bo'lgan mas'uliyat, halollik, aqliy mehnatga bo'lgan hurmat kabi qadriyatlar bevosita sinovdan o'tadi.

Katta til modellari va generativ sun'iy idrokning ommalashuvi mediasavodxonlik(*yoki "mediama'rifat"*)ni postindustrial jamiyatda muhim kompetensiya sifatida dolzarblashtiradi; shaxs SIDan to'g'ri foydalanishi va raqamli kommunikatsiya xavflarini kamaytirishi mediasavodxonlik darajasiga bog'lanadi[8: 5]. Demak, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya endi faqat "qadriyatlarni singdirish" emas, balki **axborotni tekshirish**, manipulyativ kontentni ajratish, shaxsiy "raqamli intizom"ni shakllantirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Siyosiy fanlar doktori Sh.Paxrutdinov ta'limda mediasavodxonlikning bugungi o'rni haqida to'xtalib, bu borada uzluksiz ta'limni yo'lga qo'yish kerakligini ta'kidlaydi:

"Media saboqlari fanlar orasida "yashiringan"

holda emas, mustaqil, tizimli ravishda o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda uzluksiz ta'lim tamoyillarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda media savodxonlik asoslari berilib, o'quvchilarga axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash, axborot xavfsizligining dastlabki qoidalari o'rgatilishi dakor. O'rta sinflarda media savodxonlik bilimdonlik darajasiga ko'tarilib, o'quvchilar turli media kanallari bilan ishlash, axborotni tahlil qilish, raqamli kontent yaratish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari kerak¹".

Raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishda dezinformatsiya, propaganda, namoyishlar uyushtirish va ekstremistik tuzilmalarga yollash kabi salbiy maqsadlarda ishlatilishi mumkinligi ta'kidlanadi[13: 65]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt foydalanuvchilari orasida faqat o'z qarashlariga mos keluvchi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan "aks-sado xonalari"ga qamalib qolishidan xavotirlar kuchayib bormoqda[4]. Bu yerda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya nuqtayi nazaridan muhim xulosa kelib chiqadi: yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va axborot immuniteti SI vositasida bir vaqtning o'zida ham mustahkamlanishi, ham yemirilishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida SIni joriy etish "Raqamli O'zbekiston-2030"[1], "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi"[2] kabi muhim strategik hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Biroq yoshlar va SI munosabatlarida imkoniyatlar bilan birga tengsizlik va axloqiy me'yorlar buzilishi xavfi ham ko'rsatiladi: texnologiyadan foydalana olish masalasidagi tafovut ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishi, shuningdek, SIn axloqiy hisob-kitoblarsiz qo'llash, noto'g'ri foydalanish va zararli maqsadlarni kuchaytirishi mumkin[14: 892]. Ushbu natijalar SIn tarbiya jarayonlariga olib kirishda "faqat texnologiya" emas, balki **ijtimoiy adolat** va **axloqiy boshqaruv** mezonlari ham birdek muhimligini anglatadi.

Shu o'rinda O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirishda global texnologik yangiliklarni shunchaki ko'chirib joriy qilish o'rniga milliy-madaniy kontekstdan, ma'naviy-axloqiy qarash-

¹ Shukritdin Paxrutdinov. Ustunlikka erishish omili.

"Jadid" gazetasi, 2026-yil 1-yanvar soni, № 1 (105), - 5 b.

lardan kelib chiqib ish yuritishga harakat qilinayotganini ta'kidlab o'tish kerak. Mahalliy SI dasturi loyihasi – “BONU AGI” bunga misol. “BONU AGI” dasturi foydalanuvchi so'rovlariga mahalliy ijtimoiy va madaniy xususiyatlardan kelib chiqib javob beradi. Bu tizimga O'zbekiston aholisining qanday muloqot qilishi, qanday fikr yuritishi va savollarni qanday shakllantirishini yaxshiroq aks ettirish imkonini beradi. Bu yerda “BONU AGI” hozir mavjud global platformalarning mahalliy lashtirilgan nusxasi emas, balki kontekstual xabaridorlikka katta ustunlik beradigan SI yaratishdagi foydali yondashuv sanaladi[3]. Hozirda mazkur dasturning o'ziga xosligi, dunyo mamlakatlari undan namuna olishlari mumkinligi haqida xalqaro maydonda fikrlar bildirilmoqda[6, 7].

Muhokama:

Yuqoridagi natijalar asosida Yangi O'zbekistonda yoshlar ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida sun'iy intellektni joriy etishning **5 komponentli modelini taklif qilish mumkin:**

1. Qadriyatlarga yo'naltirilgan kontent tavsiyasi. SI asosida ishlovchi tavsiya algoritmlari kontentni taklif qilishda “eng ko'p ko'rilganlar”, “eng ko'p like bosilganlar” emas,

ma'naviy-ma'rifiy maqsadlarga xizmat qiluvchi(kitobxonlik, tarixiy xotira, fuqarolik mas'uliyati kabilarni kuchaytirish orqali) kontentga ustuvorlik berishi lozim.

2. O'qituvchi – asosiy shaxs. SI esa yordamchi. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektning keng qo'llanilishi an'anaviy o'qituvchining o'rnini almashtirish xavfini yuzaga chiqarmoqda. Sun'iy idrokning bugungi texnologik taraqqiyot davrida tezlik bilan rivojlanib borishi, ta'limda faol qo'llanilishi tabiiy jarayon bo'lib, uni cheklab bo'lmaydi. Aksincha, u yaratayotgan o'zgarishlar bilan murosa qilish lozim. Shunday bo'lsa-da, SI ta'limda yoshlar uchun yordamchi bo'lib qolishi, inson sun'iy intellektga emas, sun'iy intellekt insonga xizmat qilishi kerak[16: 73]. Bir so'z bilan aytganda, o'quv-tarbiya jarayonlarida o'qituvchi va murabbiy asosiy shaxs sifatida o'z o'rnini saqlab qolishi kerak.

3. Mediama'rifat – muhim ko'nikma. SI taraqqiyoti davrida mediasavodxonlik turli xavflarni kamaytiruvchi tayanch kompetensiyaga aylanadi [8: 12]. Tarbiya jarayonlarida, o'quv dasturlarida faktcheking darslari, manipulyatsiyani aniqlash, “axborot gigiyenasi” kabi amaliyotlar



joriy qilinishi zarur. Bunda mediasavodxonlik turli fanlarda yashirin fragmentar shaklda emas, boshlang'ich sinflardan boshlab, uzluksiz joyi qilinishi kerak[5: 5].

4. Akademik halollik chegaralari belgilanishi kerak. Generativ SI keng tarqalishi fonida plagiat va neyrotarmoqlar orqali matn yaratish kabi amaliyotlar kuchayib boradi. Shu bois, ta'limda SI ning chegaralarini aniqlab olish zarur. "Ruxsat etilgan sun'iy ong yordami"(masalan, reja, tahrir, bibliografiya tuzish kabilar) va "taqiqlangan yordam"(matnni to'liq generatsiya qilib topshirish) chegaralari aniq belgilab berilishi kerak. Mazkur masala bugun dunyo ilm-fanining asosiy og'riqli masalalaridan biriga aylandi. "Intellectual vazifalarni neyrotarmoqqa yuklab qo'yish" o'quvchining aqliy salohiyatiga ham, akademik obro'siga ham birdek ziyon yetkazadi.

5. Axborot va maxfiylik – muhim masala. Yoshlarning SI bilan yaqinlashuvi tartibli ravishda amalga oshishi lozim. Sun'iy ong asosida ishlovchi turli o'yinchoqlar, raqamli qurilmalar va ilovalar orqali shaxsiy ma'lumotlarning yig'ib borilishi maxfiylikka tahdid tug'diradi[11: 28]. Shu sababli tarbiyaviy platformalarda shaxsiy ma'lumotlar to'plab borilishini minimallashtirish, rozilik berishda ehtiyotkorlik, shaffoflik va xavfsizlik auditlarini majburiy bo'lishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, amaliy tavsiyalar sifatida: (a) ta'lim muassasalari uchun "sun'iy intellekt axloq kodeksi" va "akademik halollik reglamenti"ni ishlab chiqish; (b) mediasavodxonlik dasturlariga SI bo'yicha dolzarb mavzularni kiritish; (d) yoshlarni siyosiy-axborot

manipulyatsiyalaridan asrash bo'yicha monitoring va qarshilik mexanizmlarini ishlab chiqish; (e) SI dan foydalanishda teng imkoniyatlar va axloqiy risklar bo'yicha ijtimoiy adolat indikatorlarini joriy etish; (f) milliy SI strategiyalari, normativ hujjatlari doirasida qadriyatlarga yo'naltirilgan sinov platformalarni sinovdan o'tkazish kabi qadamlar tavsiya qilinadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari bir tomondan Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini kuchaytirishda qo'l kelishi mumkin: u ta'limni shaxsiylashtirish va yoshlarning o'z taqdirini belgilashini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda foyda beradi[12: 172, 176–177]. Boshqa tomondan, generativ sun'iy intellekt yoshlar orasida akademik halollik va kognitiv faollik uchun turli xavflarni yuzaga keltiradi[10: 125–126; 15: 11]. Mediasavodxonlik esa bu vaziyatda ehtimoliy xatarlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega tayanch kompetensiyaga aylanadi[8: 5]. Siyosiy-axborot ta'siri va manipulyatsiya xavflari yoshlar tarbiyasini "axborot immunitet"i bilan bevosita bog'laydi[13: 65, 71]. Shu sababdan, SI ni tarbiya jarayonlariga joriy qilish faqat "texnologik modernizatsiya" emas, balki **qadriyat + etik boshqaruv + xavfsizlik** tizimi sifatida joriy etilishi lozim. Umuman olganda, sun'iy intellektning yoshlarga ta'sirini tahlil qilishda axloq va tarbiya prizmasidan qarash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarbiya – bu faqat pedagogik masala emas, balki **davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolik ongini shakllantirish, axborot suvereniteti** bilan bog'liq vazifasi sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020, PF-6079-son, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024, PQ-358-son, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://www.lex.uz/docs/-7158604>
3. BONUS AGI, URL: <https://bonusi.uz/>
4. Gaurav Goswami. AI Echo Chambers: How Algorithms Shape Reality, Influence Democracy, and Fuel Misinformation. TechRxiv. February 26, 2025. <https://doi.org/10.36227/techrxiv.174059950.03385147/v1>
5. Shukritdin Paxrutdinov. Ustunlikka erishish omili. "Jadid" gazetasi, 2026-yil 1-yanvar soni, № 1 (105), - 5.

6. Uzbekistan introduces its first national AI System: BONU AGI, URL: <https://londonpost.news/uzbekistan-introduces-its-first-national-ai-system-bonu-agi/?amp=1>
7. Uzbekistan Launches Its First National Artificial Intelligence: BONU AGI, URL: <https://www.eureffect.com/uzbekistan-launches-its-first-national-artificial-intelligence-bonu-agi>
8. Быков, И. А., Медведева, М. В., & Шарахина, Л. В. (2025). Медиаграмотность как актуальная компетенция в пространстве цифровых коммуникаций с использованием технологий искусственного интеллекта. *Вопросы журналистики, педагогики, языкознания*, 44(1), 5–14. <https://doi.org/10.52575/2712-7451-2025-44-1-5-14>
9. Гулямов, С.С., Шермухамедов, А.Т., Мухитдинова, М.Х. (2022). Развитие искусственного интеллекта в Узбекистане. *International Journal of Theoretical and Practical Research*, 2(5), 7–17. <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6656672>
10. Иванько Н.А. Искусственный интеллект в образовании: социальная инновация или когнитивная деградация? // Вестник РГГУ. Серия «Литературоведение. Языкознание. Культурология». 2025. №. С.125–138. <https://doi.org/10.28995/2686-7249-2025-7-125-138>
11. Мухамадиева, К. Б. (2021). Искусственный интеллект в развитии молодежи. *Образование и проблемы развития общества*, 2(15), 27–33. <https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-v-razviti-i-molodezhi>
12. Новоселов, Д. О., & Кукин, А. М. (2024). Использование искусственного интеллекта в сфере образования. *Телескоп: журнал социологических и маркетинговых исследований*, (4), 172–178. <https://doi.org/10.24412/1994-3776-2024-4-172-178>
13. Победин, П. (2024). Использование искусственного интеллекта и цифровых технологий как метода политического влияния на молодежь. *Постсоветский материк*, 4(44), 65–78. https://doi.org/10.48137/23116412_2024_4_65
14. Саттаров, Х. Ф. (2025). Молодежь и искусственный интеллект: движение к новому мышлению. “Экономика и социум” №10(136)-1, 2025. - 889–894.
15. Жадунова Н. В. (2024). АКАДЕМИЧЕСКАЯ ЭТИКА: «НОВЫЕ» СПОРЫ ВОКРУГ «СТАРЫХ» ПРОБЛЕМ. Социальные нормы и практики, (1), 07-15. <https://doi.org/10.24412/2713-1033-2024-1-07-15>
16. Шевчук Н.В. Влияние технократизма на формирование политической культуры молодежи: нейросети в общественной жизни и в образовательном процессе // Общество: философия, история, культура. 2025. № 9. С. 70–76. <https://doi.org/10.24158/fik.2025.9.9>

ANNOTATSIIYA

BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA MA'MURIY JAVOBGARLIK MEXANIZMLARINING KUCHAYTIRILISHI HAMDA YANGI QONUNCHILIK VA INSTITUSIONAL ISLOHOTLAR TAHLILI

KUTPIDDINOV

*Xusniddin Muxiddinovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini, xususan ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ma'muriy javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi qonunchilik va institusional islohotlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Vasiylik va homiylik tizimida amalga oshirilgan institusional o'zgarishlar, Ijtimoiy inspeksiyaning ma'muriy vakolatlari hamda monitoring mexanizmlarining ahamiyati ochib berilgan. Maqolada sohadagi islohotlarning profilaktik va huquqiy samarasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: bolalar huquqlari, vasiylik va homiylik, ma'muriy javobgarlik, ijtimoiy himoya, Ijtimoiy inspeksiya, profilaktika, huquqiy nazorat.

АННОТАЦИЯ

В статье проведён научно-правовой анализ новых законодательных и институциональных реформ, направленных на усиление механизмов административной ответственности в сфере защиты прав детей, в том числе детей, оставшихся без попечения родителей. Особое внимание уделено реформированию системы опеки и попечительства, расширению полномочий Социальной инспекции и внедрению эффективных механизмов мониторинга. Обоснована профилактическая и правовая значимость принятых мер.

Ключевые слова: права детей, опека и попечительство, административная ответственность, социальная защита, социальная инспекция, профилактика, правовой контроль.

ANNOTATION

This article provides a scientific and legal analysis of recent legislative and institutional reforms aimed at strengthening administrative liability mechanisms in the field of child rights protection, particularly for children deprived of parental care. Special attention is paid to the reform of the guardianship and trusteeship system, the expansion of powers of the Social Inspection authority, and the introduction of effective monitoring mechanisms. The preventive and legal significance of these reforms is substantiated.

Key words: children's rights, guardianship and trusteeship, administrative liability, social protection, social inspection, prevention, legal supervision.

Bosh qomusimiz hisoblangan Konstitutsiyada, davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlashi belgilangan.

Shunga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida bolalar huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar jamiyatning eng himoyasiz qatlamini tashkil qiladi va ularning huquqlarini ta'minlash nafaqat ijtimoiy, balki huquqiy jihatdan ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, bolalarni joylashtirish shakllari, ya'ni vasiylik va homiylik, patronat va farzandlikka olish tizimlarini tartibga soluvchi qonunchilik doimiy takomillashtirilmoqda.

Amaldagi ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar quyidagi joylashtirish shakllari bo'yicha joylashtirilganligi ma'lum bo'ldi:

Vasiylik va homiylikka berilgan bolalar – 75 959 nafar (*vasiylikda 51 588 nafar, homiylikda 24 371 nafar*);

Tarbiya (patronat)ga berilgan bolalar – 967 nafar;

Farzandlikka olingan bolalar – 3 915 nafar;
Oilaviy bolalar uylari – 369 ta, ularda 670 nafar bola;

Bolalar uylari – 4 ta (*65 nafar bola*);

Mehribonlik uylari – 2 ta (*97 nafar bola*);

Kichik hajmli bolalar uylari – 13 ta (*106 nafar bola*).

Ushbu raqamlar shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatida bolalarni vasiylik va homiylikka joylashtirish ustuvor o'rin tutadi. Shu bois ushbu sohada kuchli huquqiy nazorat va javobgarlik mexanizmlari muhim hisoblanadi.

Normativ-huquqiy va institusional islohotlar Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jamiyatda begona bola bo'lishi mumkin emas va bo'lmasligi kerak. Har bir bola – bu O'zbekistonning farzandi, uning kelajagi va taraqqiyot omilidir.

Ayniqsa, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga o'z vaqtida mehr va e'tibor ko'rsatish, ularni ta'lim, mehnat, kasb-hunar va ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-dekabrda 893-son qarori bilan vasiylik va homiylik tizimida muhim institusional o'zgarishlar amalga oshirildi. Unga muvofiq vasiylik va homiylik organi avval tuman (shahar) hokimliklariga tegishli bo'lgan bo'lsa, endilikda ixtisoslashgan ijtimoiy xizmat organi «Inson» ijtimoiy xizmatlar markaziga o'tkazildi.

Endilikda vasiylik va homiylik masalalari bo'yicha avvallari faqatgina tuman (shahar) hokimliklari tarkibidagi sho'ba emas, balki har bir mahallardagi ijtimoiy xodimlar har bir bola bilan individual tarzda ishlash orqali vasiylik tayinlanishi mexanizmi joriy etildi.

Shuningdek, vasiy va homiylarning majburiyatlari bajarilishini Markaz ijtimoiy xodimlari tomonidan har uch oyda monitoring qilib borish hamda natijalarni shaffof tarzda "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida elektron qayd etish tizimi joriy etildi.

Ushbu o'zgarishlar professionalizmni oshirish, qarorlarni xolis va asosli qabul qilish hamda bolalar manfaatlarini birlamchi mezon sifatida belgilashga xizmat qiladi.

O'tkazilgan monitoring natijalari va ularning samarasi

2025-yilda Ijtimoiy inspeksiya tomonidan vasiylik va homiylik hamda boshqa joylashtirish shakllari bo'yicha o'tkazilgan o'rganishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan quyidagilarning amalga oshirilganligi bolalar huquqlari doimiy himoyada ekanligini ko'rsatadi, xususan:

4 652 nafar ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar aniqlanib, ularning 3 185 nafariga vasiy va homiy tayinlandi;

1 189 nafar vasiylik va homiylikdagi bolalar bo'yicha vasiy homiy majburiyatlari bajarilishi monitoring qilindi;

229 nafar bolalar turli to'g'arak va hunarga, 16 nafari ta'limga jalb qilindi.

Bu natijalar yangi institusional va monitoring mexanizmlarining samaradorligini va bolalar huquqlarini ta'minlashdagi profilaktik rolini yaqqol ko'rsatadi.

Shu maqsadda qabul qilingan «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi Qonun esa, ijtimoiy himoya sohasida yangi huquqiy mexanizmlarni joriy etib, bolalar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan nazorat va javobgarlik choralari kuchaytirdi.

Mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar, ya'ni, MjTKning 472 (*Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda qonunchilik talablarini buzish*) va 48-modda (*Vasiylik huquqini suiiste'mol qilish*)lari bo'yicha bevosita ma'muriy jazo qo'llash vakolatiga ega bo'ldi.

Bu o'zgarishlar orqali yetim va ota ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish

jarayonida yo'l qo'yilayotgan qonunbuzarliklarni tezkor aniqlash, vasiylik va homiylik sohasidagi suiiste'molliklarning oldini olish, huquqbuzarlarga nisbatan tezkor va muqarrar javobgarlikni ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Avval mazkur toifadagi huquqbuzarliklar bo'yicha aniq vakolatli organning mavjud emasligi ma'muriy ishlarning cho'zilishiga va bolalar manfaatlariga putur yetishiga sabab bo'lib kelgan.

Profilaktik va huquqiy ahamiyat.

Mazkur qonunchilik va institusional o'zgarishlar nafaqat jazolash, balki huquqbuzarliklarning oldini olish, vasiy va homiylarning mas'uliyatini oshirish hamda bolalar bilan ishlash sohasida huquqiy madaniyatni rivojlantirish yo'nalishlariga xizmat qiladi. Ayniqsa, 70 mingdan ortiq bola vasiylik va homiylikda tarbiyalanayotgan sharoitda, profilaktik nazoratning mun-tazamligi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida 2024–2025-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va institusional islohotlar, xususan, vasiylik va homiylik organlarining ixtisoslashuvi, ma'muriy javobgarlik mexanizmlarining kuchaytirilishi ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini barqaror va ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22-dekabr 2017-yil. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // <https://lex.uz/acts/-97664>



